

# KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI

**Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining  
9-sinf oʻquvchilari uchun darslik**

*Tuzatilgan va toʻldirilgan yettinchi nashr*

*Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi  
tomonidan tasdiqlangan*

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2014

**Taqrizchilar:**

- I. A. XAMEDOV** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining “Davlat va huquq” kafedrası profes-sori, yuridik fanlari doktori;
- A. OCHILOV** – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi “Huquqiy tar-g‘ibot va huquqiy ta‘lim” boshqarmasi boshlig‘i;
- SH. ZULFIQOROV** – Toshkent Davlat yuridik universiteti “Konstitutsiyaviy huquq” kafedrası mudiri, yuridik fanlari nomzodi, dotsenti,
- M. XAMIDOVA** – Toshkent Davlat yuridik universiteti “Davlat va huquq nazariyasi va tarixi kafedrası” dotsenti, yuridik fanlari nomzodi;
- M. NAJIMOVA** – Toshkent Davlat yuridik universiteti “Davlat va huquq nazariyasi va tarixi kafedrası” dotsenti, yuridik fanlari nomzodi;
- M. AHMEDOVA** – Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 303-maktab davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi.

Darslikning o‘quv-metodik ishlanmasi va ma‘lumotnomasi

V. A. Kostetskiy tomonidan tayyorlangan.

**Shartli belgilar:****Asosiy qonun belgilaydi****Normativ hujjat****Yakunlarni chiqaramiz****O‘zingizni sinang!****E’tibor bering****Topshiriq****Yodda tuting!**

K – 64 **G.M. Tansikbayeva, V.A. Kostetskiy**

Konstitutsiyaviy huquq asoslari: umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik./A.X. Saidov tahriri ostida – T.: “Sharq”, 2014. – 200 b.

ISBN 978-9943-26-041-2

UO‘K 342.4(075)

KBK 67.400ya 721

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari  
hisobidan ijara uchun chop etildi.**

© G. M. Tansikbayeva, V. A. Kostetskiy, 2010, 2014.

© “Sharq” NMAK Bosh tahririyati, 2010, 2014.

## KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT

Sizning qo‘lingizda murakkab, ko‘p qirrali va qiziqarli huquqlar dunyosi to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi kitob turibdi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning e‘lon qilinishi va suveren demokratik davlat qurilishi huquqiy asoslar – davlat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini belgilovchi qonunchilik va huquqshunoslik poydevorini shakllantirishdan boshlandi. Shuning uchun fuqarolar tomonidan qonunlarning ijrosi ongli ravishda va qonun asosida amalga oshirilishi lozim.



Davlatimiz Prezidenti Islom Karimov O‘zbekistonning rivojlanish istiqbollari haqida so‘z yuritar ekan, har kim o‘z huquqlarini bilishi, ulardan foydalana olishi, o‘z huquq va erkinliklarini bilishi uchun aholining huquqiy madaniyatini oshirish nechog‘liq muhim ekanligini har doim eslatib o‘tadilar.

Jumladan, **“Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”** kitobida bugungi shiddatli davrda chinakam ma‘naviyatli va ma‘rifatli odamgina inson qadri-ni bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkinligini ta’kidlagan.

Sharqning buyuk donishmandi **Abu Ali ibn Sino**: “Nega dunyoda yovuzlik bu qadar ko‘p?” – degan savolga: “Sababchisi siz-u biz. Bilmaslik yoki uquvsizlik sababli yovuzlik bilan kurashishdan voz kechishimiz asno-sida o‘zimiz ham yovuzlikning keng tarqalishiga imkon yaratib bera-miz”, – deb javob bergan ekan.

Ushbu darslikning har bir mavzusida amaldagi qonun hujjatlari yordamida hal qilishingiz mumkin bo'lgan turli-tuman vaziyatlarni Sizga havola qilamiz. Agar Sizni qandaydir muammolar qiziqtirib qolsa, O'zbekiston Respublikasining alohida kodekslari va qonunlariga murojaat qilishingizni tavsiya etamiz. Ularda bu muammolar batafsil yoritilgan.

Matnda jahon amaliyotida qabul qilingan yuridik atamalar va tushunchalarga ham duch kelasiz. Bunday hollarda darslik oxirida berilgan yuridik atamalar lug'atiga murojaat qilishingiz mumkin.

O'rganilgan materiallarni qanchalik o'zlashtirganingizni tekshirib ko'rishga imkoniyat yaratish maqsadida har bir mavzu oxirida nazorat savollari ilova qilingan.

**Konstitutsiyaviy huquq asoslarini** o'rganishning muhimligi shundaki, bunda Siz o'z huquq va manfaatlaringizni himoya qilish yo'llari va vositalarini yaxshiroq bilib olasiz. Qonunchilik tushunchalaridan tashqari, inson xulqining axloqiy me'yorlari, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabi tushunchalar ham mavjud. Insoniyat tomonidan e'tirof etilgan axloq me'yorlariga rioya qilib, qonun asosida ish ko'rilsa, haqiqat qaror topishi mumkinligini anglaysiz.

Siz qonunchilik yordamida har bir inson hayotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'pgina muammolarni hal etish mumkinligini bilib olasiz.

Huquqiy ta'lim – bu huquqiy madaniyatning, ya'ni insonga huquq beradigan barcha ijobiy va qimmatli tomonlarni o'zlashtirishning qo'shimcha tarkibiy qismi, xolos. Axloqiy fazilatlar va huquqiy bilimlar yig'indisi yuqori darajadagi huquqiy madaniyat asosini tashkil etadi. Lekin sustkashlik bilan qonunga munosabatda bo'lish jamiyatning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir kishi o'zining va boshqalarning qonuniy haq-huquqlarini talab qila olishi, qonun buzilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Aks holda qonunchilikka va huquqiy davlat qurish imkoniyatiga bo'lgan ishonch susayadi.

Huquqshunoslik fanlari bo'yicha olgan bilimlaringiz nafaqat kelajakdagi, shuningdek, bugungi kundagi muammolarni hal etishga ham yordam beradi, deb umid qilamiz.

**Huquqiy bilimlar dunyosiga oq yo'l, azizlar!**

## I bo‘lim

# KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI



Konstitutsiya davlatning qiyofasi va nufuzini belgilab beradi. Ana shu qonunlar majmuyi orqali jahon davlatni davlat, millatni esa millat sifatida tan oladi. Konstitutsiya – xalq tafakkuri va ijodining mahsulidir.

*Islom KARIMOV*

## 1-§. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- “konstitutsiyaviy huquq” tushunchasi haqida;
- uning boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi haqida;
- uning “Huquqshunoslik” tizimida tutgan o‘rni haqida bilib olasiz.

### 1. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquq.

### 2. Konstitutsiyaviy huquq – huquqning yetakchi tarmog‘i.

## 1. KONSTITUTSIYA VA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

Siz har qanday mamlakatning asosiy qonuni konstitutsiya ekanligini yaxshi bilib oldingiz. Shu munosabat bilan Sizda: “Konstitutsiya” va “konstitutsiyaviy huquq” tushunchalari bir-biridan qanday farq qiladi?” – degan savol tug‘ilishi mumkin.

Har qanday davlatning huquq tizimida ko‘p qonunlar mavjud. Ammo ular orasida eng asosiysi deb e‘tirof etiladigani bu – konstitutsiya.

“Konstitutsiya” lotincha “*constitutio*” so‘zidan olingan bo‘lib, “*belgilash*”, “*tuzilish*” degan ma’nolarni anglatadi, ya’ni Konstitutsiya jamiyat va davlat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini tuzish hamda

ular faoliyatining asosiy prinsiplarini, ularning vakolatlarini, fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlarini, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi.

Qolgan barcha qonunlar, kodekslar, qarorlar va farmonlar konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinadi. Bu esa davlatning har bir me'yoriy hujjati konstitutsiyaga mos kelishi shart ekanligini anglatadi.

**Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.**



**Yodda tuting!**

**Konstitutsiya – bu davlatning asosiy qonuni**, unda inson va fuqaroning huquq va erkinliklari e'tirof etiladi va kafolatlanadi, davlatning boshqaruv shakli va hududiy tuzilmasi, hokimiyatning markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish tizimi hamda ularning vakolati belgilanadi. Shuningdek, qonunchilik va ijro organlari, sud hokimiyati organlarini tuzish boshqariladi, saylov tizimi belgilanadi, davlat ramzlari va Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartibi mustahkamlanadi.

Konstitutsiya bilan konstitutsiyaviy huquq o'rtasidagi farq shundaki, Konstitutsiya konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining, o'quv fani sifatida konstitutsiyani o'rganish predmetining asosiy negizi hisoblanadi, ya'ni konstitutsiyaviy huquq – bu huquq tarmog'i, Konstitutsiya esa – shu tarmoqning manbayi.



**1-topshiriq**

Quyidagi vaziyatni tasavvur qiling. Mamlakatda huquq-tartibot, qonunlar va huquq normalari bekor qilingan. Odamlar qonunga rioya etmay qo'ygan, boshqa fuqarolar huquqlarini hurmat qilmaydi, jinoyatga jazo berish va jazodan ozod qilish huquqini o'z ixtiyorlariga olganlar.

Nima deb o'ylaysiz, bunday vaziyatda davlatda nima ro'y beradi? Qonunlar mavjud emasligidan kim ko'p jabr ko'radi?



## 2-topshiriq

*Mamlakatdagi huquq tartiboti qanday shart-sharoitga bog'liq deb o'ylaysiz?*

## 2. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ – HUQUQNING YETAKCHI TARMOG'I

Huquq o'zida umummajburiy normalar tizimini mujassamlashtiradi. Bu normalar kishilar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga solib tura-di. Jumladan, ba'zi normalar oilaviy turmush sohasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solsa, boshqalari esa mehnat yoki mulkiy muno-sabatlarga ta'sir o'tkazadi.



### Yodda tuting!

**Huquq** – davlat tomonidan o'rnatilgan va u tomonidan himoya qilina-digan barcha uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarining tizimi.

**Huquqiy tartibot** – bu jamiyatdagi munosabatlarning ma'lum bir ho-lati bo'lib, unga davlatning huquqiy me'yorlarida mavjud bo'lgan barcha qonun-qoidalarga majburiy ravishda rioya qilinishi natijasida erishiladi.

**Konstitutsiyaviy huquq** huquqning mustaqil tarmog'i sifatida mam-lakatning konstitutsiyaviy tuzilish asoslarini, jamiyat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv tuzilishini, davlat organlari vakolatlarini, shu dav-lat hududida yashab turgan fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini bel-gilovchi yuridik me'yorlardan iborat.



### Yodda tuting!

**Konstitutsiyaviy huquq** milliy huquq tizimida huquqning yetakchi tarmog'idir, chunki eng oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Konstitutsiya uning asosiy manbayi bo'lib xizmat qiladi.



## 3-topshiriq

*O'ylang va quyidagi savolga javob bering: qonunlarni yaxshi biladigan inson qo-nunni umuman bilmaydigan yoki yomon biladigan, yoki biladi-yu, lekin uni buzadigan kishidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?*


Kim qonunni yaxshi bilsa, u o'z manfaatlarini va jamiyat manfaatini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi, shaxsning huquq va erkinliklari buzilishiga qarshi tura oladi.

Asosiy qonun sifatida Konstitutsiya amalda davlat va xalq o'rtasidagi kelishuvni ifodalaydi. Unga ko'ra davlat xalqning bexatar va erkin rivojlanish shartlarini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Shu boisdan Konstitutsiyaning g'oyalari davlatda amal qiluvchi boshqa barcha qonunlarda ham aks etadi. Umumiy prinsiplarni o'zida mujassamlashtirgan Konstitutsiya qoidalari huquqning barcha tarmoqlarida rivojlantiriladi.

Buning tasdig'ini bilib olish maqsadida mamlakatimiz Konstitutsiyasi boblaridan biriga, masalan, oilaga bag'ishlangan bobiga murojaat qilganimizda, mazkur bob bor-yo'g'i to'rtta moddadan iborat, lekin uning mazmunidagi g'oyalar nafaqat O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida, balki ko'pgina boshqa kodeks (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, Mehnat Kodeksi, Uy-joy Kodeksi, Jinoyat Kodeksi va boshqa kodeks)larda ham aniq rivojlantirilgan. Birgina O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining o'zi 238 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolikka bag'ishlangan oltinchi bobi bor-yog'i uchta moddadan iborat. Vaholanki, "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunning o'zi 45 ta moddani o'z ichiga olgan.

Bu misollar Konstitutsiya barcha huquqiy tizimning asosi bo'lib xizmat qilishidan dalolat beradi, negaki huquqning rivojlanishi Konstitutsiyadan boshlanadi, aynan uning o'zi boshqa barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarga hayot baxsh etadi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi ham mana shunda namoyon bo'ladi. Qolgan barcha huquqiy qoidalar undan kelib chiqadi va unga muvofiq bo'lishi kerak.



Huquq tizimini piramida ko'rinishida tasavvur qilib ko'ring. Konstitutsiya shu piramidaning cho'qqisida turadi, desak, uning cho'qqisidan eng quyi qismigacha bo'lgan yonbag'irlarida boshqa barcha normativ

hujjatlar – qonunlar, kodekslar, qarorlar, farmonlar, tarmoqqa oid normalar va hokazolar joy olganligini yaqqol ko‘rasiz.

Konstitutsiyaviy huquq normalari qolgan barcha yuridik normalar, huquqning har bir tarmog‘i, har qaysi qonun va qonunosti hujjatining poydevori sanaladi. Ana shuning uchun ham konstitutsiyaviy huquq har bir mamlakat milliy huquq tizimida yetakchi mavqega ega.

### **O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquq manbalari jumlasiga quyidagilar kiradi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
6. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining buyruqlari va qarorlari.
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

**Konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbayi – Konstitutsiyadir.** Ammo konstitutsiyaviy huquq faqat Konstitutsiyadan iborat bo‘lmaydi. Boshqa qonun hujjatlari ham huquqning ana shu tarmog‘i manbalari hisoblanadi.

Barcha davlat organlari o‘z aktlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi uchun mas’uldir. Ular Konstitutsiyaga muvofiq ish yuritishlari shart.

*1-sxema*





#### 4-topshiriq

*O'ylang va javob bering:*

1. Mahalliy hokimiyat organlarining buyruq va qarorlarida mamlakat Konstitutsiyasiga nomuvofiq holatlar bo'lishi mumkinmi?
2. Konstitutsiya huquqiy munosabatlarni aniq tartibga solib turishi uchun qaysi huquq tarmoqlariga yo'naltirilishini aytib bering.
3. Nima deb o'ylaysiz, "insonning huquqqa munosabati", deganda nima ko'zda tutiladi?



#### 5-topshiriq

*Quyidagi vaziyatlar bilan tanishing. Ularda qonunchilik asoslari yoki axloq normalari buzilganligini aniqlang.*

##### **1-vaziyat.**

#### **Piton (bo'g'ma ilon) haqidagi ish**

Sirkda hayvonlarni o'rgatuvchi er-xotin M. nafaqaga chiqishgach, o'z xususiy uylarini 9 qavatli uydagi kvartiraga almashtirishdi. Ularning kvartirasi birinchi qavatda joylashgani bois baland to'siq bilan o'ralgan hovlida hayvonlarni sevuvchilar klubini tashkil etishdi. U yerda bolalar hayvonlarni parvarish qilish va o'rgatish bilan bepul shug'ullanishardi. Er-xotin M. sirkdan tomosha ko'rsata olmaydigan bo'g'ma ilon, maymun va bir nechta kuchukni olishgandi.

Tez orada ushbu ko'p qavatli uyda istiqomat qiluvchilardan sudga shikoyat tushdi. Istiqomat qiluvchilarning shikoyatida er-xotin M. shug'ullanayotgan hayvonlar hovlida yig'ilgan bolalarni qo'rqitayotgani, atrofni ifloslantirayotgani, hayvonlarni o'rgatish chog'ida shovqin solib, aholiga xalaqit berishayotganligi haqida ma'lum qilingandi.

##### **2-vaziyat.**

#### **Yo'l harakati hodisasi**

Yengil avtomashina haydovchisi I. betob xotinini zudlik bilan shifoxonaga olib borish zaruriyati tufayli tezlikni oshirdi. Piyodalar o'tish joyida tormozni bosishga ulgurmay ko'chani kesib o'tayotgan U. va S. ni turtib yubordi. Bu yo'lovchilar jarohat olishmadi. Lekin S. qo'rqib hushidan ketgani uchun "Tez yordam" chaqirishga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, jabrlanuvchilar yiqilganlarida kiyimlari iflos bo'lgandi. Haydovchi I. jabrlanuvchi S. birozdan so'ng hushiga kelganini va hech kim jarohatlanmaganini ko'rgach, mashinasida jo'nab ketdi.





## ***Yakunlarni chiqaramiz***

### **Konstitutsiyaviy huquq**

- Konstitutsiya – davlatning Asosiy qonuni;
- huquq – davlatdagi umummajburiy normalar tizimi;
- konstitutsiyaviy huquq – huquqning yetakchi tarmog‘i;
- konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbayi – Konstitutsiya;
- konstitutsiyaviy huquq normalari – jamiyat va davlat tuzilishi asoslarini mustahkamlab qo‘yadi.



## ***O‘zingizni sinang!***

1. Insonga Konstitutsiya nima uchun kerak? Nima uchun uni Asosiy qonun deb ataydilar?
2. Konstitutsiyaviy huquq nima? Konstitutsiyaviy huquqning Konstitutsiyadan farqi nimadan iborat?
3. Huquqning boshqa tarmoqlari bilan konstitutsiyaviy huquqning o‘zaro bog‘liqligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Huquq tizimida konstitutsiyaviy huquq qanday o‘rin tutadi?
5. Konstitutsiyaviy huquq nima uchun huquqning yetakchi tarmog‘i hisoblanadi?
6. Konstitutsiyaviy huquq normalarini qaysi manbalardan topish mumkin?

## **2-8. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI YARATILISHINING ASOSIY OMILLARI**

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratish tarixi haqida;
- Konstitutsiya loyihasining tayyorlanishi va qabul qilinishi haqida bilib olasiz.

1. **Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi.**
2. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.**
3. **Huquqiy idealizm va huquqiy nigilizm.**

## 1. MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI

1991-yilda davlat mustaqilligini e'lon qilib, O'zbekiston xalqi insonning huquq va erkinliklari cheklanishidan, turli darajadagi ma'murlarning qonunsizligi va zo'ravonligidan, yagona mafkura hukmronligidan xoli bo'lgan demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

O'zbekiston xalqi o'z kelajagini ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotga asoslangan huquqiy davlat qurishda ko'rdi. Bu maqsad huquq va qonun hukmronligiga hamda inson va fuqaroning huquq va erkinliklari qaror topishiga asoslangan mustaqil milliy davlatchilik barpo etish bilan uzviy bog'liqdir.

Ijtimoiy-madaniy sohada xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari qayta tiklanishiga erishish, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini joriy etish lozim.

Xalqimizning asriy an'analari, urf-odatlar, tili va ruhiga tayangan holda odamlar qalbida Vatanga muhabbat, insonparvarlik, halollik, mardlik va sabr-bardosh, adolat, bilim va ma'rifatga intilish hissini tarbiyalashda xizmat qiladigan mezon, asos zarur edi.

Yangi davlat tuzumini barpo etish, uni yuridik jihatdan rasmiylashtirishga va tartibga solib turishga ehtiyoj tug'dirdi. Yangi huquqiy-asosiy hujjatni shakllantirishni hayotning o'zi zaruriyatga aylantirdi.

Qonun hujjatlarini tubdan yangilash jarayoni, eng avvalo, mamlakatning Asosiy qonunini yaratishdan boshlandi.

Shunday qilib, **Konstitutsiyani qabul qilish zaruriyati quyidagi sabablardan kelib chiqqan edi:**

- Konstitutsiya milliy davlatni tashkil etishning yuridik asosi bo'lishi kerak, mustaqil davlatning esa o'z Konstitutsiyasi bo'lishi;
- Konstitutsiya xalqning inson huquqlari va demokratik munosabatlarni e'lon qilishga intilishlarini qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yishi;
- Konstitutsiya inson va fuqarolarning jamiyat va davlatdagi asosiy huquqlari va burchlarini qonun yo'li bilan mustahkamlashi;
- Konstitutsiya mamlakatdagi yangi bozor munosabatlarini qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yishi;
- Konstitutsiya shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlar xarakterini, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilab berishi zarur edi.

## 2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1990-yil 24-martda bo‘lib o‘tgan XII chaqiriq birinchi sessiyasida yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish masalasi ko‘rib chiqildi. Oliy Sovetning 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan ikkinchi sessiyasida Respublika Prezidenti Islom Karimov raisligida Konstitutsiya komissiyasi tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi olim, jamoat namoyandalari va davlat boshqaruv organlari mutaxassisarlari tomonidan puxta ishlab chiqildi. Uni yaratish uchun uchta komissiya tuzilib, ular bir-biridan mustaqil ravishda Asosiy qonun loyihalarining o‘z variantlarini tayyorladilar.

Har bir loyiha muhokamasidan keyin eng optimal varianti tanlab olindi. Bu variant boshqa variantlardagi ma‘qul qismlari bilan to‘ldirildi. Konstitutsiyaning umumxalq muhokamasi uch oy davom etdi. Muhokama jarayonida loyihaga 80 dan ortiq tuzatishlar kiritildi.

Bunday muhokama natijasida Konstitutsiya muntazam tuzatishlar kiritaverishga hojat bo‘lmaydigan mukammal hujjat holatiga keldi.

Keng umumxalq muhokamasi davomida bildirilgan ko‘p takliflar inobatga olingan holda komissiya tomonidan tayyorlangan Konstitutsiya loyihasi Oliy Kengash muhokamasiga qo‘yildi. 1992-yilda Oliy Kengashning XI sessiyasida bu loyiha ma‘qullandi va O‘zbekiston Respublikasining hozir amal qilayotgan Konstitutsiyasi qabul qilindi.



Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi shu tarzda amalga kiritildi, **8-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qiligan kun**, umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat deb e'lon qilingan; inson manfaatlarini, uning huquqlari va erkinliklari davlatnikiga nisbatan ustuvorligi tan olingan; davlatning to'g'ridan to'g'ri vazifasi – inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish deb belgilangan; siyosiy plyuralizm prinsipi mustahkamlab qo'yilgan; xalq hokimiyatining yagona manbai deb tan olingan, shuningdek, xalqaro normalarning ustuvorligi mustahkamlab qo'yilgan.



### 1-topshiriq



Har bir guruh muhokama uchun asoslar tayyorlashi lozim.

*O'zingizni Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha Konstitutsiya komissiyasining a'zosi deya tasavvur qiling. Komissiyangizga 16 yoshga to'lgan shaxslarning saylovlarda ishtirok etishiga ruxsat berilishi xususida taklif tushdi.*

*Guruhlarga bo'ling, ulardan ikkitasi bu taklifni qabul qilishni yoqlasin, ikkitasi esa qarshi bo'lsin.*

## 3. HUQUQIY IDEALIZM VA HUQUQIY NIGILIZM

Yurisprudensiyada kishining huquqiy madaniyati darajasi baholanadigan tushuncha mavjud. Ularga shaxsning huquqiy madaniyati, huquqiy idealizm va huquqiy nigilizm kabi tushunchalar taalluqlidir.



### Yodda tuting!

**Shaxsning huquqiy madaniyati** quyidagilarni ko'zda tutadi: huquqiy bilimlarga, huquqiy axborotlarga ega bo'lishi, olgan axborot va huquqiy bilimlarning huquqiy ishonchga aylanishi, huquqqa rioya qilishga odatlanishi, ushbu huquqiy bilimlarga va huquqiy e'tiqodga tayanagan holda ish yuritishga tayyorligi, ya'ni qonunga muvofiq ish olib borishi, o'z huquqidan foydalanishi, majburiyatlarni bajarishi,

taqiqlanishlarga rioya qilishi, shuningdek, o'ziga nisbatan huquqbuzarlik sodir qilinganda huquqlarini himoya qila olishi.

**Huquqiy idealizm** – bu qonunning butun kuchiga va cheksiz imkoniyatlariga ishonishdir.

Huquqiy idealizm tarafdorlari “yaxshi qonunlar” qabul qilishning o'zi yetarli, shu bilan butun muammolar hal bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradilar.

**Huquqiy nigilizm** – qonunga, huquqqa nisbatan hurmatsizlik, qonun talablariga rioya etmaslik. Huquqiy nigilizm amaldagi qonunlarni buzish va og'ir jinoyatlarni sodir etishda namoyon bo'ladi.

Bunda huquqni buzgan yoki jinoyat sodir etganlarning ko'pchiligi qilayotgan xatti-harakatlari qonunda taqiqlanganligini biladilar, ammo noqonuniy xatti-harakatlarini hech kim sezmaydi, deb ishonishadi.



## 2-topshiriq

*Huquqiy idealizm va huquqiy nigilizm tushunchasidan kelib chiqib, huquqqa nisbatan o'z munosabatingizni aniqlang. Fuqaroning huquqiy ongi shakllanishida Asosiy qonun – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qanday rol o'ynaydi?*



## Yakunlarni chiqaramiz

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish omillari

- qonun hujjatlarini yangilash zaruriyati;
- 1990-yil 20-iyun – Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha Konstitutsiya komissiyasining tuzilishi;
- 1991-yil 31-avgust – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi;
- 1992-yil 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi;
- Konstitutsiyaning asosiy xususiyati: davlat – inson uchun;
- inson manfaatlarining davlatnikiga nisbatan ustuvorligi;
- davlat va fuqarolarning bir-biriga nisbatan o'zaro huquqlari va mas'uliyatlari;
- xalqaro qonunlarning ustuvorligi;
- xalq – davlat hokimiyatining birdan bir manbayi.



## O'zingizni sinang!

1. Qanday omillar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishiga sabab bo'ldi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qanday asosiy qoidalar mustahkamlab qo'yilgan?
3. Qonunlar ustuvorligi deyilganda nima nazarda tutiladi?
4. "Inson manfaatlar ustuvorligi" tushunchasini qanday izohlaysiz?
5. Jamiyatga nima ko'proq zarar keltiradi: huquqiy idealizm yoki huquqiy nihilizm? Javobingizni sharhlab bering.

### 3-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

#### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini;
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa mamlakatlarning konstitutsiyalari orasida umumiylik nimalardan iborat ekanligini bilib olasiz.

1. Konstitutsiyaning asosiy mazmuni.
2. Muqaddima: uning maqsad va vazifalari.
3. Konstitutsiyada e'lon qilingan umuminsoniy qadriyatlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustunligi.

#### 1. KONSTITUTSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo'lib, konstitutsiyaviy tuzum, davlat va jamiyat qurilishi asoslarini belgilab beradi; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari tashkillashtirilishini tartibga solib turadi; saylov tizimini belgilaydi; fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat ramzlarini mustahkamlab qo'yadi; Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartibini belgilaydi.

1992-yilgi Konstitutsiya xususiy mulk va bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi ijtimoiy-siyosiy tizim poydevorini qurib berdi. Xususiy mulk davlat mulki qatorida davlat muhofazasi ostidadir.

Konstitutsiyada mafkuraviy xilma-xillik, ko'ppartiyaviylik, ya'ni biror muhim muammoni hal etish bo'yicha fikrlar xilma-xilligi ko'zda tutiladigan siyosiy plyuralizm mustahkamlab qo'yilgan.

1992-yilgi Konstitutsiya davlatni emas, balki insonni birinchi o'ringa qo'ydi. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyatlar deb e'lon qilindi.

Konstitutsiya, shuningdek, fuqaro va davlatni o'zaro huquqlar va burchlar bilan bog'lovchi prinsipni ham mustahkamlab qo'ydi.

2-sxema.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING TUZILISHI

### Muqaddima

#### I bo'lim. Asosiy prinsiplar

- 1-bob. Davlat suvereniteti (1–6-moddalar).
- 2-bob. Xalq hokimiyatchiligi (7–14-moddalar).
- 3-bob. Konstitutsiya va Qonunning ustunligi (15–16-moddalar).
- 4-bob. Tashqi siyosat (17-modda).

#### II bo'lim. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari

- 5-bob. Umumiy qoidalar (18–20-moddalar).
- 6-bob. Fuqarolik (21–23-moddalar).
- 7-bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar (24–31-moddalar).
- 8-bob. Siyosiy huquqlar (32–35-moddalar).
- 9-bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (36–42-moddalar).
- 10-bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (43–46-moddalar).
- 11-bob. Fuqarolarning burchlari (47–52-moddalar).

#### III bo'lim. Jamiyat va shaxs

- 12-bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari (53–55-moddalar).
- 13-bob. Jamoat birlashmalari (56–62-moddalar).
- 14-bob. Oila (63–66-moddalar).
- 15-bob. Ommaviy axborot vositalari (67-modda).

16-bob. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi (68–69-moddalar).

17-bob. Qoraqalpog‘iston Respublikasi (70–75-moddalar).

### **V bo‘lim. Davlat hokimiyatining tashkil etilishi**

18-bob. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (76–88-moddalar).

19-bob. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti (89–97-moddalar).

20-bob. Vazirlar Mahkamasi (98-modda).

21-bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari (99–105-moddalar).

22-bob. O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati (106–116-moddalar).

23-bob. Saylov tizimi (117-modda).

24-bob. Prokuratura (118–121-moddalar).

25-bob. Moliya va kredit (122–124-moddalar).

26-bob. Mudofaa va xavfsizlik (125–126-moddalar).

### **VI bo‘lim. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi** (127–128-moddalar)

## **2. MUQADDIMA: UNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

Konstitutsiyaga kirish qismi **muqaddima** (kirish)dir. Unda O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining maqsadlari, vazifalari va prinsiplari qisqacha shaklda sanab o‘tiladi.

Muqaddimaning muhimligi shundaki, Konstitutsiya matnida bayon etilgan barcha qoidalar unda e‘lon qilingan quyidagi asoslar va prinsiplarga mos kelishi kerak:

- inson huquqlariga rioya qilish;
- davlatchilik negizi – suverenitet;
- mamlakatni o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanib rivojlantirish;
- demokratiya va ijtimoiy adolat ideallarini tan olish;
- xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarini tan olish;
- insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish;
- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash.



**Yodda tuting!**

**Konstitutsiya muqaddimasi** – Konstitutsiyada qabul qilinayotgan maqsadlar va prinsiplarni xalq nomidan tantanali e’lon qilish.

Muqaddimada Konstitutsiya mamlakat xalqi nomidan e’lon qilina-yotgani va uning orzu-umidlari, niyatlari va majburiyatlarini o’zida mu-jassamlashtirishi ko’rsatiladi.

### 3. KONSTITUTSIYADA E’LON QILINGAN UMUMINSONIY QADRIYATLAR

**Ma’naviy qadriyatlar:** ezgulik va adolatga ishonch; ajdodlar xotirasini e’zozlash; insonparvarlik; tinch hayotga intilish; ma’naviyat.

**Vatanparvarlik va fuqarolikka sadoqat:** suveren davlatchilikning e’lon qilinishi; Vatanni sevish va e’zozlash; hozirgi va kelajak avlodlar oldida mas’uliyatni anglash; milliy davlatchilik rivojining tarixiy tajribasiga tayanish; ajdodlarning madaniy merosini avaylab asrash.

**Demokratik qadriyatlar:** inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi; demokratiya ideallari; fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikka intilish; mus-taqillik g’oyasi; Konstitutsiya va Qonun ustuvorligi.

### 4. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING USTUNLIGI

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq bizning davlatimizda O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so’zsiz tan olinadi. Davlat va uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko’radilar.

**Konstitutsiyaning birorta qoidasi O’zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlari-ga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.**



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va u O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy aktlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida qabul qilinadi. Ular Konstitutsiyaning normalari va prinsiplariga zid bo'lishi mumkin emas. Bu shuni anglatadiki, davlatning barcha normativ hujjatlari Konstitutsiya normalariga muvofiqlashtirilgan holda qabul qilinishi shart.



### Asosiy qonun belgilaydi

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

### O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 15-modda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, u o'zbek xalqining qadimiy madaniyat ildizlari va milliy an'analariga ham tayanadi.



### Yakunlarni chiqaramiz

Konstitutsiyaning mazmuni

→ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning hayoti va erkinliklari oliy qadriyat deb e'lon qilingan;

→ davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va shaxs oldidagi mas'uliyati nazarda tutilgan;

→ qonun ustunligi e'tirof etilgan;

→ siyosiy plyuralizm;

→ davlatniki sifatida mafkura mavjud emas;

→ inson manfaatlari davlat manfaatlariga nisbatan ustun;

→ Konstitutsiya – davlat va mamlakat aholisi orasidagi shartnoma;

→ muqaddima, 6 ta bo'lim, 26 ta bob, 128 ta moddadan iborat.



## O'zingizni sinang!

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qanday umuminsoniy qadriyatlar mustahkamlangan?
2. Siyosiy plyuralizm nima?
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakatda qandaydir davlat mafkurasining joriy etilishi nima uchun taqiqlangan?

## 4-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING ASOSIY PRINSIPLARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- davlat mustaqilligi nima ekanligini;
- davlat mustaqilligi e'tirof etilishi qanchalik muhimligini;
- demokratiya mohiyatini;
- demokratik prinsiplar ahamiyatini bilib olasiz.

### 1. Davlat suvereniteti.

### 2. O'zbekiston Respublikasi – mustaqil suveren davlat.

### 3. Demokratiya – xalq hokimiyatchiligi.

### 4. Konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari.

## 1. DAVLAT SUVERENITETI

**Suverenitet** (fransuzcha “souverainete”) – davlatning o'z ichki ishlari-da va tashqi munosabatlarida boshqa davlatlardan mustaqilligidir.



## Topshiriq

*Qanday fikrdasiz, hozirgi zamonda dunyodagi boshqa davlatlardan butunlay mustaqil davlat bo'lishi mumkinmi? Boshqacha aytganda, biror davlat mutlaq davlat suverenitetiga ega bo'lishi mumkinmi?*



## Asosiy qonun belgilaydi

O'zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O'zbekiston Respublikasi” va “O'zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

## O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1-modda.

**Davlat suvereniteti** hokimiyatni amalga oshirishda, bu borada yuzaga keluvchi muammolarni hal etishda nafaqat mamlakat ichkarisida, balki tashqarisida ham boshqa davlatlardan to‘la-to‘kis mustaqillikni anglatadi.



**Yodda tuting!**

**Suverenitet** – mamlakat ichkarisida hokimiyatning to‘liq ustunligi hamda tashqi siyosatda mustaqilligi, uning hududida davlat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining to‘la-to‘kisligidir.

## 2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI – MUSTAQIL SUVEREN DAVLAT

Davlatni belgilovchi jihatlaridan biri uning davlat suvereniteti hisoblanadi. 1990-yil 20-iyunda **“O‘zbekiston SSRning suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya”** qabul qilinib, unda respublika davlat suverenitetining quyidagi asosiy prinsiplari mustahkamlab qo‘yildi:

- davlat hududi hamda chegaralarining daxlsizligi va bo‘linmasligi;
- mustaqil ichki va tashqi siyosat;
- xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini e‘tirof etish va hurmat qilish;
- o‘z taraqqiyot yo‘lini, davlat ramzlarini tanlashdagi mustaqillik va

hokazo.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasida Respublikamiz mustaqil davlat deb e‘lon qilindi. Ushbu sessiyada **“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”**gi Qonun qabul qilindi. U O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan 1992-yil 8-dekabrqa qadar Asosiy qonun rolini bajardi.

1991-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasida referendum bo‘lib o‘tdi va unda aholining ko‘pchilik qismi mamlakat mustaqilligi e‘lon qilinganligini qo‘llab-quvvatladi.

1991-yil 18-noyabrda **“O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”**gi Qonun, 1992-yil 2-iyulda – **“O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”**gi Qonun, 1992-yil 10-dekabrda – **“O‘zbekiston Respublikasining Davlat gimni to‘g‘risida”**gi Qonun qabul qilindi.

Shunday qilib, **davlatimiz suverenitetini quyidagi jihatlar mavjudligi bo‘yicha aniqlash mumkin:**



- o‘z konstitutsiyaviy-huquqiy tizimi;
- davlat hududi va uning chegaralari;
- oliy hokimiyat organlari tizimi;
- yagona Qurolli Kuchlar;
- davlat mulki, yagona pul-kredit tizimi;
- davlat ramzlari;
- xalqaro munosabatlar subyekti ekanligi.

**Davlat suvereniteti** – davlat mustaqil rivojlanishining zaruriy shartidir, ammo bu narsa davlat biron-bir tarzda cheklanmaydigan hokimiyatdan foydalanadi, degan ma’noni anglatmaydi. Kishilar orasida yashab turgan odam ularning ehtiyojlarini inobatga olishiga to’g’ri kelgani kabi davlat ham boshqa davlatlar bilan doimiy o‘zaro munosabatda bo‘lganligi uchun ularning manfaatlarini nazar-pisand qilmasligi mumkin emas.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 3-modda.**

Davlat mustaqilligiga erishilishi O‘zbekistonga mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yishiga, jahon hamjamiyatiga xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida kirishiga imkon berdi.

### 3. DEMOKRATIYA – XALQ HOKIMIYATCHILIGI

Xalq hokimiyatchiligi prinsipi mamlakatimizning Asosiy qonunida ifodalangan bo‘lib, unda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi ekanligi ta’kidlangan (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 7-modda).

Prezidentimiz Islom Karimovning **“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”** asarida **“demokratiya”** tushunchasining mazmuni tahlil etilib, mohiyatan ma’naviy qadriyatlar, mezonlar orqali boshqariladigan kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat ekanligi aytib o‘tiladi. Demokratiyaga mansub mana shu ikki tarkibiy qismga tayangan holda **“Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari”** konsepsiyasi hayotga tatbiq etilmoqda.

Xalq hokimiyatchiligi prinsipi O‘zbekiston Konstitutsiyasining tayanch g‘oyalaridan biridir.

**“Xalq hokimiyatchiligi”** atamasi grekcha **“demokratiya”** (*demos* – xalq, *kratos* – hokimiyat) so‘zining aynan tarjimasidir. Bu tushuncha ilk marotaba Qadimgi Gretsiyada vujudga kelib, butun jahonga keng tarqaldi.

#### Demokratiya – bu:


- saylanadigan hokimiyat organlarida ishtirok etish;
- fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etishi;
- hammaning va har kimning qonun oldida tengligi;
- jamiyat va inson xavfsizligi;
- fuqarolar huquq va erkinliklarining to‘la-to‘kisligi;
- inson farovonligi va manfaatlari xususida davlat g‘amxo‘rligi;
- inson huquq va erkinliklari muhofazasining kafolatlangan mexanizmi mavjudligi.

O‘z tarixi davomida insoniyat demokratiyaning ikki shaklini yaratgan:

– **bevosita, ya’ni to‘g‘ridan to‘g‘ri demokratiya**. Bunda xalq davlat ishlarini vakillarsiz o‘zi hal qiladi (ovoz berish, umumxalq muhokamasi, fuqarolar murojaati orqali);

– **bilvosita, ya’ni vakillik demokratiyasi**. Unda xalq suveren huquqlaridan foydalanib o‘zlari saylab qo‘ygan vakillari (deputatlar va senatorlar) orqali davlat ishlarini amalga oshiradi.

3-sxema.



O‘zbekiston xalqi bevosita demokratiyadan Oliy Majlis deputatlari va senatorlarini hamda davlatimiz Prezidentini saylashda bir necha marta foydalangan.

Davlat miqyosidagi muammolarni hal etishda xalqning bevosita ishtiroki **referendumda**, ya’ni mamlakat siyosiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan o‘tkaziladigan umumxalq muhokamasida va bevosita ovoz berishda qatnashishi orqali namoyon bo‘ladi.

Xalq nomidan faqat ular saylagan Prezident, Oliy Majlis deputatlari va senatorlar ish ko‘rishi mumkin.



### Asosiy qonun belgilaydi

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi. Referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 9-modda.

4-sxema.



Davlat qaror qabul qilishi uchun jamoatchilik fikrini bilishi zarur bo‘lib qolganda Konstitutsiya, qonunlarning loyihalari umumxalq muhokamasiga qo‘yilishi, ya’ni referendum o‘tkazilishi mumkin. Umumxalq referendumi butun mamlakat miqyosida yoki mahalliy hududda o‘tkazilishi mumkin. Masalan, 2005-yil 27-yanvarda O‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazilib, unda navbatdagi chaqiruvda O‘zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash to‘g‘risidagi masala hal etildi. Referendumda

ishtirok etgan fuqarolarning ko'pchiligi mazkur masalaga ijobiy javob berdilar.

Xalq shu tarzda mamlakat hayotiga faol ta'sir ko'rsatadi.

#### 4. KONSTITUTSIYAVIY TUZUM PRINSIPLARI

Eng muhim konstitutsiyaviy prinsiplarga quyidagilar ham kiradi:

- davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati;
- inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyatlar deb e'tirof etish;
- qonun oldida barcha fuqarolarning mutlaq tengligi;
- O'zbekiston davlat chegaralari va hududining daxlsizligi va yaxlitligi;
- jamiyat hayotini siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlantirish;
- Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi;
- inson va jamiyat farovonligi manfaatiga qaratilgan ijtimoiy adolat;
- qonuniylik.

Demokratik davlatning eng muhim konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri **hokimiyatning bo'linish prinsipidir** (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 11-modda).

Davlat faoliyati qonunlar qabul qilish, ularni ijro etish va odil sudlov bilan bog'liq ravishda shu prinsipga muvofiq bo'linadi.

Bu shuning uchun kerakki, bunda har qaysi hokimiyat tarmog'i hokimiyat vakolatlari doirasidan chetga chiqish va uni suiiste'mol qilish imkoniyatiga yo'l qo'ymagan holda boshqasini tiyib turishi zarurdir. Hokimiyatlardan birontasi boshqasining faoliyatiga aralashmasligi kerak. Bu prinsipning amaldagi ifodasi qandaydir bir guruh yoki alohida shaxs tomonidan hokimiyat egallab olinishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgandir.

Faqat qonunga bo'ysunishlari shart bo'lgan sudlov organlari faoliyatiga aralashish alohida xavf-xatar tug'diradi.



#### **Asosiy qonun belgilaydi**

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

#### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 11-modda.**



## Yakunlarni chiqaramiz

### O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari

- suverenitet – davlatning ichki va tashqi ishlarda mustaqilligi;
- xalq hokimiyatchiligi: referendum, saylov, yig'ilish va boshqalar;
- demokratiya: bevosita (to'g'ridan to'g'ri), bilvosita (vakillik);
- hokimiyatlar bo'linishi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud;
- Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi;
- ijtimoiy adolat;
- chegaralar daxlsizligi;
- fikrlar plyuralizmi;
- barchaning qonun oldida tengligi;
- davlat ramzlari: bayroq – 1991-yil 18-noyabr, gerb – 1992-yil 2-iyul, madhiya – 1992-yil 10-dekabr.



## O'zingizni sinang!

1. Davlat suvereniteti nima?
2. Davlat suvereniteti uning hokimiyati cheklanmaganligini anglatadimi?
3. Davlat suvereniteti inson huquqlari bilan qay yo'sinda muvofiqlashtiriladi?
4. Demokratiyaning mohiyati nimada, u qaysi shakllarda amalga oshiriladi?
5. O'zbekiston xalqi nomidan kim ish ko'rishi mumkin?
6. Konstitutsiyaviy prinsiplar deganda nimani tushunmoq kerak?



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

02.07.1992-y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT GERBI TO‘G‘RISIDA**  
 (Ko‘chirma)

Ushbu Qonunga O‘zbekiston Respublikasining 24.12.2010-yildagi  
 Qonuniga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzidir.

**3-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko‘rinishga ega: tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshloqlaridan, o‘ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan gullagan vodiya uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar – kumush rangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanoqlari va “O‘zbekiston” yozuvi – oltin rangda; g‘o‘za shoxlari va barglari, tog‘lar va vodiya – yashil rangda; chanoqlardagi paxta – oq rangda; lenta – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak – oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havorangda; yarim oy va yulduzlar – oq rangda tasvirlangan.

**8-modda.** O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. Karimov

10.12.1992-y.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI TO‘G‘RISIDA (Ko‘chirma)

Ushbu Qonunga O‘zbekiston Respublikasining 24.12.2010-yildagi  
Qonuniga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

**2-modda.** O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

**5-modda.** O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi orkestr, xor, ham orkestr, ham xor tomonidan yoki o‘zga vokal va cholg‘u asboblari bilan ijro etilishi mumkin. Bunda ovoz yozib olish vositalaridan foydalanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi vokal hamda vokal-cholg‘u asboblari bilan ijro etilgan taqdirda to‘liq ijro etiladi, cholg‘u asboblarning o‘zida ijro etilgan taqdirda esa madhiya qisman ijro etilishiga yo‘l qo‘yiladi – ashulaning boshlanishi va naqarot bir martadan aytiladi.

**6-modda.** O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi madhiyaning ushbu Qonun bilan tasdiqlangan matni va musiqaviy tahririga aynan muvofiq holda ijro etilmog‘i lozim.

**7-modda.** O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko‘pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, hozir bo‘lgan kishilar madhiyani tik turib va o‘ng qo‘l kaftini ko‘krakning chap tomoniga qo‘yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagi shaxslar esa qo‘lini bosh kiyimiga qo‘yib tinglaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining ijro etilishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ko‘tarilishi bilan birgalikda amalga oshirilsa, hozir bo‘lgan kishilar unga yuzi bilan buriladi.

**13-modda.** O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini hurmat qilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**I. Karimov**

18.11.1991-y.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I TO'G'RSIDA

(Ko'chirma)

Ushbu Qonunga O'zbekiston Respublikasining 24.12.2010-yildagi

Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i – bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetrغا, kengligi 125 santimetrغا teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrغا tengdir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining o'rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrغا teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o'n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

Oq rangli yangi oy va o'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o'rtasidan 75x30 santimetrغا teng to'g'ri to'rtburchakka sig'adigan qilib joylashtirilgan.

Oq rangli yangi oy vertikal holatda do'ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo'lib, diametri 30 santimetrli doiraga sig'adi.

O'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig'adi. Doiralar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, o'rta qatorda to'rtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

**13-modda.** O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini hurmat qilishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I. Karimov**

## 5-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- davlatning tashqi siyosiy faoliyati nimalardan iborat ekanligini;
- O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi uning tashqi siyosiy aloqalariga qanday ta’sir o‘tkazganligini bilib olasiz.

### 1. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati.

### 2. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

## 1. DAVLATNING TASHQI SIYOSIY FAOLIYATI

**Tashqi siyosat** – bu davlat faoliyati bo‘lib, xalqaro hayotda ishtirok etgan holda o‘z davlat chegarasidan tashqarisida davlatning boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatini, davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiy yo‘nalishini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu faoliyat “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi 1995-yil 22-dekabrda (o‘zgartirishlar kiritilgan) Qonuniga va “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2013-yil 10-sentabrda Qonuniga asoslanadi. Ushbu Qonunlarga muvofiq respublikaning milliy manfaati ustuvorligiga va teng huquqli hamkorlikka asoslangan O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida mamlakatning rolini yuk-saltirish hamda O‘zbekiston atrofida xavfsizlik, tinchlik va yaxshi munosabatli qo‘shnichilik muhitini yaratishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi qat’iyat bilan xalqaro va davlatlararo muam-molarni hal etish usuli sifatida urushga qarshi chiqadi va davlatlararo harbiy nizolarning oldini olishda faol ishtirok etishni o‘z tashqi siyosatining asosiy vazifasi deb biladi.

Xalqlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida xalqaro hayotda ishtirok etuvchi davlatlarning manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi qoida-lar paydo bo‘ldi. Ko‘pgina urf-odatlar va qonunlar o‘zaro xalqaro munosa-batlar bilan bog‘liq huquq hamda majburiyatlarni mustahkamlovchi xalqaro huquq me’yorlariga aylandi.



**Yodda tuting!**

**Xalqaro huquq** – xalqaro muloqot jarayonida davlatlararo munosabatlarni tartibga solib turuvchi yuridik qoidalar majmuyi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga muvofiq bizning davlatimiz xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti hisoblanadi.

*Xalqaro huquq subyekti bo‘lish nimani anglatadi?*

Boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlardagi o‘z huquq va burchlarini tashqaridan qandaydir tazyiqsiz amalga oshirishga qodir bo‘lgan mustaqil davlatgina xalqaro munosabatlar subyektiga aylanishi mumkin. Xalqaro huquq subyekti bir davlatning boshqa bir davlat ustidan hokimiyatini tan olmaydi. Bunday davlat o‘zining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish borasida mustaqildir.

Hozirgi paytda xalqaro munosabat ishtirokchilarining eng asosiysi xalqaro tashkilot bo‘lib, unda manfaatdor davlat-ishtirokchilar insoniyat oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muammolarni ijobiy hal etishda hamkorlik qiladilar. Zamonning aktual muammolaridan biri urushlarni to‘xtatish va tinchlikni ta‘minlashdan iborat. Butun insoniyat tarixida bizning sayyoramizda 15 mingdan ortiq urush bo‘lib o‘tgan. Ularda 3,5 mlrd atrofida odam halok bo‘lgan. Shuning uchun ham kishilar hamma vaqt vujudga kelgan muammolarni tinchlik yo‘li bilan hal etish haqida bosh qotirganlar.



Ikkinchi jahon urushi (1939–1945-yillar) tugaganidan keyin tinchlikni va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1945-yil 24-oktabrda San-Fransisko (AQSH) shahrida 51 ta davlat Tinchlik konstitutsiyasi deb hisoblashga huquqli bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Nizomini tasdiqladi.

Hozirgi vaqtda 193 ta davlat, shu jumladan, O‘zbekiston ham BMT a‘zosi. O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan.

**Barcha davlatlar – BMT ishtirokchilari o‘z faoliyatlarida quyidagi prinsiplarga rioya qilish majburiyatini oladilar:**

- xalqaro norma va shartnomalarga amal qilish;
- kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan tartibga solish;
- kuch bilan xavf solish yoki uni qo‘llashdan tiyilish;
- ichki ishlarga va hamkorliklarga aralashmaslik.

**BMTning bosh maqsadi:**

- butun dunyoda tinchlik bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash;
- do‘stona munosabatlarni rivojlantirish;
- kambag‘allik, ochlik, kasallik, savodsizlikka barham berish;
- atrof-muhitga ziyon yetkazishning oldini olish;
- inson huquqi va erkinliklarini himoya qilish.



**Asosiy qonun belgilaydi**

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 17-moddadan.**

Mustaqillik e‘lon qilingan dastlabki kunlardan oq O‘zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatiga kirish yo‘lini tanladi. Jumladan, 1992-yil fevralda – mamlakatimiz YXHT (Yevropa xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha Xalqaro tashkilot)ga, 1992-yil 2-martda – BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)ga, 1993-yil 29-oktabrda – UNESKOga, 2001-yil iyunda SHHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti)ga va boshqa tashkilotlarga qabul qilindi. O‘zbekiston MDH mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro valuta jamg‘armasi, Butunjahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib bormoqda.

Hozirda dunyoning 140 dan ortiq mamlakati O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olgan hamda ulardan ko'pchiligi poytaxtimiz Toshkentda o'z elchixonalari va vakolatxonalarini ochgan.

Shunday qilib, davlatimiz dunyo hamjamiyatida xalqaro huquq subyekti sifatida o'zining munosib o'rnini egalladi.

## **2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING ASOSIY PRINSIPLARI**

Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli a'zosi sifatida O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatini olib borishda xalqaro munosabatlar sohasida yuzaga keluvchi turli muammolarni hal etishda asos bo'ladigan umume'tirof etilgan xalqaro prinsiplar va normalarga tayanadi.

**Mamlakatning Asosiy qonunida mustahkamlab qo'yilgan tashqi siyosat prinsiplari (17-modda) jumlasiga quyidagilar kiradi:**

- davlatlarning suveren tengligi prinsipi, ya'ni boshqa davlatlar suverenitetini hurmat qilish majburiyligi;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi;
- chegaralarning daxlsizli prinsipi;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish prinsipi, shuningdek, davlatning, xalqning oliy manfaatlar, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan ajralib chiqish prinsipi.

**Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashida qabul qilingan (Xelsinki, 1975-yil 1-avgust) xalqaro huquqning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

1. Suveren tenglik, suverenitetlikka tegishli bo'lgan huquqlarni hurmat qilish.
2. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.
3. Chegaralarning daxlsizligi.
4. Davlatlarning hududiy yaxlitligi.
5. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish.
6. Ichki ishlarga aralashmaslik.
7. Inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini, jumladan, fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinliklarini hurmat qilish.

8. Teng huquqlilik va xalqlar o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqi.
9. Davlatlar bilan hamkorlik qilish.
10. Xalqaro huquqlar bo'yicha majburiyatlarning vijdonan bajarilishi.

O'zbekiston Respublikasida davlat suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda aholi xavfsizligini muhofaza qilish maqsadida Qurolli Kuchlar tuzilgan va ular mustahkamlanmoqda.



### Asosi qonun belgilaydi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 125-moddadan.**

### Topshiriq

*Tasavvur qiling, Siz kosmosni o'zlashtirish bo'yicha xalqaro kongress ishida qatnashayapsiz.*

Kosmosni o'zlashtirish muammosi butun insoniyatni tashvishga solayotir, ammo unga munosabat dunyoda bir xilda emas. Ayrim davlatlar XXI asr kosmosni o'zlashtirish asri bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa kosmosni o'zlashtirishdan harbiy maqsadlarda foydalanishga intiladilar. Uchinchilari esa hozir kosmosni o'zlashtirish bilan shug'ullanish mavridi

emas deb hisoblaydilar. To‘rtinchilari inson manfaatlari yo‘lida kosmosni o‘zlashtirish muhim ekanligini tushunishadi, ammo uni o‘zlashtirishda salbiy jihatlar namoyon bo‘lishi imkoniyatlarini inobatga olishadi.

*Ana shu muammoni hal qilish uchun oralaringizdan kongress Prezidenti rolini bajaradigan bir o‘quvchini saylang. To‘rt guruhga bo‘lining, ulardan har biri aytib o‘tilgan davlatlarning nuqtayi nazarini ifodalasin. O‘z nuqtayi nazaringiz asosida kuchli argumentlar bilan asoslab berilgan ma‘ruza tayyorlang. Kongress ishi yakunlari yuzasidan kosmosdan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar qabul qiling.*



## Yakunlarni chiqaramiz

### O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati

- xalqaro munosabatlarning teng huquqli a‘zosi;
- xalqaro huquq me‘yorlari ustuvorligi e‘tirof etilishi;
- tashqi siyosat prinsiplari:
  - ▶ davlatlar tengligi;
  - ▶ davlatning ichki ishlariga aralashmaslik;
  - ▶ kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
  - ▶ nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish;
  - ▶ chegaraning daxlsizligi;
  - ▶ ittifoqlar tuzish va ulardan ajralib chiqish;
- 1991-yil – MDH; 1992-yil – BMT; 1993 – UNESCO; 2001 – SHHT;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 140 dan ortiq mamlakat tan oldi.



## O‘zingizni sinang!

1. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati jamiyat hayotining qaysi sohasida va qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
2. Qanday davlat xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti hisoblanadi?
3. O‘zbekiston Respublikasi qaysi xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etmoqda?



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

08.12.1992-y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASINI  
QABUL QILISH TO‘G‘RISIDA**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi QAROR QILADI:**

Konstitutsion komissiya tomonidan taqdim etilgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya loyihasi to‘liq qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdan amalga kiritilsin.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I. Karimov**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

08.12.1992-y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI  
QABUL QILINGAN KUNNI UMUMXALQ BAYRAMI DEB E‘LON  
QILISH TO‘G‘RISIDA**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi QAROR QILADI:**

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e‘lon qilinsin.

8-dekabr dam olish kuni hisoblansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**

**I. Karimov**

## II boʻlim

### INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qatʼi nazar, qonun oldida tengdirlar.

**Oʻzbekiston Respublikasining  
Konstitutsiyasi, 18-moddadan.**

#### 6-§. INSON VA FUQAROLARNING HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

##### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- inson va fuqarolar qanday huquq va erkinliklarga ega ekanligini;
- Oʻzbekiston Respublikasida davlat va fuqarolar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar haqida bilib olasiz.

- 1. Inson va davlat: ular oʻzaro qay tarzda bogʻlangan?**
- 2. Hokimiyat nima degani?**
- 3. Inson huquqlariga doir xalqaro va milliy hujjatlar.**
- 4. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.**

##### 1. INSON VA DAVLAT: ULAR OʻZARO QAY TARZDA BOGʻLANGAN?

Hozirgi davrda inson huquqlari toʻgʻrisidagi masala tashvishini qilmaydigan mamlakat topilmasa kerak.

Tarixda ham inson oʻz huquqlari uchun kurashmagan davr boʻlmagan. Erkinlik gʻoyasini adolatsizlik va zoʻravonlik hukm surgan hayotning oʻzi dunyoga keltirdi.


Kishilarning oʻz huquqlari uchun kurashi jarayonida insonning munosib hayot kechirishga huquqi yoqlangan koʻplab gʻoyalar, nazariyalar va taʼlimotlar yuzaga keldi va rivojlandi.

Sharqning mashhur huquqshunoslari orasida Imom Burhoniddin al-Margʻinoniy alohida oʻrin tutadi. 1178-yilda alloma oʻzining 57 ta

kitobdan iborat bo'lgan "Hidoya" ("To'g'ri yo'l") asarini yozib tugatadi. Bu asarda alloma kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday bo'lishi kerakligini huquq asosida ko'rsatib berdi. Ko'p asrlar davomida ana shu kitob huquqshunoslik (fiqh ilmi) bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib keldi.

Uyg'onish davri mutafakkirlari ham Burhoniddin al-Marg'inoniyning har bir insonning tabiiy huquqlariga, u ana shu davlatning fuqarosi ekanligi yoki aksinchaligidan qat'i nazar, rioya etilishini qonunlashtirish va ta'minlash zarurligi to'g'risidagi g'oyasini yoqladilar. Xuddi ana shu davrdan e'tiboran davlatga mutlaqo boshqacha – shaxs huquqlarini poymol qiluvchi institut (tashkilot) tariqasida emas, balki uning inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan yondashilmoqda.

Tabiiy huquqlar g'oyasi jahondagi turli davlatlarning konstitutsiyaviy huquqida o'z aksini topgan. Insonning oliy qadriyatlarini mamlakatning Asosiy qonunida e'tirof etilishi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham inobatga olingan.



### Asosiy qonun belgilaydi

O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 13-moddadan.**

Inson huquqlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bo'limi bag'ishlangan bo'lib, bu bo'lim "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi (18–52-moddalar).

Shunday qilib, Konstitutsiyamizda insonning huquq va erkinliklarini e'tirof etish, ularga rioya qilish va ularni muhofaza qilish – davlatning majburiyati, degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.


## **2. HOKIMIYAT NIMA?**

Hokimiyat – bu odamlar, moddiy obyektlar, hududlarni boshqarish, buyruq berish imkoniyati. U avtoritet, so'z, xatti-harakat, shuningdek, majbur etish vositasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining yagona manbayi ekanligi to'g'risidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini asosida va faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan vakil qilingan organlar hamda Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunchilik bilan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada ko'rsatilmagan tartibda hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatish yoki bekor qilish, davlat hokimiyati vakolatini berish, yangi va hokimiyatning parallel tuzilmasini tuzish Konstitutsiyaga zid hisoblanadi va qonun bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

5-sxema.



### 3. INSON HUQUQLARIGA DOIR XALQARO VA MILLIY HUJJATLAR

**Inson huquqlari sohasidagi eng muhim hujjatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

- Inson huquqlari umumdeklaratsiyasi;
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;
- Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi;
- Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya;
- Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya;
- Tahqirlash va boshqa shafqatsizlik, g‘ayriinsoniylik yoki qadr-qimmatni tushirish ko‘rinishidagi munosabat va jazolashga qarshi Konvensiya;
- Nogironlar huquqlari to‘g‘risida Konvensiya;
- Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya;
- Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a‘zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya;
- Zo‘rluk bilan yo‘q qilinishdan barcha shaxslarni himoya qilish to‘g‘risida Xalqaro konvensiya.

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha BMTning 70 dan ortiq xalqaro hujjati, shuningdek, 6 ta asosiy bitimining ittifoqchisi hisoblanadi. Ayni paytda xalqaro majburiyatlarni izchil bajargan holda ushbu sohadagi o‘z siyosatini takomillashtirib boradi.

Mazkur hujjatlar sayyoramizda yashab turgan barcha insonlarning huquqlarini mustahkamlab qo‘yadi. Xalqaro hujjatlar butun jahondagi davlatlarga o‘z hududida yashab turgan har bir insonning huquqlariga rioya qilishni tavsiya etadi.



#### 1-topshiriq

*Sizningcha, o‘zimizni erkin va mustaqil inson deb his etishimiz uchun biz qanday huquq va erkinliklarga ega bo‘lishimiz kerak?*

Har qanday davlat aholisi nafaqat ana shu davlat fuqarolaridan, qolaversa, u yoki bu sabablarga ko‘ra unda vaqtincha yashab turgan yoki doimiy yashayotgan kishilardan ham iborat bo‘ladi. Xorijiy fuqarolar yoki o‘zining xorijiy davlatga mansub ekanligini isbotlay olmagan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (apatridlar) ana shular jumlasiga kiritiladi. Garchi bu shaxslar fuqarolikka ega bo‘lmasa-da, ular ham xalqaro va milliy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan barcha huquqlardan foydalanadilar.

O‘zbekistonning Asosiy qonuni barcha fuqarolarning bir xildagi huquqlari va erkinliklarini, qonun oldida ularning tengligini mustahkamlab qo‘ygan. Bu huquqlar Konstitutsiyada daxlsiz, ya‘ni hech kim mahrum etishga haqli bo‘lmagan huquqlar sifatida ta‘riflangan.



## 2-topshiriq

*Bir kishining huquqlari boshqa bir kishining huquqlari boshlanadigan nuqtada cheklanadi, degan ta‘kidga qo‘shilasizmi? O‘z fikringizni asoslash borasida daliliy misollar keltiring.*

## 4. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

Konstitutsiyaning ikkinchi qismi to‘liq inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. O‘z mazmuni bo‘yicha har bir inson va fuqaro huquqlari bir-biriga mos keladi, lekin fuqarolikka ega bo‘lgan shaxslarning huquqlari va fuqarolikka ega bo‘lmagan shaxslar huquqlari bir-biridan ko‘lami jihatidan farq qiladi. Fuqarolikka ega bo‘lgan shaxslarning huquqlari ko‘lami davlat organlariga saylash va saylanish, davlat muassasalarida mas‘ul lavozimlarda ishlash huquqiga, ayni shu davlat armiyasida xizmat qilish burchiga ega bo‘lmagan shaxslarnikiga qaraganda kattaroqdir.

Davlat fuqarolarning Asosiy qonunda ko‘rsatilgan huquq va erkinliklarini kafolatlashi to‘g‘risidagi qoida Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan.

Fuqarolarning barcha huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18–46-moddalarida mustahkamlab qo‘yilgan va ular shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy guruhlariga bo‘linadi.

**Shaxsiy huquq va erkinliklar** (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24–31-moddalari):

– yashash;



- erkinlik, sudda himoya qilish va shaxsiy daxlsizlik;
- sha’ni va obro’siga tajovuz qilinishidan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih va turarjoyi daxlsizligi huquqi;
- bir joydan ikkinchi joyga ko’chish va yashash joyini tanlab olish erkinligi;
- fuqaroning huquq va manfaatlariga daxldor bo’lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish;
- fikrlash, so’z va e’tiqod erkinligi;
- vijdon va diniy e’tiqod erkinligi.

**Siyosiy huquqlar** (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32–35-moddalari):

- jamoat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi;
- faolligini O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq mitinglar, tinchlik yig‘ilishlari va namoyishlarida namoyish etish huquqi;



- davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylash va saylanish huquqi;
- kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoatchilik birlashmalariga birlashish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi;
- davlat organlari, muassasalari yoki xalq vakilligiga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilish huquqi.

**Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar** (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36–42-moddalari):

- xususiy mulkdor bo’lish huquqi;
- mehnat qilish sharoitiga ega bo’lish va ishsizlikdan himoyalanganlik huquqi, faoliyat va kasb tanlash erkinligi;
- yoshiga ko’ra (pensiya), mehnat layoqatini yo’qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo’lganda ijtimoiy ta’minot olish huquqi;

- qonun bilan taqiqlanmagan iqtisodiy faoliyat huquqi;
- to‘lanadigan dam olish huquqi;
- onalik va bolalik muhofazasidan foydalanish huquqi;
- malakali tibbiy yordamdan foydalanish huquqi.

**Madaniy huquqlar** (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41–42-moddalari):

- ta’lim olish huquqi;
- ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi huquqi;
- madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

Bizning jamiyatimizda **gender tengligi** masalasiga alohida e’tibor beriladi. Gender tengligi – bu faqatgina “ayollar” muammosi emas, balki erkaklarga ham, ayollarga ham tegishli bo‘lgan muammodir. Chunki jamiyat ikkala jinsdan muvofiqlashgan gender “normalari” va “standartlari” (gender stereotiplari)ni kutmoqda. Tenglik deganda, ayollar va erkaklar bir xil bo‘lib qolishini anglatmaydi. Lekin ularning huquqi, mas’uliyati va tengligi qiz yoki o‘g‘il bola tug‘ilganligiga bog‘liq bo‘lmaydi. Gender tengligi shuni bildiradiki, bunda ayollarning ham, erkaklarning ham manfaatlari, ehtiyojlari va ustunliklari e’tiborga olinadi. Bunda ayollar va erkaklar xususiyatlaridagi turli xilliklar hisobga olinadi.



**Yodda tuting!**

**Gender tengligi** – bu erkak va ayollar, qiz va o‘g‘il bolalar uchun huquq, mas’uliyat, imkoniyat, qadriyat va natijalar tengligi.



**3-topshiriq**

*Pantomima (so‘zsiz xatti-harakat) orqali inson huquqlarining buzilishini tasvir lab bering va bunda aynan qanday huquqlar buzilganini sinfdagilar aytib berishini so‘rang.*



**Asosiy qonun belgilaydi**

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir,

ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

## O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 19-modda.



### 4-topshiriq


Fuqaro S. dala hovlini uyi bilan birgalikda sotib oldi. Biroq xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. Yetishtirilgan mevalar, hatto uydagi ayrim buyumlar va mebellar o'g'irlanib ketilaverdi.

Kuz mavsumi tugash arafasida fuqaro S. dala hovlining kirish joyiga qo'lda yasalgan qopqon qo'ydi. U uch metr balandlikka og'ir g'o'lalarni shunday o'rnatdiki, agar yerto'ladagi olma solingan yashikni begona odam olib chiqadigan bo'lsa, uning ustiga shu g'o'la tushib ketadi.

Yanvar oyida fuqaro S.ni militsiyaga chaqirishib, balog'atga yetmagan ikki nafar bola – A. va D. ustiga shu g'o'lalar tushib ketishi natijasida yetkazilgan zarar yuzasidan tushuntirish berishni talab qilishdi. Balog'atga yetmagan bu bolalarning otionalari farzandlarini davolash uchun ketadigan xarajatlar S. tomonidan qoplanishini talab qilishib, sudga murojaat qilishgan edi. Fuqaro S.ning qo'shnilari dala hovliga qopqon o'rnatilish sabablarini tasdiqlashdi. Fuqaro S. aybini inkor etmadi, ammo da'vogarlariga yetkazilgan zararni qoplashdan bosh tortdi.

*Bu holatda kim haq? Sud qanday qaror chiqarishi kerak?*

6-sxema.



### Yakunlarni chiqaramiz

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari

- davlatning vazifasi – har bir insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash;
- inson huquqlari to'g'risida xalqaro hujjatlar;
- gender tengligi;
- asosiy huquqlar: shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy.



## O'zingizni sinang!

1. Nima uchun barcha zamonlarda inson ko'ngildagidek huquq va erkinliklarni qo'lga kiritishga intilib kelgan?
2. Inson huquqlariga doir barcha eng muhim xalqaro va milliy hujjatlarda inson nima uchun eng oliy qadriyat deb e'tirof etiladi?
3. Inson jamiyatda yashab turib, biron-bir tarzda cheklanmagan erkinlikdan foydalana oladimi?

## 7-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- fuqarolik nima va u inson uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini;
- fuqarolikka qabul qilish asoslari va uni to'xtatish shartlarini bilib olasiz.

1. Insonga fuqarolik nima uchun kerak?
2. Fuqaro va davlat.
3. Biometrik pasport.
4. O'zbekiston fuqarosining huquqiy maqomi.

### 1. INSONGA FUQAROLIK NIMA UCHUN KERAK?

Fuqarolik nimaligini bilasizmi? U yoki bu mamlakat fuqarosi bo'lish inson uchun nimani anglatishi xususida o'ylab ko'rganmisiz?



### 1-topshiriq

O'z mamlakatini tark etish va xorijda yashash uchun ko'chib ketishni orzu qiluvchi bolalar uchrab turadi.

*Guruhlarga bo'lingan holda o'zga mamlakatda yashashga beshta "roziman" va beshta "qarshiman" deguvchi tarafdorlarni shakllantiring. Ularning har biri o'zi haq ekanligini izohlasin.*



### Yodda tuting!

**Fuqarolik** – bu insonning aniq bir davlat bilan huquqiy aloqalaridir. Davlat o'z qonunlarida insonning huquqiy maqomini, ya'ni insonning davlatga, uning organlariga va boshqa shaxslarga nisbatan mavqeyini belgilaydi.

Fuqaro hisoblangan shaxs o'z davlatining hududida ham, xuddi shuningdek, undan tashqarida ham uning muhofazasida va shafeligida bo'ladi hamda fuqaroga nisbatan mustahkamlab qo'yilgan barcha huquqlardan to'raligicha foydalanadi. O'z navbatida, fuqarolar o'z davlati qonunlariga rioya etishlari, o'z fuqarolik burchlari va majburiyatlarini bajarishlari shart.

Fuqaro nafaqat saylab qo'yiladigan organlarga o'z vakillarini saylashi, qolaversa, o'zi ham ana shu organlarga saylanishi mumkin. Fuqaroligi bo'lmagan shaxs bunday huquqqa ega bo'lmaydi.

Bordi-yu, armiyada xizmat qilish fuqaro uchun fuqarolik burchi va majburiyati sanalsa, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan esa bunday majburiyat qonun bilan tatbiq etilmaydi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar partiyalar a'zosi ham bo'la olmaydilar, davlat organlarining rahbarlik lavozimlarida ishlolmaydilar, saylovlarda ishtirok etolmaydilar.

Ammo bu qonun fuqaroligi bo'lmagan shaxslar huquqlarini tahqirlaydi, ularni kamsitishga duchor qiladi degani emas, albatta. Fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar huquqlaridagi bu kabi chegaralab qo'yish tarixan shakllangan bo'lib, ana shu jihat barcha davlatlarning qonunlariga xosdir.

Hozirgi davrda o'zga yurt vakillariga munosabat sezilarli o'zgardi. Bugungi demokratik qonunlar ularga nodo'stona munosabatda bo'lishni, adovat ko'rsatishni taqiqlaydi. Chunki ular ham qolgan barcha odamlar singari bir insondir. Shuning uchun xalqaro hamjamiyat fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonini eng kam miqdorgacha qisqartirishga, ularni diskriminatsiyadan himoya qilishga intilmoqda.



**Yodda tuting!**

**Diskriminatsiya** – jinsiga, qaysi millatga mansubligiga, diniy va siyosiy e'tiqodiga ko'ra, ma'lum bir guruhdagi fuqarolar huquqlarini noma'lum tarzda cheklash yoki mahrum qilish.



**E'tibor bering**

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (**apatridlar**) – xalqaro huquqiy hujjatlar insonga havola etadigan barcha asosiy huquqlardan

foydalanadilar (saylovlarda qatnashish va mamlakatning harbiy kuchlarida xizmat qilish huquqi bundan mustasno). Ayni shu davlatning fuqarolari kabi bu fuqarolar ham uning qonunlariga rioya etishlari shart.

“Fuqarolik to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida (2004-yil 3-dekabr-dagi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi, lekin O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lmagan va xorijiy davlat fuqarosi ekanligini tasdiqlovchi asosga ega bo‘lmagan shaxslar fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hisoblanishi qayd etilgan.

Xalqaro hamjamiyat a‘zosi bo‘lgan biron-bir davlat inson huquqlari sohasida xalqaro normalarni buzishga, shu jumladan, uning fuqarolikka ega bo‘lish huquqlariga putur yetkazishga haqli emas.



### Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta‘minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 23-modda.**

Xalqaro andozalarga (normalarga) muvofiq siyosiy yoki fuqaroviy huquqlariga putur yetkazilgan har bir odam, basharti, yuridik muhofaza milliy mexanizmi yordamida bunga erishishga muvaffaq bo‘lmasa, hatto inson huquqlari bo‘yicha BMT Qo‘mitasiga murojaat qilish asnosida o‘z huquqlarini himoya qilishi mumkin.

Fuqarolikka ega bo‘lish huquqi insonning eng muhim shaxsiy va ijtimoiy-siyosiy huquqlaridan biri jumlasiga kiradi. Fuqarolik insonning muayyan davlatga mansub ekanligidan dalolat beradi. Fuqarolikdagi mavqeyi unga davlat homiyligi va muhofazasini ta‘minlaydi.

Fuqarolar huquqlarini amalda ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitni davlatning o‘zi, uning organlari va mansabdor shaxslar ta‘minlashi va kafolatlashi lozim. Davlatning fuqarolar va jamiyatga nisbatan bosh vazifasi ham ana shundan iboratdir.

Fuqaro va davlatning huquqiy aloqalari ularning bir-biriga nisbatan o‘zaro huquqlari va burchlarida namoyon bo‘ladi.

## 2. FUQARO VA DAVLAT

Demokratik davlatda fuqaro va davlat nafaqat bir-biriga nisbatan o‘zaro burchlar, qolaversa, o‘zaro javobgarlik bilan ham bog‘langan bo‘ladi.

Demokratik rivojlanish yo‘liga o‘tish O‘zbekistonga inson va davlatning o‘zaro munosabatlarini ularning huquqlari va javobgarligi tengligini e‘tirof etish negizida o‘zgartirish imkoniyatini berdi. Bu narsa davlat o‘z zo‘ravonligi bilan insonni fuqarolikdan mahrum qilishga ham, uni fuqarolikka ega bo‘lish huquqidan mahrum etishga ham, shuningdek, o‘ziga yoqmaydigan kishilarni emigratsiya qilishga majburlashga ham haqli emasligini anglatadi.

Hozirgi davrda inson, qaysi mamlakatning fuqarosi bo‘lishidan qat’i nazar, ikkiyoqlama himoya panohida bo‘ladi. Bir tomondan, u milliy huquq me‘yorlari bilan, boshqa tomondan esa, xalqaro huquq me‘yorlari bilan himoya qilinadi.

**O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni idora qiluvchi davlat organlariga quyidagilar kiradi:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.

Fuqarolikka qabul qilish to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi.

*Fuqarolikni olish uchun nima asos bo‘la oladi?*



### **Qonun belgilaydi**

O‘zbekiston fuqaroligi beriladi:

- tug‘ilgan paytda;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish natijasida;
- O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari bilan nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra;
- boshqa qonuniy asoslarga ko‘ra.

**“O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonun, 12-modda.**

Biometrik pasport – bu O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining fuqaroligini va shaxsini tasdiqlovchi, pasport egasining personal biografik ma’lumotlari va biometrik parametrlariga ega elektron axborot (chip) tashuvchi hujjat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini istiqbolda takomillashtirish bo‘yicha choralar to‘g‘risida”gi Farmoyishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq 2011-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik ma’lumotlarga ega pasporti joriy etildi.

Pasport 10 yil muddatga belgilangan namunada beriladi hamda o‘zbek va ingliz tillarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun qoraqalpoq, o‘zbek va ingliz tillarida personallashtiriladi.



## **2-topshiriq**

1. Agar sizga o‘z mamlakatingiz fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi masalani hal etishni ixtiyoringizga berishsa, kimlarga rad javobini bergan bo‘lardingiz va nima uchun?

2. Sizningcha, fuqarolikni qabul qilish protsedurasini bekor qilish mumkinmi? Agar mumkin bo‘lmasa, u holda nima uchun? Javobingizni asoslab bering.

## 4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROSINING HUQUQIY MAQOMI

**Huquqiy maqom** – bu insonning jamiyatda yuridik jihatdan mustahkamlangan holati bo‘lib, uning huquq va majburiyatlari ma’lum bir majmua ko‘rinishida ifodalanadi. Huquqiy maqomda shaxs va jamiyatning, fuqaro va davlatning, alohida shaxsning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan.

Huquqiy maqom quyidagi elementlardan tashkil topgan: insonning huquq va majburiyatlari, uning qonuniy manfaatlari, fuqarolikka munosabati, yuridik majburiyatlari va hokazo.

Huquqiy maqom umumiy, maxsus va yakka tartibda bo‘ladi.

**Umumiy** – davlat fuqarosi sifatidagi shaxs maqomi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. U mamlakatimizning barcha fuqarolari uchun birdek sanaladi.

**Maxsus maqom** – alohida guruhdagi fuqarolar (talabalar, urush qatnashchilari, biznesmenlar, yuristlar va hokazo)ning o‘ziga xos holatini mustahkamlaydi va ularning maxsus vazifalarini bajarish imkoniyatini ta’minlaydi.

**Yakka tartibdagi (individual) maqom** – jinsi, yoshi, oilaviy holati, lavozimi, staji va hokazolarga ko‘ra alohida shaxsning aniq huquq va majburiyatlarini ifodalaydi.



### Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 21-moddadan.

**O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘xtatilishi uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:**

– xorijiy davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik xizmati organlariga, politsiyasiga, yustitsiya organlariga yoki xorijiy davlat hokimiyatining boshqa organlariga qabul qilinishi oqibatida;

– agar chet davlatda doimiy yashovchi shaxs 5 yil davomida uzrli sababsiz konsullik qayd etish ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lsa;

– agar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o‘tishda yolg‘on ma‘lumotlarni yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida o‘zlashtirilgan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni qayta tiklash va fuqarolikdan chiqish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston fuqaroligi masalalari bo‘yicha qarorlar ijrosi ustidan nazorat Prezident huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxslarning fuqarolik masalalariga doir arizalarni qabul qilishdagi asossiz rad javobi va boshqa g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan yuqori mansabdor shaxsga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.



### 3-topshiriq

*Quyidagi vaziyatlarni ko‘rib chiqing va qo‘yilgan savollarga javob bering.*

#### 1-vaziyat.

Poytaxt shifoxonalaridan biridan uncha uzoq bo‘lmagan joydan gul butasi ostiga kimdir tashlab ketgan chaqaloq topib olindi. Bolaning kimligini aniqlash uchun bironta yozuv ham, hujjat ham uning yonida yo‘q edi.

Tabiiyki, chaqaloqni fuqarolik holati hujjatlarida qayd etish masalasi paydo bo‘ldi. Familiyasi, ismi, otasining ismi ro‘yxatga olgan shaxslar ixtiyoriga ko‘ra belgilandi.

Bolaning fuqaroligi masalasini hal qilishda muammolar kelib chiqdi, negaki ma‘lumotlar yo‘qligi tufayli bola tug‘ilgan joyni aniqlash imkoniyati bo‘lmadi.

*Sizningcha, bu bolaning fuqaroligi to‘g‘risidagi masalani qanday hal qilish kerak?*

#### 2-vaziyat.

Er-xotin U.lar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi (FHDQEO)ga o‘z farzandini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishdi.

Ariza ko‘rib chiqilayotganda FHDQEO xodimlari er-xotin U.lar fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ekanligini aniqlashdi va bolani ro‘yxatga olishni rad etishdi. Ular o‘z rad javobini ota-onasi singari bola ham fuqaroligi bo‘lmagan shaxs sanaladi, shuning uchun O‘zbekiston fuqarosi sifatida ro‘yxatga olinishi mumkin emas, deya izohlashdi.

*Sizningcha, FHDQEO xodimlari haqmi? Er-xotin U. ning FHDQEOga murojaati munosabati bilan vujudga kelgan masalaga “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunning qaysi qoidalaridan javob topish mumkin?*

### **Sizga ma’lummi, ya’ni:**

- tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, fuqaroga 16 yoshga to‘lganida beriladigan pasport fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi;
- turmushdoshlardan birining fuqaroligini o‘zgartirishi boshqa turmushdoshning fuqaroligi o‘zgarishiga olib kelmaydi;
- chet ellik erkak yoki ayol bilan nikoh tuzish turmushdoshlarning fuqaroligini o‘zgartirish majburiyatini yuklamaydi;
- fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston hududida tug‘ilgan bolasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi;
- ajnabiy fuqaro yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lgan bola farzandlikka olingan taqdirda, u O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi;
- 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning fuqaroligini ularning ota-onalari fuqaroligi o‘zgargan hollarda, shuningdek, farzandlikka olish hollarida o‘zgartirish faqat bolalarning roziligi bilan bo‘lishi mumkin;
- agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonundan farqli qoidalar joriy etiladigan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanadi.



### ***Yakunlarni chiqaramiz***

#### **O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi**

- insonning davlat bilan huquqiy aloqalari, inson va fuqarolarning davlat tomonidan muhofaza qilinishi;
- fuqarolarning qonunlarga rioya qilish burchi;
- fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar: davlat hokimiyati organlariga saylanmaydilar, saylovlarda ishtirok etmaydilar, armiyada xizmat qilmaydilar, siyosiy partiyalarga a‘zo bo‘lmaydilar;
- pasport – 16 yoshdan;
- fuqarolikka ega bo‘lish:
  - tug‘ilgan zahoti;
  - qabul qilish to‘g‘risidagi arizaga ko‘ra;
- “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida” Qonun (2004-yil 3-dekabrdaqi tahriri).



## O'zingizni sinang!

1. Fuqarolik nima? Insoniyat tarixida fuqarolik instituti hamma vaqt mavjud bo'lganmi?
2. Sizningcha, fuqarolar huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni kim ta'minlashi lozim?
3. Fuqaro va davlat o'rtasida qanday o'zaro bog'liqlik vujudga keladi?
4. Hozirgi demokratik davlat fuqarosi qanday normalar himoyasi pano-hida bo'ladi?
5. O'zbekistonda fuqarolikka ega bo'lish uchun qanday qonuniy asoslar nazarda tutilgan?
6. Demokratik jamiyatda fuqaro va davlatning o'zaro munosabatlari qanday prinsiplarga asoslanadi?
7. Ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqaroligi bo'lgan shaxslar bilan bir xildagi huquqlarga ega bo'ladilarmi?
8. "Insonning huquqiy maqomi" tushunchasiga izoh bering, uning xususiyatlarini sanab bering.

## 8-§. INSON VA FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIK-LARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan inson va fuqarolar qanday shaxsiy huquq va erkinliklarga ega ekanligini bilib olasiz.

1. Yashash huquqi.
2. Himoyalani-sh va shaxsiy daxlsizlik huquqi.
3. Sha'ni, obro'si va shaxsiy hayotiga tajovuzdan himoyalani-sh huquqi.
4. Turarjoy daxlsizligi huquqi.
5. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish va yashash joyini erkin tan-lash huquqi.
6. Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi.
7. Vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi.

**Shaxs huquq va erkinliklari** – bu kishilik sivilizatsiyasining mushtarak yutug'idir. Inson huquqi – bu ma'lum bir xatti-harakatga ijozat berilishi, o'z ixtiyoriga ko'ra xatti-harakat uchun ma'lum bir imkoniyat ega bo'lish, erkin xatti-harakat o'lchovi.

Mana shuning uchun qonun bilan belgilangan bir holatda huquqlar deb, boshqa holatda esa erkinlik deb yuritiladi. Bunda shuni yodda tutish kerakki, xatti-harakatlarni tanlashda keng erkinlikni taqdim etish orqali huquq ular-dan foydalanishning aniq chegarasini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi navbatda shax-siy huquq va erkinliklar, keyin esa siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar mustahkamlab qo‘yilgan.



### 1-topshiriq

*O‘zingizni mamlakatning Asosiy qonuni loyahasini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh tarkibiga kiritilgan deb tasavvur qiling.*

*Qaysi shaxsiy huquq va erkinliklarni ana shu loyihaga kiritgan bo‘lar edingiz?*

*Ro‘yxatni tuzing va ularning eng muhimlarini belgilang.*

*Yodingizda bo‘lsin, sizning mamlakatingiz demokratik davlat bo‘lishi uchun inti-lishingiz kerak.*

## 1. YASHASH HUQUQI

Mamlakatda demokratiyaning mavjudligini aniqlaydigan insonning eng muhim shaxsiy huquqi – bu yashash huquqidir.



### Asosiy qonun belgilaydi

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 24-modda.**



Davlat va jamiyatning asosiy burchi – ana shu huquqni qo‘l ostidagi barcha vositalar bilan kafolatlashdir. Bu huquqni ro‘yobga chiqarish davlat

va jamiyat demokratik rivojlanishining muhim sharti – sog‘lom yashash huquqi, normal hayot sharoiti va hokazolar bilan chambarchas bog‘liq. Davlat uni quyidagi majburiyatlarni bajarishda kafolatlaydi:

- a) xalqaro mojarolarni hal qilish vositasi sifatida urushdan va unda qatnashishdan voz kechish;
- b) atrof-muhitni muhofaza qilish;
- d) qurol-yarog‘ga ega bo‘lish va uni qo‘llashning alohida tartibini belgilash;
- e) ochiq va malakali tibbiy yordam olish imkonini yaratish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”**gi 2005-yil 1-avgustdagi Farmoniga muvofiq va insonning umumjahon tomonidan tan olingan yashash huquqi prinsiplari, normalari hamda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, jinoiy javobgarlikni libe-rallashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida: *“2008-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasida jinoiy jazo sifatida o‘lim jazosi bekor qilinsin va uning o‘rniga umrbod qamoq yoki uzoq mud-datga ozodlikdan mahrum etish jazosi kiritilsin”*.

2008-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasida jinoyat sodir etgan-ligi uchun jazo sifatida o‘lim jazosi bekor qilindi.

## 2. ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI

Bu insonning har bir vaziyatda o‘z ixtiyoriga ko‘ra ish tutish huquqidir. Bunda davlat organlari va jismoniy shaxslar tomonidan uning huquqlarini qonunga xilof ravishda cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, faqat sudya-ning sanksiyasi (ruxsatnomasi) qamoqqa olish va hibsda saqlash uchun asos bo‘lishi mumkin.



### Asosiy qonun belgilaydi

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sud-da qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sud-da ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 26-moddadan.**

### 3. SHA'NI, OBRO'SI VA SHAXSIY HAYOTIGA

#### TAJOVUZDAN HIMOYALANISH HUQUQI

Shaxsiy hayot deyilganda istisno tariqasida ayni shu kishiga taalluqli hamda qonunga xilof ravishda oshkora etilgan taqdirda insonga ma'naviy ziyon yetkazilishi mumkin bo'lgan yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, telegraf vositasidagi va boshqa xil bildirishlar, tibbiyot tavsi-fidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar tushuniladi.

Shaxs qadr-qimmatini huquqi davlat inson uchun uning qadr-qimmatini va or-nomusini kamsitmaydigan sharoitlar yaratib berishini taqozo etadi. Hech kim qiynoqlarga solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki qadr-qim-matni tahqirlovchi muomalaga duchor etilmasligi shart.

#### 4. TURARJOY DAXLSIZLIGI HUQUQI

Turarjoy daxlsizligi huquqi – inson uchun muhim va u ko'plab xalqaro huquqiy aktlarda mustahkamlangan. 1948-yildagi Inson huquqlari umumdeklaratsiyasining 12-moddasiga muvofiq “hech kimning turarjoy daxlsizligiga o'zboshimchalik bilan aralashishi mumkin emas”.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (27-modda) ko'zda tutilganidek, davlat organlari ushbu huquqlarga aralashishi mumkin emas. Ammo davlat, jamiyat xavfsizligi, jamoatchilik tartibi, aholi sog'ligini saqlash yoki boshqa shaxslarning huquqi hamda erkinligi nuqtayi nazaridan qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

Fuqaro tomonidan qonuniy asosda doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi tariqasida egallab turilgan har qanday bino turarjoy jumlasiga kiradi.



**Yodda tuting!**

**Turarjoy daxlsizligi** – insonning konstitutsiyaviy shaxsiy huqu-qidir: hech kim istiqomat qiluvchining xohish-irodasiga qarshi xonado-niga kirishga haqli emas. Turarjoy tintuvi faqat prokurorning sanksiyasi (ruxsatnomasi) yoki sud qarori asosidagina o'tkazilishi mumkin.



## Asosiy qonun belgilaydi

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turarjoyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

### O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 27-moddadan.



## 2-topshiriq

Fuqaro M.ning kvartirasiga tepa qavatdagi qo'shnisi suv toshirib yubordi. Ko'p suv toshmagan uchun u turarjoy daxlsizligi asosida ta'mirlovchi ustani xonadoniga kiritmadi.

*Bu holatda kim haq?*



## 3-topshiriq

Rasmlarga qarab, bunday holatda insonning qanday huquqlari buzilganligini aniqlang. Har bir rasm ostiga nimalar yozish kerakligini taklif qiling.



## 5. BIR JOYDAN IKKINCHI JOYGA KO'CHISH VA YASHASH JOYINI ERKIN TANLASH HUQUQI

Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish va yashash joyini erkin tanlash huquqi O'zbekiston hududida qonuniy tarzda bo'lib turgan har bir odamga taalluqlidir.



## Asosiy qonun belgilaydi

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

### O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 28-modda.

Inson fikri va e‘tiqodi uning xatti-harakatlari asosidir.



### ***Yodda tuting!***

**So‘z erkinligi** – bu nafaqat o‘z g‘oyalari va qarashlarini og‘zaki tarzda, qolaversa, matbuotda, tasviriy san‘at asarlarida, badiiy adabiyotda va shunga o‘xshash boshqa narsalarda ifodalash imkoniyatidir.

Konstitutsiya fikr yuritish va so‘z erkinligini ta‘minlashni kafolatlash bilan birgalikda, mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi yo‘naltirilgan har qanday axborot yoki davlat siri bo‘lgan ma‘lumotlarni tarqatishni man etadi.



### ***Asosiy qonun belgilaydi***

Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 29-modda.**

## **7. VIJDON VA DINIY E‘TIQOD ERKINLIGI**

O‘zbekistonda o‘z tasdig‘ini topgan vijdon erkinligini hurmat qilish xalqimizning teran ma‘naviy an‘analariga javob beradi. Dinning davlatlashtirilishi har kimning dinga e‘tiqod qilishi shaxsiy ishi ekanligiga davlatning aralashuvini anglatgan bo‘lur edi. Davlat va diniy tashkilot orasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) Qonuni asosida boshqarib boriladi. Konstitutsiya dindorlarga ham, dunyoviy turmush tarzini kechiruvchi kishilarga ham davlat ta‘lim tizimining dunyoviy xarakterda bo‘lishini kafolatlaydi.




## Asosiy qonun belgilaydi

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

### О'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda.

7-sxema.



## 4-topshiriq

Sizningcha, qaysi hollarda insonning shaxsiy huquqlari buzilgan? Yuzaga kelgan muammo yechimini taklif qiling.

### 1-vaziyat.

O'smirlar guruhi o'g'irlik sodir etdi. Bu voqea sudgacha maktab Pedagogik kengashi majlisida muhokama qilinib, unda o'sha o'smirlarni jinoyatchilar deb atashdi. Shu bilan birga, majlis qatnashchilari ularni sud qat'iy jazolaydi degan umid bildirishdi...

Bunda har ikkala tomonda qanday qonunbuzarlik namoyon bo'ldi?

## 2-vaziyat.

O'smirlar guruhi tibbiyot institutining tajriba xonasidan kuchuk o'g'irlashdi. Voqeani tekshirish davomida shu narsa aniqlandiki, tajriba o'tkazilgandan so'ng kuchuklar boqilmasligi va parvarishlanmasligidan zorlanib akillashlariga bolalar achinishgan.

*Axloq va qonun nuqtayi nazaridan o'smirlar xatti-harakatini qanday baholaysiz?*

## 3-vaziyat.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha Komissiya yig'ilishida o'g'rilik masalasi yuzasidan muhokama borardi. Shu payt inspektor kabinetiga jabrlanuvchi shaxt bilan kirib keldi-da, o'g'rilik sodir etgan o'spiringa ko'zi tushgach, unga qarata haqorat yog'dira boshladi. Ammo inspektor uni to'xtatdi va haqorat qilgani uchun javobgarlikka tortishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirdi.

*Sizningcha, inspektor, garchi o'spirinning aybi aniq bo'lsa-da, nega uning sha'niga haqorat yog'dirilishini to'xtatdi?*

## 4-vaziyat.

O'tgan darsda to'qqizinchi sinf o'quvchilari sport zalida jismoniy tarbiya darsida bo'lganlarida, yettinchi sinf o'quvchilari ularning xonasida o'tkazilgan darsda o'tirishgan edi. Shu dars paytida o'zlarining pul-lari yo'qolganini bahona qilib, to'qqizinchi sinf o'quvchilari yettinchi sinf o'quvchilarini tintib chiqishdi.

*To'qqizinchi sinf o'quvchilarining xatti-harakatlari qonuniymi? Ushbu xatti-harakatlarga baho bering.*



## 5-topshiriq

*Quyidagi vaziyatlar bilan tanishing. Qaysi hollarda insonning qaysi shaxsiy huquqlariga putur yetkazilgan?*

- Siz konverti ochib ko'rilgan maktub oldingiz;
- muassasadan chiqayotganda militsiya xodimi sizdan sumka ichidagi-larni ko'rsatishni talab qildi;
- vaksinalash (emlash) paytida bolaga gepatit virusini yuqtirishdi;
- o'quvchi qizning pul turgan hamyoni yo'qoldi va yonidagi partado-shiga: “Sen o'g'irlagansan, sen o'g'risan”, – deb aytdi;
- konduktor chipta olishni rad etgani uchun yo'lovchini haqorat qildi.



## ***Yakunlarni chiqaramiz***

### **Shaxsiy huquq va erkinliklar**

- qonun – shaxsni himoya qilish uchun;
- yashash huquqi;
- erkinlik va shaxsiy daxlsizlik;
- shaxsiy va oilaviy hayotga aralashmaslik;
- turarjoy daxlsizligi;
- qadr-qimmat va obro‘ni himoya qilish;
- vijdon va diniy e’tiqod erkinligi;
- dunyoviy davlat.



## ***O‘zingizni sinang!***

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning qanday huquq va erkinliklari belgilangan?
2. Yashash huquqini ro‘yobga chiqarish davlat uchun nimani anglatadi?
3. Insonning turarjoy daxlsizligi huquqi nimani anglatadi?
4. Shaxsiy hayot nima, u qanday muhofaza qilinishi kerak?

## **9-§. SIYOSIY HUQUQLAR**

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi qanday siyosiy huquqlarga ega ekanligini;
- jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ular qaysi shakllarda ishtirok etishlari mumkinligini bilib olasiz.

1. **O‘z siyosiy huquqlarini qay tarzda ro‘yobga chiqarish mumkin?**
2. **Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida fuqarolar ishtiroki.**
3. **Yig‘ilishlar erkinligi huquqi – ular cheklangan bo‘lishi kerakmi?**

## 1. O‘Z SIYOSIY HUQUQLARINI QAY TARZDA RO‘YOBGA CHIQARISH MUMKIN?

*Siyosiy huquqlar fuqarolarga nima uchun kerak?*

Agar fuqarolarda qat’iy axloqiy va siyosiy qarashlar bo‘lsa, ular o‘z huquqlari va burchlarini aniqroq anglab yetadilar, mamlakat ijtimoiy hayotida faolroq ishtirok etadilar.



### 1-topshiriq

*Sinfdoashlaringiz, shuningdek, maktabingizdagi barcha ta’lim oluvchilarning faollik darajasiga baho bering.*

*Saylovda ishtirok etish yoshiga yetganingizda har doim saylovlarda faol ishtirok etasizmi yoki aksinchami?*

*Aytaylik, kelajakda saylash uchun sizning nomzodingiz ko‘rsatildi. Saylangan taqdiringizda har doim ham o‘zingizni haqiqiy xalq vakili deb his etasizmi?*

Siyosiy huquqlar shaxsiy huquqlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Keling, bir o‘ylab ko‘raylik: fuqaro, bordi-yu uning shaxsiy huquqlariga rioya etilishiga ishonchi komil bo‘lmasa, mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok etadimi?

**Respublika Konstitutsiyasi o‘z fuqarolari uchun belgilagan siyosiy huquqlar – bular:**

- jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi;
- O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq mitinglar, tinch yig‘ilishlar va namoyishlar ko‘rinishida faollik ko‘rsatish huquqi;
- kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish huquqi;
- saylash va saylanish huquqi;
- vakolatli davlat organlari, idoralari va xalq vakillariga arizalar, iltimosnomalar, shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi.



### Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 32-modda.**



Siyosiy huquqlar mazmunini durustroq tushunib olish uchun ijtimoiy-siyosiy hayotda faolroq ishtirok etish fuqaroga nimalar berishi mumkinligini ko‘z oldiga keltirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqi bevosita yoki saylanadigan vakillar orqali amalga oshiriladi. Bu huquq fuqarolar har qanday saylab qo‘yiladigan organlarni saylash va saylanish huquqiga ega ekanligi bilan kafolatlangan. Fuqaro shu tariqa hokimiyatga va qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir o‘tkazadi.



## 2-topshiriq

*Fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlatni boshqarishda ishtirok etishning o‘zingizga ma’lum yo‘llarini ayting. 9-sinf o‘quvchisi davlat boshqaruvida qay yo‘sinda ishtirok etishi mumkin?*

Barcha siyosiy partiyalar o‘z nomzodlarini davlat vakillik organlariga ko‘rsatishi mumkin. Bu saylov tizimini demokratlashtirishga ko‘maklashadi, fuqarolarga muqobillik asosida deputatlarni saylash imkonini beradi. Bunda saylovni o‘tkazishda bitta o‘ringa bir necha nomzod qo‘yilib, fuqarolar ulardan eng muqobilini saylaydilar.

Fuqarolarning hukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’siri davlat hukumati organlariga saylash huquqi bilan cheklanmaydi. Fuqarolar murojaat, taklif, ariza va shikoyatlar orqali ko‘plab kundalik muammolarni hal etishga yordam beradilar, o‘z huquqlarining buzilishiga qarshilik ko‘rsatadilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘ri-sida”gi 2002-yil 13-dekabrdagi Qonuniga muvofiq fuqarolarning murojaati ariza, taklif va qonuniy manfaatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

**Ariza** – bu fuqarolarning o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun ko‘mak so‘rab qilgan murojaatlari-dir.



**Taklif** – fuqarolarning davlat va jamoatchilik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarini ifodalovchi murojaatlaridir.

**Shikoyat** – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashni talab qilish to'g'risidagi murojaatlaridir.

Murojaatnomada fuqaroning ismi-sharifi, familiyasi ko'rsatilishi, turarjoyi haqida ma'lumot bo'lishi, ariza, taklif yoki shikoyat mazmuni bayon qilingan bo'lishi kerak. Yozma murojaatnoma murojaat qiluvchining imzosi bilan tasdiqlanadi. Murojaatnomani shaxsiy imzo bilan tasdiqlash imkoni bo'lmaganda, u boshqa shaxsning imzosi bilan tasdiqlanishi mumkin. Bunda qo'shimcha ravishda imzo qo'yuvchi shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

## 2. QONUN LOYIHALARINING UMUMXALQ MUHOKAMASIDA FUQAROLAR ISHTIROKI

Fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlaridan biri “Qonun loyiha-larining umumxalq muhokamasi to'g'risida”gi Qonunga (14.12.2000-y., o'zgartirishlar kiritilgan) muvofiq referendumda ishtirok etishdir. Shu kunga qadar yoki shu kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etish huquqiga egadirlar. **Fuqarolar bunda quyidagilarga haqlidirlar:**

- qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida erkin ishtirok etish;
- qonun loyihalariga tuzatishlar va takliflar kiritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, boshqa davlat organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, siyosiy partiyalar va boshqa jamoatchilik birlashmalariga, ommaviy axborot vositalariga murojaat qilish;
- deputatlar, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillari bilan uchrashuvlarda, qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi uchun tashkil etilgan boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatiga ko'ra qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishini cheklash taqiqlanadi.

Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi bo'yicha tadbirlarni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va boshqa

jamoatchilik tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar fraksiyalari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhi, shuningdek, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari saylov uchastkalarida o‘tkazadilar. Qonun loyihasi bo‘yicha belgilangan tartibda kiritilgan takliflar va tuzatishlar albatta ko‘rib chiqilishi shart.

### 3. YIG‘ILISHLAR ERKINLIGI HUQUQI

Yig‘ilishlar, mitinglar va namoyishlar erkinligi insonga o‘z fikrlari va o‘z qarashlarini ifodalash imkoniyatini beradi. Bu huquq mamlakat rahbariyatiga xalqning fikri haqida axborot yetkazib turish uchun ham zarur. Bu narsa o‘ta muhim va rahbarlarga fuqarolarni tashvishlantirayotgan muam-molarga chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi.

**Miting** – bu ma’lum bir shaxslar va tashkilotlarning xatti-harakatlari, ijtimoiy-siyosiy voqealarga nisbatan munosabatini oshkora ifodalash maqsadidagi fuqarolarning tinch yig‘ini.

**Namoyish** – bu ma’lum bir siyosiy talablarni bildirish maqsadidagi ommaviy yurish.

**Yig‘ilish** – bu biror-bir muhim jamoatchilik masalasini jamoa bo‘lib birgalikda muhokama qilish uchun fuqarolar ishtiroki.



#### Asosiy qonun belgilaydi

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlari-ga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridan-gina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

#### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 33-modda.

Jamoatchilik birlashmalarini tashkil etish huquqi fuqarolarga ularning manfaatlari va mayllariga mos keluvchi faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini beradi. Masalan, jamoatchilik tashkilotlarining a‘zolari inson huquq va erkinliklari masalalari bilan shug‘ullanadi, xayriya tashkilotlari esa eng ehtiyojmand kishilarga moddiy yordam uyushtiradilar.



## Yakunlarni chiqaramiz

### Siyosiy huquqlar

- maqsad – o‘z fikri va e’tiqodini ifodalash;
- davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqi;
- yig‘ilishlar, mitinglar va namoyishlar erkinligi;
- siyosiy partiya, kasaba uyushmasi va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish huquqi;
- davlat organlariga arizalar, iltimosnomalar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi.



## O‘zingizni sinang!

1. Siyosiy huquqlar insonga nega kerak?
2. Shaxsiy va siyosiy huquqlar qay tarzda o‘zaro bog‘langan?
3. Davlat jamoat birlashmalari faoliyatiga aralasha oladimi?
4. Tinch namoyishlar, mitinglar va yig‘ilishlarda ishtirok etish insonga nima beradi?
5. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan qaysi partiyalar va harakatlarni bilasiz?
6. Nimalar shaxsiy huquqqa, nimalar siyosiy huquqlarga oid ekanligini aniqlang:
  - qadimgi Spartada nimjon bolalarni jarga uloqtirishardi;
  - sinfdosh qiz partadosh dugonasining xatini bekitiqcha o‘qidi;
  - insonni boshqa dinga o‘tishga zo‘ravonlik bilan majburlashdi;
  - mahalliy hokimiyat organlarini tanqid qiluvchi maqolalarni e’lon qilish taqiqlangan.

*Ro‘yxatni o‘z misollaringiz bilan davom ettiring.*

## 10-§. IJTIMOIIY, IQTISODIIY VA MADANIY HUQUQLAR

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning kishilar hayotidagi ahamiyati va davlatning ularni ta’minlashdagi roli haqida;
- mehnat va ta’limning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida bilib olasiz.

1. Munosib turmush darajasi nima?
2. Inson huquqlaridan eng muhimi qaysi biri hisoblanadi?
3. Kasb qanday tanlanadi?

Inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarining alohida guruhini ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tashkil etadi. Bunga xususiy mulk; mehnat erkinligi; faoliyatni tanlash erkinligi; ishsizlikdan himoyalaniş; mehnat qilish va mehnat sharoitiga ega bo'lish; turarjoy; qonunda taqiqlanmagan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish; dam olish; onalik va bolalikni himoya qilish; qarilikda, mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot (pensiya, nafaqa olish); sog'liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish; sog'lom yashash muhitiga ega bo'lish huquqlari kiradi.

## 1. MUNOSIB TURMUSH DARAJASI NIMA?

Ammo shunga qaramay, har bir kishi, qanday sharoitda yashashidan qat'i nazar, o'ziga munosib turmush darajasini ta'minlashga intiladi. Hech kim qashshoqlikda yashashni, ochidan o'lib ketishni istamaydi. Har kim sivilizatsiya va madaniyat havola etgan barcha ne'matlardan foydalanishni xohlaydi.

Shuning uchun ham davlatning vazifasi barcha odamlar uchun munosib turmush tarzini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Munosib turmush darajasi qanday bo'lishi lozim? Shubhasiz, ma'lum darajada mulkdor bo'lishni, ish va kasbni erkin tanlash imkoniyatini, dam olishdan, zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan, sifatli ta'limdan, qariganda ijtimoiy muhofazadan foydalanishni taqozo etadi.

Inson uchun qaysi huquqlari eng muhim ekanligi xususida ham ko'pdan ko'p mulohazalar mavjuddir.

Ba'zilar shaxsiy va siyosiy huquqlar eng muhimi deb hisoblasa, boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni shular jumlasiga kiritadi, uchinchi birovlar esa insonning sog'lom muhitda yashash huquqi eng asosiysidir, degan fikrga boradi.

## 2. INSON HUQUQLARIDAN ENG MUHIMI QAYSI BIRI HISOBLANADI?

*Tasavvur qiling, Siz – Konstitutsiyaga kiritilishi lozim bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi bahs-munozara ishtirokchisiz. Ushbu munozara ishtirokchilarining fikr-mulohazalarini baholang va xulosa chiqaring: qaysi huquqlar eng muhimlari?*

**Birinchi (qatnashchi):** Men Konstitutsiyaga faqat shaxsiy va siyosiy huquqlar kiritilishi lozim deb hisoblayman. Bular – yashash huquqi, so'z, fikr, axborot erkinligi, vijdon, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish erkin-

ligidir. Biz hozircha mehnat qilish, bilim olish huquqi, hamma uchun turarjoy kabi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ta'minlashga qodir emasmiz. Agar biz bu huquqlarni qonun bilan mustahkamlab qo'yishga uringudek bo'lsak, unda hukumat fuqaroviy va siyosiy huquqlarga kerakli darajada e'tibor berolmaydi.

**Ikkinchi:** Men bu ta'kidni ma'qullamayman. Eng avvalo, iqtisodiy huquqlar ta'minlanishi lozim, deb hisoblayman. Kishilarning, basharti, ularning yeydigan hech vaqosi bo'lmasa, odamlarning ishi va turarjoyi bo'lmasa, qanaqa siyosiy erkinliklar xususida so'z borishi mumkin?

**Uchinchi:** Bularning hammasi to'g'ri, ammo siz davlat hammani ish bilan ta'minlay oladi, deb hisoblaysizmi? Menimcha, buning imkoni yo'q.

**To'rtinchi:** Fikrimcha, iqtisodiy huquqlarni kafolatlash mushkuldir. Ammo hukumat kam ta'minlanganlarga (pensionerlar, mehnat layoqatini yo'qotganlar va hokazolarga) imtiyozlar berishga majburdir.

**Beshinchi:** Men har bir odam o'zi va o'z yaqinlari hayot kechirishi uchun zarur ehtiyojni davlatning yordamisiz ishlab topishi kerak, deb hisoblayman. Davlat esa bor kuch-g'ayratini atrof-muhit muhofazasiga qaratishi lozim.



### 1-topshiriq

*Ushbu muhokamada qancha har xil qarashlar bayon etildi? Qaysi fikr-mulohazalar, argumentlar Sizga ancha ishonarli tuyuldi? Nega? Ushbu muammoni hal etish yo'li borasida o'z fikringizni bildiring.*

Bahs yuritish barcha huquqlar inson uchun nechog'liq muhim ekanligini, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqligini, biri boshqasini qay yo'sinda to'ldirishini ko'rsatadi.

Haqiqatan ham, siyosiy huquqlarni ijtimoiy va iqtisodiy huquqlardan qanday ajratib olish mumkin? O'z navbatida, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar sog'lom muhitda yashash huquqisiz ma'no kasb etmaydi. Bu narsa butunlay tushunarli, negaki ijtimoiy himoya qilinmagan inson o'zining siyosiy, iqtisodiy va boshqa huquqlarini ro'yobga chiqarishi ehtimoldan yiroqdir.

Shunday qilib, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarning bog'liqligi shundan iboratki, ijtimoiy farovonlik huquqi moddiy jihatga (nafaqa, pensiya) ega, insonning iqtisodiy huquqi esa bevosita yoki bilvosita, ayni paytda yoki vaqti kelganda, albatta, jamiyat hayotining ijtimoiy tomoniga ta'sir (ijobiy yoki salbiy) ko'rsatadi.

## Mulkdor bo'lish, mehnat qilish, mehnat faoliyatini erkin tanlash va ishsizlikdan himoyalaniş huquqlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida har bir odam mulkdor bo'lish huquqiga ega ekanligi haqida so'z yuritiladi. Bu narsa, basharti, inson mol-mulkka egalik qilsa, unda hech kim bu mol-mulkni tortib olishi mumkin emasligini anglatadi va bu insonga o'ziga ishonch hamda mustaqillik hissini baxsh etadi. Mulkdorda o'z mulkini qandaydir bir ishga sarflab ko'paytirish, ya'ni o'ziga tanish faoliyat sohasida serg'ayratlik namoyish etish imkoniyati bo'ladi.

Konstitutsiya bilan kafolatlangan mehnat qilish huquqi, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalaniş huquqi davlatimiz zimmasiga ishsizlik darajasi iloji boricha past bo'lishi, ishsiz qolgan inson esa nafaqa olishi va shu davrda o'ziga ish qidirib topishi uchun barcha vositalarni ishga solish majburiyatlarini yuklaydi.

Konstitutsiyada majburiy mehnat, ya'ni xizmat burchi doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishga majburlash taqiqlanishi alohida qayd etilgan.



### Asosiy qonun belgilaydi

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

### O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 37-modda.

#### Sizga ma'lummi, ya'ni...

Ishga kirayotgan odamdan avvalo, yoshi haqida so'raladi, chunki O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq korxona ma'muriyati voyaga yetmaganlarni faqat 16 yoshdan boshlab qabul qilishga haqlidir. Mehnatga tayyorlash maqsadida (O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 77-modda) o'quvchilar 15 yoshdan boshlab o'qishdan bo'sh vaqtda ishga qabul qilinishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar faqat ota-onalarining yozma roziligi bilan ishga joylashishlari mumkin, chunki ota-onalar mehnat sharoitini bilishlari va bu

haqda kelishishlari shart. Shuningdek, o'smir salomatligi to'g'risidagi tibbiyot ma'lumotnomasi ham majburiydir.

Voyaga yetmaganlar uchun shunday taqiqlangan kasblar ham mavjudki, ular sog'liq uchun zararli bo'lgan mehnat sharoitiga ega. Masalan, gazpayvandchi, shaxtyor, temirchi singari kasblar.

O'quvchilar salomatligiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim jarayonini buzmaydigan yengil ishlarga jalb etilishi mumkin. Shuningdek, voyaga yetmaganlarni tungi, qo'shimcha ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish ham taqiqlanadi.

## Ijtimoiy ta'minot huquqi

O'zbekistonda munosib turmush darajasini saqlab turish uchun ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga, yolg'iz onalarga va boshqa yolg'iz kishilarga, shu jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarga turli ko'rinishdagi ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda, nafaqalar va qarilik pensiyalarining miqdori muntazam oshirib borilmoqda.



### Asosiy qonun belgilaydi

Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan ozi bo'lishi mumkin emas.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 39-modda.**



Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi har bir odamga havola etilgan. Mamlakatda aholi bepul davolanadigan davlat tibbiyot muassasalarining salmoqli miqdori mavjud.

Keyingi vaqtlarda bir talay xo‘jalik hisobidagi, shuningdek, pullik poliklinikalar va shifoxonalar paydo bo‘ldiki, qayerda davolanishni tanlash

imkoniyati ham yaratildi.

Sog‘lom avlod – millat salomatligi garovidir. Keyingi vaqtlarda mamlakatda “Sog‘lom avlod uchun” singari turli davlat dasturlari hamda faoliyati yosh avlod salomatligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan jamoat birlashmalari tashkil etildi.

### **Asosiy qonun belgilaydi**

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 40-modda.**

### **Bilim olish huquqi**

O‘zbekiston Respublikasida har bir odam bilim olish huquqiga ega-dir. Oilaning daromadidan qat’i nazar har qaysi bolada bepul bilim olish imkoniyati mavjud. Bu narsa mamlakatning Asosiy qonuni bilan kafolatlangandir.

### **Asosiy qonun belgilaydi**

Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 41-modda.**

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq mamlakatda quyidagi ta’lim turlari belgilangan: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim (1–9-sinflar), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi



(akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari, ta'lim muddati – 3 yil), oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bilim ham tovarga aylanishi sababli ta'limning roli ham o'zgarib boradi.

## 2-topshiriq

### 1-vaziyat.

*Ko'plar har bir odam uchun majburiy bo'lgan o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi shart emas, umumiy o'rta ta'lim ham kifoyadir, deb hisoblashadi. Go'yo, hech qanday ma'lumotsiz ham binoyidek ishlab pul topish mumkin emish. Siz bunga qanday qarasiz?*

### 2-vaziyat.

*Kimda bilim ko'p bo'lsa, egallagan bilimini hayotda qo'llay olsa, unga talabgor ko'proq bo'ladi va muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlari ko'p bo'ladi, degan fikrni ma'qullaysizmi?*

### 3-vaziyat.

*Nima deb o'ylaysiz, maktabni tugatgach, qaysi fanlar ko'proq asqatadi?*

## Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi va madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi

Konstitutsiyaning 42-moddasida shunday yozilgan: har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

Mazkur huquqlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bilim olish huquqiga juda yaqin, negaki ta'lim, madaniyat, ilmiy-texnikaviy yuksalish o'zaro bog'liq tushunchalardir. Bu huquqlar madaniyat va fan boyliklari ochiqligi bilan ta'minlanadi. Har kim muzey, teatr, madaniy va ilmiy-texnikaviy markazlarga tashrif buyurishi, kutubxona, radio va televideniya xizmatidan foydalanishi mumkin.



### 3-topshiriq

*Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga putur yetkazilishiga doir sahna ko'rinishlarini tayyorlang va namoyish qiling. Qanday huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilganini aniqlang. Bu huquqlarni himoya qilish uchun nima qilmoq kerak?*

### 3. KASB QANDAY TANLANADI?

Hademay siz ham kasb tanlash muammosiga duch kelasiz. Hayotda o'z o'rningizni topishingiz, kasbdan qoniqish hosil qilish uni qanchalik oqilona tanlay bilishingizga bog'liq. Kasblar haqida qayerdan ma'lumot olish mumkin?

1. Maktab o'qituvchilaridan. Ular sizga u yoki bu kasblarning o'ziga xos tomonlari haqida so'zlab berishadi.

2. Ommaviy axborot vositalaridan. Respublikamizda xizmat ko'rsatgan taniqli kishilarning o'z kasblari haqida so'zlab bergan maqolalarini o'qing. Turli kasblarga bag'ishlangan televizion ko'rsatuvlarga e'tibor bering.

3. Ota-onalardan. Ko'p hollarda ular sizni o'zingizdan yaxshiroq bilishadi va yomon maslahat berishmaydi. Biroq shuni nazarda tutingki, kela-jakda ota-onangiz emas, siz ishlaysiz.

4. Eng muhimi, bu borada baribir yakuniy qarorni o'zingiz chiqarishingizni esdan chiqarmang. O'zingizdagi oz bo'lsa-da, hayotiy tajribangizga tayaning. Fe'l-atvoringiz, qiziqishlaringizni hisobga olgan holda, o'zingizga yoqadigan kasbni tanlang.



## Yakunlarni chiqaramiz

### Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari

- davlatning vazifasi – aholi turmushini munosib darajada ta'minlash;
- mulkdor bo'lish huquqi;
- mehnat qilish va dam olish huquqi;
- ishga qabul qilish – 16 yoshdan, 15 yoshdan ham yo'l qo'yiladi;
- ijtimoiy ta'minot olish huquqi;
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi;
- bilim olish huquqi;
- ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi huquqi;
- madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.



## O'zingizni sinang!

1. Insonning qaysi huquqlari ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar jumlasiga kiradi?
2. Mulkdor bo'lish inson hayotida qanday rol o'ynaydi va mulk insonga qanday ustunliklar beradi?
3. Qaysi tartib sizga adolatli tuyuladi: mulkdor bo'lish huquqiga faqat bir guruh odamlar ega bo'lgandami yoki har bir odam ega bo'lganda?
4. Qanday fikrdasiz, munosib turmush darajasini saqlab qolish uchun insonga nima zarur?
5. Ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar qay tarzda o'zaro aloqada bo'ladi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi?

## 11-§. INSON HUQUQI VA ERKINLIKLARI KAFOLATLARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari haqida;
- inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi haqida;
- o'z huquqlaringizni himoya qilish uchun qaysi idoralarga murojaat etish zarurligi haqida bilib olasiz.

1. O‘z huquqlarini himoya qilish uchun qayerga murojaat qilish kerak?
2. Inson huquqi va erkinligi kafolatlari.
3. Inson huquqlari himoyasi bo‘yicha milliy institutlar.

## 1. O‘Z HUQUQLARINI HIMOYA QILISH UCHUN QAYERGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Qachondir o‘z huquqlaringizni yoki boshqa odamlarning huquqlarini himoya qilishingizga to‘g‘ri kelganmi? Qaysi hollarda ana shunday zarurat paydo bo‘lishi mumkin?

Boshqa odamlarning huquqlariga putur yetkazilganda chetda qolishingiz mumkinmi?

Afsuski, inson ayrim hollarda kamsitish va haqoratlarga duchor bo‘ladi. Inson huquqlariga putur yetkazilgan barcha hollarda u o‘z huquqlari himoya qilinishiga ehtiyoj sezadi.

Hozirgi kunda davlatning o‘zi ana shunday himoyachi rolini qonunlari, sudi va huquq-tartibot organlari orqali bajaradi.



### Asosiy qonun belgilaydi

Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 44-modda.**

Ushbu huquq malakali yuridik yordamga muhtoj bo‘lgan har bir odam advokatga murojaat qilib, ana shunday yordamdan foydalanishi mumkinligini nazarda tutadi. Biron-bir vaziyatda, hatto agar jinoiy ishda ayblangan taqdirda ham, insonga yordam berishni rad etishga hech kimning haqqi yo‘q.

Davlatimizda voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalar alohida himoyadadir.



### Asosiy qonun belgilaydi

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 45-modda.**

Demokratik davlatda inson huquqlarini himoya qilishning ishonchli mexanizmi zarur. Bunday mexanizm huquqlarning ro'yobga chiqarilishi ustidan nazorat (**monitoring**) qilinishini amalga oshiradi.

Bunday mexanizm mamlakatimizda ham mavjud. U nafaqat davlat organlari orqali, balki shunday jamoat birlashmalari orqali, masalan, kasaba uyushmalari, advokaturalar va huquqni himoya qilish tashkilotlari orqali ham ifoda etilgan.

### **Himoya tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- odil sudlovni amalga oshiruvchi sud organlari;
  - qonunlar aniq-raso ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi hamda inson erkinliklari va huquqlarini himoya qiluvchi prokuratura organlari;
  - huquq-tartibotni ta'minlash va fuqarolar huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlarni bajaruvchi Ichki ishlar vazirligi organlari;
  - fuqarolarga ularning huquqlari himoyasida yuridik yordam ko'rsatuvchi advokatura;
  - huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar va kasaba uyushmalari.
- Huquqiy davlatda inson huquqlariga rioya etilishini kafolatlovchi ko'pgina usullar mavjud bo'ladi. Ular orasida alohida o'rin sud himoyasiga tegishlidir. Bu himoya shaklidan har bir odam foydalanishi mumkin. Buning uchun sudga sud muhokamasi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ariza bilan murojaat qilish kifoyadir.

Huquqiy davlatda sud mustaqil odil sudlov organi bo'lgani tufayli har qanday bahsli ishni hal qiluvchi sudya faqat qonunga bo'ysunadi.

Sudya konkret ishlarni hal qilayotganda xolis bo'lishi, ya'ni o'zining shaxsiy simpatiya va antipatiyasidan baland turishi, poraga sotilmasligi lozim. Hech kim, hattoki, hokimiyat va oliy boshqaruv organlari ham sud faoliyatiga aralashishga haqli emas.

### **“Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonunga muvofiq:**

- har bir fuqaro mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-harakati yoki harakatsizligi ustidan yuqori organga shikoyat qilishga haqlidir;
- agar fuqaro sudning qaroridan qanoatlanmasa, uning ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

### 3. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA MILLIY INSTITUTLAR

O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish yillarida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha inson huquqlari himoyasi mexanizmini kengaytirishga yo‘naltirilgan yangi milliy institutlar tashkil qilindi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha Vakillik instituti – Ombudsman;
- Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti.

#### Ombudsman

Inson huquqlari bo‘yicha Vakillik instituti – Ombudsman 1995-yilda qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida, ya’ni Oliy Majlis huzurida tashkil qilingan bo‘lib, sudlovchi sanalmaydi. Ombudsman davlat organlari tomonidan inson huquqlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

#### **Ombudsmanning vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- mamlakatda inson huquqlariga rioya etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar holatini o‘rganish;
- inson huquqlari buzilishi sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish;
- insonning buzilgan huquqlarini tiklash uchun aniq chora-tadbirlar ko‘rish.

Ombudsman huzurida konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga rioya etilishi bo‘yicha komissiya tuzilgan. U fuqarolar va tashkilotlardan o‘z nomiga kelgan murojaatlarni ko‘rib chiqadi.

O‘z qonuniy huquqlari buzilganligi haqida shikoyat bilan har bir kishi (respublika fuqarosi, ajnabiy fuqaro yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs) Ombudsmanga faqat himoyaning boshqa barcha vositalaridan (sudga, prokuraturaga va boshqalarga murojaat qilishdan) foydalangandan keyingina murojaat qilishi mumkin. Fakt tasdiqlangan taqdirda Ombudsman huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan tashkilotga o‘z xulosasi bilan murojaat qiladi.

Ombudsman xulosasi tavsiyaviy xarakterga ega. Xulosa e’tiborga olinmasa, Ombudsman o‘zining yillik ma’ruzasida bu haqda Oliy Majlis deputatlari va senatorlariga ma’lum qiladi.



**Yodda tuting!**

Ombudsmanga shikoyat yozma ravishda barcha zarur hujjatlar (o'z shikoyatiga boshqa tashkilotlarning javoblari, sud qarori, hukmi va hokazolar)ni ilova qilgan holda beriladi.

Shikoyatni ko'rib chiqish uchun o'n kunlik muddat belgilanadi.

## **Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi**

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi 1996-yil 31-oktabrda ijroiya hokimiyati tizimi tarkibida tashkil qilingan. U mamlakatda huquqni himoya qilish faoliyatini tashkil etuvchi davlat tashkiloti hisoblanadi.

### **Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining vazifalari:**

- inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- bu sohadagi ishlar milliy dasturini ishlab chiqish;
- inson huquqlarini himoya qilishning suddan tashqari tizimini tashkil etishga ko'mak berish;
- inson huquqlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tavsiyalar bilan murojaat qilish;
- inson huquqlari buzilishlari to'g'risidagi shaxsiy shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish.

## **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilikni monitoring qilish instituti**

Mazkur institut O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-apreldagi Farmoyishi bilan tashkil etilgan bo'lib, u ilmiy-tadqiqot ekspert muassasasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishiga muvofiq 2011-yil 4-maydan boshlab institut zimmasiga qonun ijodkorligi faoliyatini, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, shuningdek, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga yo'naltirilgan

qonun loyihalari ekspertizasini o'tkazish va takliflarni ishlab chiqish sohasida yangi vazifalar hamda funksiyalar yuklatib qo'yilgan.

Institutning asosiy vazifasi – qonun loyihalarini har tomonlama huquqiy ekspert qilish, qonunchilik hujjatlari loyihalarini barcha bosqichlar bo'yicha ko'rib chiqish va qabul qilishda chuqur asoslangan ekspert baholarini va xulosalarini tayyorlash.



### 1-topshiriq

Tasavvur qiling, siz kimyo kombinati joylashgan shaharda yashaysiz. Mazkur korxona bir necha yillar davomida ishlab kelayotir. Ana shu davr davomida aholi o'rtasida yurak-tomir va o'pka kasalliklari ko'paydi. Aholi salomatligi ahvolini mufassal tekshirish natijasida kasallikning ko'payib borishi atrof-muhitning ifloslantirilishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Korxona ma'muriyati tozalash inshootlarini o'rnatish borasidagi va'dasini bajarmayapti.

*Jamoatchilik ushbu muammoni qanday hal qilishi mumkin? Ushbu holda qanday harakatlar samarali bo'ladi?*



### 2-topshiriq

*Quyidagi vaziyatlarda inson huquqlarini himoya qilishning qaysi mexanizmlaridan foydalanish mumkin?*

1. Sizni ta'qib qilishmoqda, sizga jazolash bilan tahdid solishmoqda, tinimsiz qo'ng'iroq qilishyapti, haqoratlashmoqda.

*Nima qilmoq kerak?*

2. Sizni jinoyat sodir etganlikda ayblashyapti. Qaysi tashkilotning himoyasiga tayanishingiz mumkin?

*Bunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerak?*

3. Siz adolatsiz jabrlanganingizga, sizni xafa qilishganiga, haqoratlashganiga ishonch hosil qildingiz.

*Nima qilmoq kerak?*

4. Kechqurun o'rtog'ingiz bilan mashg'ulotlardan qaytayapsiz. Sizni militsioner to'xtatdi, militsiya bo'limiga olib ketmoqchi bo'lib turibdi.

*Bunday vaziyatda o'zingizni qanday tutishingiz kerak?*



## Yakunlarni chiqaramiz

### Huquq va erkinliklar kafolatlari

- inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi: sudlar, prokuratura, militsiya, advokatura;
- inson huquqlarining amalga oshirilishi monitoringi;
- “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun (13.12.2002-yildagi yangi tahriri);
- Ombudsman;
- 1996-yil – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi;
- 2005-yil – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonunchilikni monitoring qilish instituti ta’sis etildi.



## O‘zingizni sinang!

1. “Konstitutsiyaviy kafolat” degan tushunchaning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
2. O‘zbekistonda inson huquqlarining qanday qo‘shimcha milliy mexanizmlari yaratilgan? Ular qaysi vazifalarni bajaradi?
3. Nima uchun insonga kasbiy bilimlar bilan birgalikda huquqiy bilimlar ham zarur?

## 12-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari nimadan iborat ekanligini;
- balog‘at yoshiga yetmagan fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarligini;
- huquq va burchlarning uzviy birligini bilib olasiz.

### 1. Huquq va burchlar birligi.

### 2. Qonun oldida hamma tengdir.

### 3. Konstitutsiyaviy burchlarga rioya etmaganlik uchun javobgarlik.

## 1. HUQUQ VA BURCHLAR BIRLIGI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nafaqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy huquqlari, qolaversa, ularning burchlari ham belgilab berilgan.

Ko‘pchilikka ma‘lum bir haqiqat mavjud: **“Xuddi huquqlarsiz burchlar bo‘lmagani kabi burchlarsiz huquqlar ham bo‘lmaydi”**.

Buni hayotning o‘zi tasdiqlaydi. Jamiyatda yashab, o‘ziga o‘xshaganlar bilan muomala qilar ekan, inson mutlaq erkin bo‘la olmaydi, atrofdagi odamlarni inobatga olmasligining iloji ham yo‘q.

Bu prinsip har bir fuqaroga taalluqlidir hamda mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo‘yilgan majburiyatlardan bo‘yin tovlashga hech kim haqli emasligini anglatadi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (11-bob) fuqarolarining quyidagi burchlarini nazarda tutadi:**

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish (48-modda);
- O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash (49-modda);
- atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish (50-modda);
- qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash (51-modda);
- o‘z mamlakatining himoyachisi bo‘lish, harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tash (52-modda).

Ayni mahalda Konstitutsiyada o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda fuqarolar boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari lozimligi alohida ta‘kidlanadi (48-modda).

Konstitutsiyaviy burchlar va qonunlar fuqarolar tomonidan bajarilmagan hollarda ma‘muriy, fuqaroviy yoki jinoiy javobgarlik kuchga kiradi.



### Topshiriq

*Tasavvur qiling, sizning sinfingiz – uncha katta bo‘lmagan jamiyat. Sizningcha, agar uning fuqarolari barcha huquq va erkinliklarga ega bo‘lishsa-yu, ammo ularning biron-bir burchi bo‘lmasa, nima ro‘y beradi?*

## 2. QONUN OLDIDA HAMMA TENGDIR

Qonun oldida yalpi tenglik prinsipi ijtimoiy mavqeyi, egallagan mansabi va hokazolardan qat‘i nazar davlatning barcha fuqarolariga tatbiq etiladi.

Biron-bir fuqaro Konstitutsiya bilan belgilangan burchlardan bo'yin tovlamasligi yoki ozod etilmasligi kerak.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish davlat fuqarolarining eng asosiy burchidir.



### Asosiy qonun belgilaydi

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajardilar.

## O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 47-modda.

### Tarixiy va madaniy merosni avaylab asrash

O'zbekiston xalqlarining tarixiy yodgorliklari, madaniy va ma'naviy merosi butun xalqning milliy boyligidir. Bu milliy boylik asrlar davomida yaratildi va har birimiz ajdodlarimizning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishimiz lozim.

### Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurati Konstitutsiyada (50-modda) va "O'zbekiston Respublikasi tabiatini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topgan bo'lib, ular fuqarolar zimmasiga quyidagi burchlarni yuklaydi:

- tabiat resurslaridan omilkorona foydalanish;
- tabiat boyliklarini asrab-avaylash;
- tabiat obyektlari bilan bog'liq bo'lgan madaniy merosni saqlab qolish.

Bugungi kunda inson hayoti uchun tabiatni yo'q qilish, havo, yer va suvni ifloslantirishdan ko'ra katta xavf-xatar yo'q. Tabiatni qutqarar ekanmiz, biz o'z-o'zimizni halokatdan xalos etamiz.



### Asosiy qonun belgilaydi

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

## O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 49-modda.

## Vatan himoyasi

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Vatan himoyachisi bo‘lish mamlakat har bir fuqarosining burchi, deb e‘lon qilingan (52-modda). 12.12.2002-yildagi (o‘zgartirishlar kiritilgan) “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq o‘z Vatanini himoya qilish burchi fuqarolar tomonidan harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tash yo‘li bilan bajariladi.

Muqobil xizmat odatda xalq xo‘jaligi korxonalarida malaka talab qilinmaydigan ishlarni bajarishga jalb qilishni ko‘zda tutadi.

Ayollar tinch davrda harbiy xizmatga chaqirilmaydi.

O‘zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashab turgan boshqa davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar harbiy xizmatni ado etmaydilar hamda mamlakat o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikdan o‘tmaydilar.

Muddatli harbiy xizmatga salomatligi holatiga ko‘ra harbiy xizmatga yaroqli, chaqiruv kunida 18 yoshga to‘lgan erkaklar chaqiriladi. 1993-yilda 14-yanvar kuni bizning davlatimizda **Vatan himoyachilari kuni** deb e‘lon qilingan.



### Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburlirlar.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 52-modda.**



## Ta'lim olish – voyaga yetmagan fuqarolarning asosiy majburiyati

Voyaga yetmagan mamlakat fuqarolarining asosiy burchlaridan biri umumiy o'rta ta'lim olishdan iborat. Maktabda to'qqiz yillik ta'lim olgandan keyin o'quvchilar akademik litsey, kasb-hunar kollejlari yoki boshqa ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalarida ta'limni davom ettiradilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim ta'lim olish huquqiga ega va har kimning bepul umumiy ta'lim olishi kafolatlanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda 50 dan ortiq oliy o'quv yurti, 1500 dan ortiq o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi, 10 mingga yaqin umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning butun kuch-g'ayrati ta'lim oluvchilar har tomonlama kamol topgan, yuksak umumiy madaniyat saviyasiga ega ijodkor shaxslar bo'lishiga qaratilgan.



### 3. KONSTITUTSIYAVIY MAJBURIYATLARGA RIOYA ETMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga muvofiq, qonunbuzarlik sodir etilgan kunga qadar 16 yoshga to'lgan fuqarolar ma'muriy javobgarlikka tortilishi lozim.

13 yoshdan o'smirlar aybini og'irlashtiruvchi vaziyatlarda qasddan odam o'ldirganlik, 14 yoshdan esa qasddan odam o'ldirish, qasddan o'ta og'ir yoki yengil tan jarohati yetkazganlik, qiynash, nomusga tegish, odam o'g'irlash, bosqinchilik, talonchilik, o'g'rilik, transport vositalarini haydab qochish va boshqa og'ir qonunbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

**Voyaga yetmagan qonunbuzarlarga nisbatan quyidagi jazo turlari qo'llanishi mumkin:**

- jamoatchilik tanbehi;
- yetkazilgan ziyonni bartaraf etish majburiyatini yuklash;
- jarima;
- ozodlikdan mahrum etish.

Voyaga yetmagan qonunbuzarlar jazoni voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan koloniyalarda yoki yopiq turdagi maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida o'taydilar.



### ***Yakunlarni chiqaramiz***

#### **Fuqarolarning burchlari**

- qonun oldida hamma tengdir;
- huquqlar burchlarsiz bo'lmaydi;
- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;
- boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
- O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosi saqlanib qolishi borasida g'amxo'rlik qilish;
- tarix va madaniyat yodgorliklarini avaylab asrash;
- qonun bilan belgilangan soliqlarni to'lash;
- harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash;
- atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.



### ***O'zingizni sinang!***

1. Sizningcha, mamlakat fuqarolari huquq va erkinliklarining ro'yobga chiqarilishi uchun ularning Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi faktining o'ziga yetarlimi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakat fuqarolari uchun belgilangan burchlarni aytib bering.
3. Qanday fikrdasiz, nima uchun huquqlar burchlarsiz bo'lmaydi?
4. Mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etmaganlik uchun voyaga yetmaganlarga qanday ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan?
5. O'zbekistonga boshqa davlatlardan kelib qonun buzgan fuqarolar qaysi qonunlarga ko'ra javob beradilar?



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSI

O‘zbekiston Respublikasining 22.09.1994-yildagi Qonuni bilan tasdiqlangan.  
01.04.1995-yildan kuchga kirgan (14.05.2014-yildagi o‘zgarish bilan)

### **81-modda. Jazo tizimi.**

O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin:

a) jarima; b) axloq tuzatish ishlari; d) qamoq; e) ozodlikdan mahrum qilish.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas.

### **82-modda. Jarima.**

Jarima eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi. Mahkum jarima to‘lashdan olti oy muddat mobaynida bo‘yin tovlasa, sud to‘lanmagan jarima miqdorini axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtiradi. Bunda eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdoridagi jarima axloq tuzatish ishlarining bir oyiga tenglashtirib hisoblanadi.

### **83-modda. Axloq tuzatish ishlari.**

Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o‘z ish joyida o‘tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi.

### **84-modda. Qamoq.**

Qamoq bir oydan uch oygacha muddatga tayinlanadi.

### **85-modda. Ozodlikdan mahrum qilish.**

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi, ushbu Kodeks 86-moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan: b) og‘ir jinoyat uchun – olti yilgacha; d) o‘ta og‘ir jinoyat uchun – o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan: a) og‘ir jinoyat uchun – yetti yilgacha; b) o‘ta og‘ir jinoyat uchun – o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi.

## III bo'lim

## JAMIYAT VA SHAXS

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatları, huquqları va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

**O'zbekiston Respublikasining  
Konstitutsiyasi, 20-modda.**

### 13-§. JAMOAT BIRLASHMALARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI

#### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- demokratik davlatdagi mafkuraviy va siyosiy qarashlar xilma-xilligini;
- demokratiyaning tarkib toptiruvchi qismi sifatida jamoat birlashmalarining faoliyatini;
- ommaviy axborot vositalarining faoliyat prinsiplarini bilib olasiz.

#### **1. Jamoat birlashmalari nima uchun kerak?**

#### **2. Jamoat birlashmalarini tuzish va faoliyatini yuritish prinsiplari.**

#### **3. Ommaviy axborot vositalari.**

#### **1. JAMOAT BIRLASHMALARI NIMA UCHUN KERAK?**

Jamoat birlashmalari – bu, o'z manfaatları va istakları, o'z qobiliyatları va iqtidorlarini namoyish qilish imkoniyatidan kelib chiqqan holda turli guruhlarğa birlashish yo'li bilan jamoat hayotida ishtirok etish uchun mam-lakat aholisi birlashmalarining amalda paydo bo'lishi.

*Sizningcha, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari dav-latga nima uchun kerak? Kishilarning turli guruhlari, partiyalar va omma-viy harakatlarning jamiyat hayotidagi ishtiroki qanchalik muhim?*



## 1-topshiriq

*O‘zbekiston Respublikasidagi qaysi jamoat birlashmalari faoliyati to‘g‘risida eshitganingizni, gazetalarda o‘qiganingizni eslang.*

**Jamoat birlashmalari** mushtarak manfaat asosida fuqarolarning o‘z xohishlari natijasida vujudga kelgan tuzilmadir.

Jamoat birlashmalari quyidagi shakllarda bo‘ladi: jamoat tashkilotlari, ommaviy harakatlar, jamoat jamg‘armalari va boshqa nohukumat muassasalar.

O‘zbekiston Respublikasida shunday jamoat tashkilotlari bor, jumladan, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Sog‘lom avlod uchun” Xalqaro jamg‘armasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi, “Nuroniylar faxriylar Kengashi, “Mahalla” jamg‘armasi va boshqalar.



## 2-topshiriq

*Jadvalni to‘ldiring.*

| <b>Jamoat birlashmalarining turlari</b> | <b>Nomi</b> |
|-----------------------------------------|-------------|
| Kasaba uyushmalari                      |             |
| Siyosiy partiyalar                      |             |
| Faxriylar tashkiloti                    |             |
| Ijodiy uyushmalar                       |             |
| Jamoatchilik xayriya jamg‘armalari      |             |
| Ayollar, yoshlar, bolalar tashkilotlari |             |



## Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 34-moddadan.**



## Asosiy qonun belgilaydi


O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 56-modda.**

## 2. JAMOAT BIRLASHMALARINI TUZISH VA FAOLIYATINI YURITISH PRINSIPLARI

Davlat tashkilotlari bilan bir qatorda mamlakatning mehnat qilayotgan aholisi huquqlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmalari yurtimizdagi eng ommaviy jamoat birlashmalari hisoblanadi. Bugungi kunda kasaba uyushmalari tashkilotlari davlat boshqaruv organlaridan mustaqildirlar hamda faqat xodimlar va jamoa manfaatlar uchun faoliyat ko'rsatadilar.

8-sxema.



## Asosiy qonun belgilaydi

Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 59-modda.**

Davlat bilan jamoat birlashmalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qonun hujjatlari bilan quyidagi prinsiplar belgilangan:

| <b>Davlat</b>                                                                                                                                          | <b>Jamoat birlashmalari</b>                                                                                                                                               |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Jamoat birlashmalarining huquq va qonuniy manfaatlari rioya qilinishini ta'minlaydi.                                                                   | Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatlariga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.                                                                                      |
| Konstitutsiyaga muvofiq bo'lgan, ularning ustavida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishi uchun sharoit yaratib berilishini kafolatlaydi.              | Jamoat birlashmalarining tadbirlari, asosan, ishtirokchilarning ish vaqtidan tashqari paytda shu birlashmaning mablag'lari hisobidan o'tkaziladi.                         |
| Qonunda ko'zda tutilgan hollardan tashqari davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. | Jamoat birlashmalari manfaatiga taalluqli masalalar davlat organlari tomonidan tegishli jamoatchilik birlashmasi ishtirokida yoki ular bilan kelishilgan holda yechiladi. |

Barcha jamoat birlashmalari o'z ustavlari asosida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari doirasida ish ko'radilar.

Mafkuraviy plyuralizmning muhim qoidalaridan biri dunyoviy xarakterni davlatimiz tomonidan e'tirof etilishidir. Bu narsa biron-bir din davlat dini yoki majburiy diniy e'tiqod sifatida o'rnatila olinmasligini, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganini va ular qonun oldida teng ekanligini anglatadi.

Ayni mahalda davlat jamoat birlashmalari qaysi maqsadlarda ish ko'rayotganiga ham befarq emas.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan

birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 57-moddadan.**

### 3. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga (67-modda) va O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq har bir fuqaroga so‘z erkinligi: radio orqali, matbuotda, televideniya va boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri va e‘tiqodini oshkora bayon etish huquqi beriladi.



#### Asosiy qonun belgilaydi

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 67-moddadan.**

#### Yodda tuting!

**Senzura** – mafkura jihatdan zararli hisoblangan maqolalarni taqiqlash maqsadida gazetalar, jurnallar va boshqa nashrlarning chop etish oldidan ko‘zdan kechirilishi.

Har kim haqida uning roziligrisiz axborot yig'ish, saqlash va foydalalanish taqiqlangan. Faqat qonunda belgilangan hollar bundan mustasnodir.

Agar ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri bo'lgan, shuningdek, inson qadr-qimmati va obro'sini tahqirlovchi ma'lumotlar e'lon qilingan bo'lsa, u holda ana shu ma'lumotlarni chop etgan nashrda bunday ma'lumotlar uchun raddiya berishga haqlidir.



### 3-topshiriq

*Sizningcha, odamlar o'zlari xohlagan hamma narsalarni e'lon qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakmi? Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim va e'lon qilinmasligi shart bo'lgan narsalar ro'yxatini tuzing.*

O'z faoliyatida odamlarni uning xatti-harakatlariga qarshi yo'naltirgan ba'zi bir gazetalarni hukumat ma'lum vaqt yopib qo'yadi.

*Sizningcha, bu inson huquqlari buzilishimi? Kelajakda davlat boshlig'i o'rnida bo'lib qolsangiz, qanday ish tutgan bo'lardingiz?*

Jamiyat va har bir odamning axborot olishi – iqtisodiy va ma'naviy yuksalish garovidir. Ammo soxtalashtirilgan, jamoatchilik fikri shakllanmasligi uchun axborot tarqatish davlat yoki bir guruh shaxslarning monopoliyasi bo'lib qolmasligi lozim.

Demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy shartlaridan biri – matbuot va axborot erkinligidir. Ammo so'z va matbuot erkinligi mutlaq bo'la olmaydi. Chunki televizor ekranida yangragan, gazetada e'lon qilingan axborotni millionlab odamlar eshitadi, o'qiydi. Agar ma'lum bir shaxs, korxona, ishlab chiqarish tarmog'i haqida yanglish ma'lumotlar aytilsa, bu bilan ularning nufuziga putur yetkaziladi, huquqlari buziladi. Bo'hton ma'lumotlar, zo'ravonlik xatti-harakatlariga davat etish va boshqa xatti-harakatlar uchun ularni e'lon qilgan ommaviy axborot vositalari amaldagi qonunga muvofiq sud javobgarligiga tortiladi.



### 4-topshiriq

*Sizningcha, mustaqil matbuot mavjud bo'la oladimi?*

*Gazetalardan qaysilarini muntazam o'qib borasiz?*

*Diqqatingizni jalb etishi va uni muntazam o'qib borishingiz uchun, sizningcha, gazeta qanday bo'lishi lozim?*

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq quyidagi hollarda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi:

- mavjud tuzumni, O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni da‘vat etish maqsadida bo‘lsa;
- urush va zo‘ravonlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni tashviq qilish maqsadida bo‘lsa;
- davlat sirlarini oshkor qilish maqsadida bo‘lsa.

Shuningdek, tergov va prokuratura organlarining ruxsatisiz dastlabki tergov materiallarini e‘lon qilish ham taqiqlanadi.



### ***Yakunlarni chiqaramiz***

**Jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari**

- maqsad – ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish;
- jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar;
- xayriya jamg‘armalari;
- kasaba uyushmalari;
- ro‘yxatdan o‘tish majburiydir;
- ixtiyoriylik;
- siyosiy plyuralizm;
- OAV – senzura yo‘l qo‘yilmaydi;
- bo‘hton uchun – sud javobgarligi;
- axborot olish – yuksalish garovi;
- “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun (15.01.2007-yildagi yangi tahriri).



### ***O‘zingizni sinang!***

1. Jamoat birlashmalarining davlat organlaridan asosiy farqlarini ayting.
2. O‘zbekiston Respublikasida mavjud jamoat birlashmalari turlari nomlarini sanang.
3. Jamoat birlashmalari qaysi prinsiplarda tuziladi va faoliyat ko‘rsatadi?
4. Davlat va jamoat birlashmalarining o‘zaro aloqalari qay tarzda amalga oshiriladi?
5. O‘zbekiston Respublikasida qanday partiyalar va jamoat birlashmalarini tashkil etish taqiqlanadi?

6. So'z va matbuot erkinligi qay tarzda jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?
7. Qanday axborot vositalarini mustaqil deb hisoblash mumkin?
8. Gapni davom ettiring: "Men gazeta o'qimayman, chunki ...".

## 14-§. SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATI

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- demokratik huquqiy davlatda partiyalar faoliyatining ahamiyati haqida;
- O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faoliyati va ularning dasturlari haqida bilib olasiz.

### **1. Fuqarolarning davlatni boshqarishdagi ishtiroki.**

### **2. O'zbekiston Respublikasida ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi.**

## 1. FUQAROLARNING DAVLATNI BOSHQARISHDAGI ISHTIROKI

Kishilar hayotida turli-tuman muammolar mavjuddir. Ana shu muammolardan ayrimlarini odamning o'zi, boshqalarni esa faqatgina o'zgalar bilan uyushgan holda hal etish mumkin. Masalan, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar – tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish, kredit olish, soliqqa tortish, tashqi bozorga chiqish muammolarini hal qilish uchun tadbirkorlar uyushmasi tuziladi. Shuningdek, boshqa guruhlar: pensionerlar, imkoniyati cheklanganlar, yoshlar, o'qituvchilar, shifokorlar va hokazolar ham o'z muammolarini hal qilish maqsadida uyushadilar.



### **1-topshiriq**

*To'rt guruhga bo'lining.*

*Sizning guruhingiz eng uyushgan va jipslashgan ekanligini, shuning uchun ham uning vakillari qonun chiqaruvchi organ deputatlari orasida ko'pchilikka ega bo'lishi kerakligini isbotlashga harakat qilib ko'ring.*

Mana, demokratik jamiyat davlat hokimiyati organlarida ana shu guruhlardan faqat bittasining vakillari bo'lishining imkoni yo'qligiga o'zingiz ham ishonch hosil qildingiz.

Ana shu guruhlardan har birining manfaatlari ifoda etilishi va himoyalinishiga qay yo'sinda erishish mumkin?



## 2-topshiriq

*Olti guruhga bo‘lining: ikki guruh siyosiy partiyalarni, qolganlari esa pensionerlar, yoshlar, fermerlar va ayollar birlashmalari vakillarini ifodalasin.*

**Siyosiy partiyalarning vakillari** dasturlar ishlab chiqib, ularda yuqorida aytib o‘tilgan guruhlar manfaatlarini inobatga olgan holda o‘z maqsad va vazifalarini belgilaydilar hamda qo‘llab-quvvatlashlariga erishish uchun ular o‘rtasida targ‘ibot ishlarini yuritadilar.

**Pensionerlar, yoshlar, fermerlar va ayollar guruhlari** o‘zlariga xos bo‘lgan muammolarni aniqlaydilar.

Targ‘ibot ishlari davomida ana shu partiyalardan qaysi birini afzal ko‘rishlari aniqlanishi lozim.

## 2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO‘PPARTIYAVIYLIK TIZIMINING SHAKLLANISHI

Siyosiy partiyalar tuzish va ularning ishida ishtirok etish fuqarolarning muhim siyosiy huquqlaridan biri sanaladi. Xo‘sh, siyosiy partiyaning o‘zi nima?



### Yodda tuting!

**Siyosiy partiya** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasi.

**O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1-modda.**

Tarixning borishi yakkipartiyaviylik tizimi davlatda diktatura o‘rnatilishiga olib kelishini tasdiqladi. Ko‘ppartiyaviylik tizimi esa fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarni tanlab olishga va jamiyatni rivojlantirish borasidagi u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi.





## Asosiy qonun belgilaydi

Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

### O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 60-moddadan.

Har bir fuqaroda o'zining fikricha uning manfaatlarini ifodalaydigan, mamlakat taraqqiyotiga imkon yaratib beradigan partiyadan nomzodni tanlab olishi uchun demokratik huquqiy davlatda kamida ikkita partiya bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida to'rtta siyosiy partiya va O'zbekiston Ekologik harakati vakillari ishtirok etmoqda. Ular qonunchilikni shakllantirish va iqtisod, madaniyat va ijtimoiy sohalarda davlat siyosatini yuritishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.



| Partiyaning nomi                                                                              | Ro'yxatdan o'tgan sanasi | Maqsadi                                                                                                                                                      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP)                                                   | 1991-yil 1-noyabr        | Ijtimoiy adolat, mamlakat taraqqiyoti va ma'naviy yangilani-shini ta'minlash                                                                                 |
| “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi                                                         | 1995-yil 18-fevral       | Huquqiy demokratik davlat barpo etish, ijtimoiy adolat o'rnatish                                                                                             |
| Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik (O'zLiDeP) partiyasi | 2003-yil 3-dekabr        | O'rta sinf, kichik biznes namoyandalari, ishbilarmon kishilar, ishlab chiqarish va boshqaruvning yuqori malakali mutaxassislarining manfaatlarini himoyalash |
| O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi                                           | 2008-yil 11-avgust       | Davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklanishi                                                                                                 |
| O'zbekiston Ekologik harakati                                                                 | 2008-yil 20-sentabr      | Atrof-muhitni muhofaza qilishda jamoatchilik faolligini har tomonlama oshirish                                                                               |



### ***Yakunlarni chiqaramiz***

#### **Siyosiy partiyalar faoliyati**

- maqsad – ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilish;
- fikrlarning siyosiy va mafkuraviy rang-barangligi;
- ko'ppartiyaviylik – fikrlar xilma-xilligi;
- partiya – davlat hokimiyatini shakllantiradi, o'z vakillari orqali davlatni boshqaradi;
- “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonun (26.12.1996-y., o'zgartirishlar kiritilgan);
- “Davlat boshqaruvini yangilash va demokratlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun (1.01.2008-y.)



## **O'zingizni sinang!**

1. Kishilar qanday maqsadlarda siyosiy partiyalarga va harakatlarga uyushadilar?
2. Ko'ppartiyaviylikning mavjudligi mamlakatda demokratiya rivojlanishiga qay tariqa ijobiy ta'sir o'tkazadi?
3. Davlat Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida qanday partiyalar tuzilishi taqiqlangan?
4. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalarni sanab bering.

## **15-§. OILA JAMIYATNING BUGUNI VA KELAJAGI NEGIZIDIR**

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- oilaning jamiyat va jamiyatning oilaga nisbatan asosiy huquqlari va majburiyatlari haqida;
- nikoh shartlari haqida;
- er-xotinlarning huquq va majburiyatlari haqida;
- farzandlarning huquqlari haqida bilib olasiz.

1. Oila va jamiyat.
2. Oila davlat himoyasida.
3. Nikohdan o'tish shartlari.
4. Bola huquqlari.

### **1. OILA VA JAMIYAT**

Jamiyatda oilaning roli shunchalik ahamiyatliki, u adolatli tarzda har qanday jamiyatning negizi sifatida ko'rib chiqiladi. Chunki oila ijtimoiy hayotning alohida sohasini o'zida mujassam etgan bo'lib, unda kelajakda jamiyatda yashashi va davlatning fuqarosiga aylanishi kerak bo'lgan shaxsning dunyoga kelishi, oyoqqa turishi va shakllanishi jarayonlari kechadi.

Jamiyatning ahvoli ham, o'z navbatida, inson oilada qanday tarbiya olganligiga, bu dargohdan qanday ma'naviy e'tiqodni qalbiga singdira bilganligiga, shaxs oilada kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar qanchalik maqbul ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shu boisdan oilani muhofaza qilishga istalgan jamiyatda, har qanday davlatda alohida e'tibor beriladi.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

#### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 63-moddadan.**

**Oilaviy munosabatlar sohasidagi konstitutsiyaviy prinsiplar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

- ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi;
- nikoh erkinligi, turmush o'rtog'ini tanlash erkinligi;
- nikohlangan shaxslarning teng huquqligi;
- ota-onalarining kelib chiqishi va fuqarolik mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida farzandlar huquqlarining tengligi;
- yetim bolalar va ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar parvarishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishining kafolatlanganligi;
- onalik va bolalik muhofazasi.

Davlatimizda oila, onalik va bolalikning konstitutsiyaviy muhofazasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarga mos keladi.

Qonunlar bilan ona va bola manfaatlarining muhofazasi ta'minlanadi.

**Konstitutsiyaga muvofiq davlat quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**

- oilani muhofaza qilish;
- yetim bolalar va ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar parvarishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlash;
- yetim bolalar va ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan xayriya faoliyatini rag'batlantirish.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

#### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 64-modda.**

## 2. OILA DAVLAT MUHOFAZASIDA

Oila muhofazasi davlatda turli qonunlarni qabul qilish, shuningdek, jamoat jamg'armalari va tashkilotlari tomonidan ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash tariqasida amalga oshiriladi. Binobarin, mustaqillik yillarida respublikada "Bolalar jamg'armasi", "Mahalla", "Ekosan", milliy "Qizil Yarim oy jamiyati" singari ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga, bolalarga, yolg'iz qariyalarga va hokazolarga imkoni boricha madad berayotgan jamoat jamg'armalari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 1993-yil 7-mayda mamlakatda birinchi orden – **"Sog'lom avlod uchun"** ordeni ta'sis etildi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilishda, sog'lom avlod kamol topishi uchun moddiy shart-sharoitlar va ma'naviy muhitni ta'minlashda alohida xizmatlar ko'rsatgan shaxslar "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlanadilar.



## 3. NIKOH TUZISH SHARTLARI

Nikoh tuzish uchun kuyov va kelinning ixtiyoriy roziligi zarur, shuningdek, ular muayyan yoshga to'lgan bo'lishi shart (qizlar – 17 yoshdan, yigitlar – 18 yoshdan).

Ixtiyoriy rozilik nikoh tuzish masalasi hal etilayotganda uchinchi shaxslarning tazyiqi bo'lmasligi kerakligini anglatadi. Uchinchi shaxslar, shu jumladan, ota-onalar tomonidan nikohlanishga to'sqinlik jinoiy jazolanadigan harakatga aylanishi mumkin. Qarindosh-urug'lar maslahatlar berishlari, nikoh to'yiga tayyorlanishga yordam ko'rsatishlari, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari mumkin.



### 1-topshiriq

*Sizningcha, nikoh tuzish yoshi nega qizlar uchun 17 yoshdan, yigitlar uchun esa 18 yoshdan belgilangan? O'z javobingizni asoslab bering.*

Muqaddam qayd etilgan nikoh, nikoh tuzish taqiqlanishi shartlaridan biri hisoblanadi. Qonunga muvofiq sog'lom va ruhiy kasal yoki aqlan zaif kishi o'rtasidagi hamda qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Er-xotinlar, shuningdek, o'zlarining voyaga yetmagan bolalari tarbiyasi uchun, ularning ishlari va qilmishlari uchun javobgar bo'ladilar.

O'z navbatida farzandlar ham o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari, ularga yordam berishlari, qo'llab-quvvatlashlari lozim. Balog'at yoshiga qadar bu majburiyat ma'naviy tavsifda bo'lib, ular 18 yoshga to'lganlaridan keyin esa yuridik kuch kasb etadi.



### Asosiy qonun belgilaydi


Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 66-modda.**

## 4. FARZANDLARNING HUQUQLARI

Farzandlarning huquqlari "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" (1989-y.) kabi nufuzli xalqaro hujjatda va O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida (2008-y.) mustahkamlab qo'yilgan. Unga muvofiq inson tug'ilganidan to 18 yoshga qadar bola hisoblanadi va quyidagilarga haqlidir:

- yashashga, aqlan va jismonan rivojlanishga;
- ismi va fuqaroligi bo'lishiga;
- oilada tarbiyalanishga;
- fikr, vijdon va diniy e'tiqod erkinligiga;
- ta'lim olishga;
- zo'ravonliksiz hayotga, shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilinishiga va boshqalar.



### **Fikrlash uchun savollar:**

1. Nima deb hisoblaysiz, qadimgi grek olimi Aristotel: “Platon menga do‘st, lekin haqiqat ulug‘dir”, degan iborani aytganda nimani nazarda tutgan? Bu iborani mehnat munosabatiga qaysi hollarda qo‘llash mumkin?

2. Shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy shunday degan: “Agar sen inson bo‘lsang, xalq ehtiyoji to‘g‘risida bosh qotirmaydiganni inson deb atamagin”. Bunday ta‘kidga qo‘shilasizmi? Javobingizni asoslang.

3. Qadimgi Rim faylasufi Seneka shunday degan edi: “Barcha g‘alabalar o‘z u stingdan g‘alaba qozonishdan boshlanadi. Bu eng oliy hokimiyat. O‘z ehtiroslarining quliga aylanish – eng qo‘rqinchli qullikdir”. Ushbu gaplarni mehnatga, ta‘limga yoki boshqa biror mashg‘ulotga nisbatan izohlashga urinib ko‘ring. Siz mazkur fikrlarga qo‘shilasizmi? Agar tasdiqlasangiz, nima uchun?

4. O‘zbek maqolida aytiladi: “Mehnat – g‘alaba, shon-shuhrat va boylik kaliti”. Siz bunday ta‘kidga qo‘shilasizmi? Siz taniqli va badavlat bo‘lishning boshqa qonuniy yo‘lini taklif qila olasizmi?

5. Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari” asarida shunday ta‘kidlaydi: “Agar davlat qonunlarga tayanmasa, u o‘zining shon-shuhrati va buyukligini uzoq vaqt saqlay olmaydi”. Siz bunday fikrga qo‘shilasizmi? Agar qo‘shilasangiz, u holda nima uchun?

6. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino yozgan: “Bekorchilik va maishatparastlik nafaqat odobsizlikni tug‘diradi, ular bir vaqtda bemorlikka ham sabab bo‘ladi”. Bunday ta’kidning ma’nosini tushuntirib bering.



## 2-topshiriq

1. Sizningcha, davlat oilaviy munosabatlarni tartibga solib turishi kerakmi? Balki, bu narsa har kimning shaxsiy ishidir?
2. Ota-onalar ajrashayotganida, Sizning nazaringizda, voyaga yetmagan farzand kim bilan: onasi yoki otasi bilan qolishi kerak?
3. Oilada ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda qanday tipik muammolar vujudga keladi? Nega bu hol ro‘y beradi?



## Yakunlarni chiqaramiz

### Oila – jamiyat asosi

- shaxs kamoloti – oilada;
- ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi;
- oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi;
- “Sog‘lom avlod uchun” ordeni;
- nikoh: 17 yoshdan – qizlar, 18 yoshdan – yigitlar;
- nikoh erkinligi;
- farzandlar tarbiyasi borasida er-xotinlarning teng javobgarligi;
- ota-onalik huquqlaridan mahrum etish;
- voyaga yetgan bolalarning kekxa ota-onalar haqida g‘amxo‘rligi;
- Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (1989-y.);
- “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008-y.).



## O‘zingizni sinang!

1. Nima uchun konstitutsiyaviy huquq normalari bilan oila jamiyatning negizi deb e’tirof etiladi?
2. Oila-nikoh munosabatlarining huquqiy asoslarini sanab bering.
3. Ota-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlarini sanang.
4. Qaysi hollarda nikoh qayd etilmasligi mumkin?

## 16-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA’MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT TUZILISHI

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- mavjud davlat tuzilishi shakllari, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida;
- O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi haqida bilib olasiz.

### **1. Davlat tuzilishi shakllari.**

### **2. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi.**

### **3. Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat tuzilishi.**

## 1. DAVLAT TUZILISHI SHAKLLARI

Har qanday davlatning asosiy suverenlik belgisi uning aholisi yashab turgan hududning mavjud ekanligidir. Bilasizki, davlatning qonunlari har kimga tatbiq etiladi va har bir inson hayotining ko‘pgina tomonlarini tartibga solib turadi. Biroq davlat hududining har bir qismida – qishloqda, shaharda, tumanda va hokazolarda markaziy hokimiyat organlari hal qilishi mushkul bo‘lgan kundalik muammolar vujudga keladi. Shuning uchun ham davlat hokimiyatini vakolatlarining muayyan qismi markaziy hokimiyat organlaridan mahalliy hokimiyat organlariga beriladigan bir tarzda taqsimlashga zaruriyat tug‘iladi.

**Davlat tuzilishi shakli** – hokimiyatlarning markaziy hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlarini belgilab beruvchi siyosiy va hududiy jihatdan tashkil etilishidir.

### **Davlat tuzilishi shakli quyidagilarni namoyon etadi:**

- davlat hududi necha qismga va qay tarzda bo‘linganligini;
- mahalliy va markaziy hokimiyat organlari o‘rtasidagi munosabatlar qay tarzda amalga oshirilishini;
- ayni shu davlat hududida yashab turgan har bir millatning manfaatlari qay tariqa muhofazalanishini.

Jahondagi aksariyat mamlakatlar davlat tuzilishining **unitar** shakliga egadir. Bu holda davlat hududi ma’muriy hududlarga (viloyatlar, tumanlar

va hokazolarga), ya'ni davlatchilikka ega emas, balki boshqaruv qulayligi uchun mavjud bo'lgan qismlarga taqsimlanadi.

Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Shvetsiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Yaponiya, Finlandiya, Misr, O'zbekiston va boshqalar unitar davlatlar jumlasiga kiradi.



**Yodda tuting!**

**Unitar davlat** – yagona davlat bo'lib, uning alohida ma'muriy-hududiy birliklari bir xildagi huquqlarga ega, butun davlat hududida yagona konstitutsiya, yagona hukumat va yagona qonun hujjatlari amal qiladi.

Davlat tuzilishining boshqa bir shakli **federatsiyadir**. Federatsiya subyektlari o'z konstitutsiyasiga, o'z oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi. Butun federatsiya uchun yagona hokimiyat va boshqaruv oliy organlari tashkil etiladi. Binobarin, AQSH, Kanada, Braziliya, Meksika, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Pokiston, Argentina, Rossiya va boshqalar federativ davlatdir.

Davlat tuzilishining yana bir shakli – **konfederatsiya** shakli ham mavjuddir. Bunday birlashuvda har qaysi davlat o'z suverenitetini, o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi, har bir davlat xalqaro aloqalarni mustaqil o'rnatadi. Keyingi paytlarda Yevropa Ittifoqi konfederativ birlashuvga misol bo'la oladi.



**Yodda tuting!**

**Federatsiya** – federatsiya subyekti bo'lgan bir necha davlatlar birlashmasi ko'rinishidagi ittifoqdosh davlat.

**Konfederatsiya** – muayyan maqsadlarga erishish (mamlakatlarning birgalikdagi mudofaasi, bojxona ishlarini, tashqi savdo aloqalarini tashkillashtirish va hokazo) uchun birlashgan suveren davlatlarning muvaqqat ittifoqi.





## 1-topshiriq

*Uch guruhga bo'linib, davlat tuzilishi har xil shakllarining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga urinib ko'ring.*

## 2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

Konstitutsiyaga muvofiq (68-modda) O'zbekiston Respublikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, 168 ta tuman, 119 ta shahar, 1065 ta shaharcha bor.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining o'ziga xosligi uning tarkibida tumanlar, shaharlar, shaharchalar va ovullardan tashkil topgan suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining mavjud ekanligidir.

Davlatimizning ma'muriy-hududiy tuzilishi mamlakatni yaxshiroq boshqarishga, yuzaga keluvchi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etishga imkon beradi.



## 2-topshiriq

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1–6-moddalari bilan tanishib chiqib, O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetiga ishora qiluvchi alomatlarning mavjud ekanligini aniqlang.*

## 3. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TUZILISHI

Qoraqalpog'iston Respublikasi ham o'z taraqqiyot va davlatchilik shakllanishi tarixiga egadir.

**1990-yil 14-dekabrda** Qoraqalpog'iston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidagi davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiyani qabul qilgan.

**1993-yil 9-aprelda** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ustunligini e'tirof etgan Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ko'p o'tmay davlat ramzlari – gerb, bayroq, madhiyasi qabul qilindi.

Shunday qilib, Qoraqalpog'iston fuqarolari ayni mahalda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi hamda uning muhofazasidadir.



Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻz maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal etadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻzining Oʻzbekiston Respublikasining Asosiy qonuniga zid boʻlmagan Konstitutsiyaga ega dir. Oʻzbekiston qonunlari Qoraqalpogʻiston hududida ham qoʻllanilishi majburiydir.



### Asosiy qonun belgilaydi

Oʻzbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpogʻiston Respublikasining oʻzaro munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasi va Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

Oʻzbekiston Respublikasi va Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻrtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

### Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 75-modda.

Oʻzbekiston Respublikasiga unitar davlat tuzilishi alomatlari bilan bir qatorda **federativ tuzilishning ayrim elementlari** ham xosdir:

- Oʻzbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpogʻiston Respublikasining mavjudligi;
- ikkita – Oʻzbekiston Respublikasi va Qoraqalpogʻiston Respublikasi konstitutsiyalarining mavjudligi;
- Qoraqalpogʻiston Respublikasining alohidalashtirilgan davlat organlari: parlament (Joʻqorgʻi Kenges), sud organlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari va hokazolarning mavjudligi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasida davlat ramzlari: gerb, bayroq, madhiyaning mavjudligi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘z hududiy-ma‘muriy tuzilishi masalalarini mustaqil hal etish huquqiga egaligi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan ajralib chiqish huquqiga egaligi.



### 3-topshiriq

Yaxshi bilasizki, har qaysi davlatning hududi o‘z chegaralariga va har bir davlat olib kelinayotgan, olib ketilayotgan tovarlar, valuta va hokazolar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi o‘z bojxona punktlariga egadir.

*Ana shu bojxona punktlariga nisbatan o‘z munosabatingizni aniqlang (“ma’qullayman” yoki “qarshiman”).*



### Yakunlarni chiqaramiz

Davlat tuzilishi shakllari

- unitar;
- federatsiya;
- konfederatsiya.



### O‘zingizni sinang!

1. Suveren davlat qaysi alomatlariga ega? Suveren davlat alomatlaridan qaysi birini eng muhimi sifatida ta’riflash mumkin?
2. Davlat tuzilishining u yoki bu shakli nimaga bog‘liq bo‘ladi?
3. Davlat tuzilishi unitar shaklining federativ shaklidan farqi nimada?
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi suvereniteti alomatlarini sanang.

## 17-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- O‘zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyati tizimi haqida;
- O‘zbekistonda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari haqida;

– qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining bo‘linish prinsiplari haqida bilib olasiz.

1. **Hokimiyatsiz jamiyat bo‘lishi mumkinmi?**
2. **O‘zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyati tizimi.**
3. **Hokimiyatning bo‘linish prinsiplari.**

## 1. HOKIMIYATSIZ JAMIYAT BO‘LISHI MUMKINMI?

Hokimiyat bo‘lmagan jamiyatni tasavvur qilish qiyin, albatta. Jamiyat taraqqiyoti tarixidan olingan misollarda (Qadimgi Rim, Buyuk Karl imperiyasi va hokazolar) hokimiyat bo‘lmaganda jamiyat ichki ziddiyatlar va hokimiyat uchun kurash yuki ostida nest-nobud bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘p asrlar davomida insoniyat ideal davlat barpo etish uchun “baxt-saodat formulasi”ni behudaga izladi.

Sharq o‘rta asrlar mutafakkirlaridan **Abu Nasr al-Forobiy** davlat, davlatni boshqarish shakllari, davlatning vazifalari va boshqa shu singari tushunchalarga ta‘rif bergan. **Abu Ali ibn Sino** esa ijtimoiy adolat va tartibotni ta‘minlagan odil hukmdor hukmronlik qilgan davlatni mukammal davlat deb hisoblagan. Shuning barobarida, u davlatning har bir fuqarosi foydali mehnat bilan shug‘ullanishi lozim, deya ta‘kidlaydi.

Mustaqillik e‘lon qilinishi bilan O‘zbekistonda o‘z yangilanish va jamiyat taraqqiyot yo‘lini tanlab olish imkoniyati vujudga keldi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning nazariy asoslari mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov asarlarida bayon etilgan.

**O‘zbekistonning o‘z yangilanish va taraqqiyot yo‘li to‘rt prinsipga asoslanadi:**

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- inson o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Yalpi murosqa qaror topmaguniga qadar kishilar va jamiyat munosabatlarini tartibga solib turuvchi kuch kerak bo‘ladi. Bugungi kunda ana shunday kuch aholi turli-tuman tabaqalari va guruhlarining bir-biriga mos

kelmaydigan manfaatlarini kelishtirishga da'vat etilgan qonuniy hokimiyat hisoblanadi.



### 1-topshiriq

1. “Hokimiyat” soʻzini eshitganda Sizda qanday tasavvur paydo boʻladi: hokimiyat vakillarining tajovuzkorona xatti-harakatlarimi yoki fuqarolar manfaatlarini muhofaza etishga qaratilgan xatti-harakatlarimi?

2. Hokimiyat tushunchasini tavsiflovchi alomatlarini sanashga urinib koʻring. Jumlani davom ettiring: Hokimiyat – bu... Basharti, men cheklanmagan hokimiyatni qoʻlga kiritganimda...

3. Hukumatning qandaydir qarorini bajarish yuzasidan ota-onangiz yoki yaqin qarindoshingiz faoliyatini eslang.

4. Ana shu qarorlar oilangiz va shaxsan Sizning keyingi taqdiringizga qanday ta'sir o'tkazdi?

## 2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMI

Demokratik jamiyatda qonun zaminida ish koʻruvchi hokimiyatning obroʻyi baland boʻladi va kishilar bunday hokimiyatga jazo tahlikasidan emas, balki uning xatti-harakatlarini ma'qullaganliklari tufayli bo'y-sunadilar.

**Hokimiyat** – kishilarning xulq-atvoriga, ularning xatti-harakatlariga va odatlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatidir. Hokimiyat konstruktiv (yaratuvchi) tabiatga ega bo'lishi, shu kabi talafotga olib keluvchi oqibatlariga ega bo'lishi ham, mamlakat aholisi ko'pchiligining manfaatlari yo'lida ham, xuddi shu singari, bajarilmas va'dalarni ro'kach qilgan holda ularning manfaatlariga zid o'laroq amalga oshirilishi ham mumkin.

## 3. HOKIMIYATNING BO'LINISH PRINSIPI

Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, sud hokimiyati organlari davlat hokimiyatini amalga oshiradilar.

Jamiyat va davlat hokimiyat organlari o'zaro hamkorlik qila turib bir-biriga ta'sir o'tkazadilar. Davlat hokimiyati organlari jamiyatda tartibotni ta'minlaydilar va kishilarni birlashtiruvchi g'oyalar ishlab chiqadilar.



Har bir hokimiyat organining vakolatlari hokimiyat vakolatlari doirasidan chetga chiqish, uni suiiste'mol qilish va davlat hokimiyatining boshqa organlari faoliyat sohasiga aralashishning oldini olish maqsadida nihoyatda aniq-raso belgilab beriladi.

Hokimiyatning davlat organlari faoliyatida eng muhimi, bu **hokimiyatning bo'linish prinsipini** amalga oshirishdir. Bu shuni anglatadiki, qonunchilik, ijro va sud hokimiyati o'z faoliyatlarini mustaqil, bir-birlariga xalal bermasdan amalga oshiradi.



## 2-topshiriq

*Fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga munosabati masalasi yuzasidan o'z nuqtayi nazarinigizni aniqlang.*

### Aholining xulq-atvori quyidagilarga asoslanadi:

- hokimiyatdan qo'rquviga;
- hokimiyatning adolatli va qonuniy xatti-harakatlariga ishonuviga;
- hokimiyat organlariga bo'ysunish odatiga.

*O'z javobingiz variantini taklif qiling.*



## 3-topshiriq

*Sizningcha, hokimiyat tepasida turgan qaysi odam – aqlli, saxovatpesha, qattiq-qo'l bo'lgan odam xalqqa ko'proq foyda keltiradi?*



## Yakunlarni chiqaramiz

### Davlat organlari hokimiyati tizimi

- davlat hokimiyati – kishilar va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi kuch;
- hokimiyat – yaratuvchi yoki buzg'unchi harakatlar;
- Oliy Majlis – Qonunchilik palatasi va Senat;
- hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi.



## ***O'zingizni sinang!***

1. Demokratik-huquqiy davlat barpo etish jarayonida nima uchun hokimiyatlar bo'linishi prinsipidan foydalanilishi kerak?
2. O'zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi qay tarzda ro'yobga chiqarilgan?
3. Qonunchilik tashabbusiga ega bo'lgan subyektlarni sanang.

## **18-§. OLIY MAJLIS VA UNING VAKOLATLARI**

### **Mavzu ustida ishlash jarayonida Siz quyidagilarni:**

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakolatlari;
- Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari;
- “qonunchilik tashabbusi” va qonunchilik jarayoni bosqichlari haqida bilib olasiz.

1. Oliy Majlis va uning tarkibi.
2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari.
3. Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari.
4. Qonunchilik tashabbusi huquqi.
5. Qonunchilik jarayonlari bosqichlari.

### **1. OLIY MAJLIS VA UNING TARKIBINI TUZISH TARTIBI**

Oliy Majlis ayni paytda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va vakillik organi hisoblanadi, ya'ni deputatlar va senatorlar ularni saylagan xalq manfaatlarini ifodalaydi.



### ***Asosiy qonun belgilaydi***

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 76-modda.**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (quyi palata) hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yilga saylanadigan 150 nafar deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining o'n besh nafar deputati O'zbekiston Ekologiya harakatidan saylanadi. Qonunchilik palatasi uning barcha deputatlarining muqim kasbiy faoliyat yuritishlariga asoslangan.

Oliy Majlis Senati (yuqori palata) huquqiy vakillik palatasi bo'lib, 100 nafar senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat. Senatorlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. Oliy Majlis Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida, shuningdek, davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:**

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;



- 2) O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;
- 3) O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalari qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqish haqidagi qarorlarini tasdiqlash;
- 7) boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- 9) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;
- 10) O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;
- 11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;
- 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta‘sis etish;
- 13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 14) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;



15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

16) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;

17) O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;

18) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

## **2. OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING MUTLAQ VAKOLATLARI**

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:**

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidolari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

### 3. OLIY MAJLIS SENATINING MUTLAQ VAKOLATLARI

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlarga:**

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnisiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

#### 4. QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI

Demokratik huquqiy davlatda insonlarning jamiyatdagi o‘ta muhim munosabatlarini qonunchilik asosida boshqarish zarurati mavjud bo‘ladi. Shu sababli davlatimiz qonunchiligida har bir inson qonun loyihalarini tayyorlashda hamda mavjud qonunlarni o‘zgartirish va to‘ldirishda ishtirok etishga haqli ekanligi to‘g‘risida qonun mustahkamlab qo‘yilgan.

Deputatlardan farqli o‘laroq, fuqarolar o‘z takliflari bilan Oliy Majlisga emas, balki o‘zlari tomonidan saylangan Oliy Majlis deputatlariga murojaat qiladilar.



***Yodda tuting!***

**Qonunchilik tashabbusi** – qonun loyihasining qonun chiqaruvchi organga belgilangan tartibda rasman kiritilishidir. Qonunchilik tashabbusi – qonunchilik protsessining birinchi bosqichidir.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqiga:**

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;

– o‘z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar.

Mazkur huquqning ro‘yobga chiqarilishi taklif etilgan qonun loyihalarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida ko‘rib chiqilishi majburiyligi bilan kafolatlanadi hamda deputatlar ko‘pchiligi ovoz berishi tariqasida ma‘qullanishi sharti bilan quyidagilar qabul qilinadi:

– yangi qonun loyihasini tayyorlash to‘g‘risidagi qaror;

– taklif etilgan qonun loyihasini takomillashtirishga yuborish to‘g‘risidagi qaror.

## 5. QONUNCHILIK JARAYONI BOSQICHLARI

**Qonunchilik jarayoni – bu Oliy Majlis Qonunchilik palatasining davlat faoliyati shaklidir. U quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:**

1) qonunchilik tashabbusi – qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritiladi;

2) Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihasining ko‘rib chiqishga qabul qilinishi;

3) Qonunchilik palatasi qo‘mitalaridan biri tomonidan qonun loyihasining oldindan ko‘rib chiqilishi;


4) Qonunchilik palatasining qonun loyihasini ko‘rib chiqishga qabul qilish mumkinligi haqidagi xulosasi;

5) Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihasining ko‘rib chiqilishi va birinchi o‘qishga tayyorlash (qoidaga ko‘ra qonun loyihasi uch o‘qishda ko‘riladi);

6) Qonunchilik palatasi tomonidan qonun qabul qilinishi va uning Senatga yo‘naltirilishi;

7) qonunning Senat tomonidan ko‘rib chiqilishi va uning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash uchun yuborilishi;

10-sxema.



## Qonunchilik jarayonining asosiy bosqichlari

8) qonun Senat tomonidan rad etilgan yoki Prezident tomonidan qaytarilgan hollarda qonun bir oy ichida qayta ko‘rib chiqilishi kerak;

9) qonunning matbuotda e‘lon qilinishi.

Qonunlarning ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinishi ularni qo‘llashning majburiy shartidir. Qonunlar va Oliy Majlis qarorlari imzolanganidan so‘ng bir haftadan kechiktirmasdan e‘lon qilinishi lozim. Basharti, qonunda boshqa sana ko‘rsatilmagan bo‘lsa, e‘lon qilinishi bilan normativ hujjat kuchga kiradi.



### Topshiriq

*Tasavvur qiling, Siz Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylandingiz. Kollej va litseylarda ta‘lim oluvchilarni o‘qitish shartlari to‘g‘risidagi qonun loyihasini taklif qiling.*



### Yakunlarni chiqaramiz

O‘zbekiston  
Respublikasining  
Oliy Majlisi

- Oliy Majlis – Qonunchilik palatasi va Senat;
- Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vakolatlari;
- Oliy Majlis Senati vakolatlari;
- qonunchilik tashabbusi huquqi;
- qonunchilik jarayoni bosqichlari.



### O‘zingizni sinang!

1. Oliy Majlis qanday tuzilgan? Uning tarkibiga necha nafar deputat va senator kiradi?
2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mutlaq vakolatlarini sanab bering?
3. “Qonunchilik tashabbusi huquqi” tushunchasini tushuntirib bering.
4. Qonun ishlab chiqish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sifatida Prezidentning vakolatlari haqida;
- Prezidentni saylash tartibi va uning vakolati tugashi haqida bilib olasiz.

- 1. Prezident – davlat boshlig‘i.**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash tartibi va uning vakolati tugashi.**

## **1. PREZIDENT – DAVLAT BOSHLIG‘I**

Lotinchadan tarjima qilganda **prezident** so‘zi *oldinda o‘tiruvchi*, ya’ni davlat boshlig‘i ma’nosini anglatadi. Jahondagi ko‘pchilik mamlakatlarda prezidentlik boshqaruvi shakli mavjud ekanligi ham prezident lavozimining mavqeyidan dalolat berib turibdi.

O‘zbekistonda prezident lavozimi **1990-yil 24-martda** joriy etilgan.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 89-modda.**

## **2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING VAKOLATLARI**

Davlat boshlig‘ining asosiy vazifasi – hokimiyatning barcha tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish yo‘li bilan mamlakat sobitqadam va barqaror rivojlanishini ta’minlashdir. Prezidentning O‘zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimidagi alohida o‘rni ham ana shu narsa bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident davlat rahbari sanaladi. Shunga muvofiq O'zbekistonni **prezidentlik boshqaruvi shakliga ega unitar respublika** tariqasida tavsiflash mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:**

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega;

8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi hamda uni iste'foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining pala-

talari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qiladi;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

13) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiya-viy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo‘jalik sudi raisi va sudyalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo‘jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining va hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini ular qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo‘lgan hollarda to‘xtatadi, bekor qiladi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e‘lon qiladi; qonunga o‘z e‘tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;



19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;


22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.



### *Asosiy qonun belgilaydi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 90-moddadan.**

### **3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINI SAYLASH TARTIBI VA UNING VAKOLATI TUGASHI**

Davlat boshlig'i parlament deputatlari tomonidan saylanadigan parlament respublikasidan farqli ravishda prezidentlik boshqaruvi shaklida xalq tomonidan yoki saylovchilar vakillari tomonidan saylanadi va deputatlar tor guruhidan emas, balki aholining keng qatlamlaridan vakolatlar oladi.

Prezident saylovi Konstitutsiya va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga asosan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylash huquqi negizida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ayni paytda prezidentlikka nomzodga nisbatan alohida talablar qo'yiladi.



## Asosiy qonun belgilaydi

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

“O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman”.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 92-modda.



## Asosiy qonun belgilaydi

Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod senat a’zosi lavozimini egallaydi.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 97-modda.



## Yakunlarni chiqaramiz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

- davlat boshlig‘i;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘ilishida qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi;
- fuqarolar huquq va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlar kafili;
- davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi;
- mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;
- mamlakat Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni;
- Prezident shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi;
- vakolat muddati yakunlangandan so‘ng – senator.





## O'zingizni sinang!

1. Prezidentning davlat boshlig'i sifatidagi asosiy kafolatlarini sanang (Konstitutsiyaning 93-moddasining barcha bandlarini o'qing).
2. O'z burchlarini bajarayotganda Prezident qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishi zarur?
3. Sizningcha, Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emasligi to'g'risidagi qoida nega Konstitutsiyaga kiritilgan?
4. Bizning davlatimizda kimlar Prezident etib saylanishi mumkin?
5. Prezident Respublikasining Parlament Respublikasidan farqini ayting.
6. Prezident siyosiy partiyaning a'zosi bo'lishi mumkinmi?

## 20-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- vakillik hokimiyat organlari tizimi haqida;
- markaziy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati haqida bilib olasiz.

1. Vazirlar Mahkamasi – mamlakat hukumati.
2. Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari.

### 1. VAZIRLAR MAHKAMASI – MAMLAKAT HUKUMATI

Vazirlar Mahkamasining asosiy tashkilotchiligi va faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun bag'ishlangan.

Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasi hukumati va O'zbekiston Respublikasining ijroiya organi sanaladi va iqtisodiyotning, ijtimoiy hamda ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari va ular tomonidan tuziladigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini boshqaradi, ularning faoliyatlari kelishuvini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

12-sxema.



## **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasi:**

1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi uchun javobgar bo‘ladi;

2) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

3) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta’minlaydi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi;

5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma’ruzalar taqdim etadi;

6) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;



### **Asosiy qonun belgilaydi**


Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududdagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

## **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 98-moddadan.**

13-sxema.



“O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida Respublikada istiqomat qiluvchi barcha millatlar va xalqlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda kollegiallik, demokratiya va qonunchilik prinsiplariga tayanadi.

Hukumat faoliyatining sohasi ko‘lamini Vazirlar Mahkamasi tizimiga kiruvchi davlat qo‘mitalari va vazirliklar soniga ko‘ra baholash mumkin.

Xususan, ularning biri ijtimoiy ta'minot, boshqasi – ta'lim, ma'naviyat va madaniyat, uchinchi – tartibni saqlash, to'rtinchisi – sud va advokatura ishlarini tashkil qilish bilan shug'ullanadi.



### Topshiriq

*O'zingizni ma'lum bir tarmoq (xalq ta'limi, ichki ishlar, sog'liqni saqlash, tashqi ishlar) vaziri o'rnida tasavvur qiling. Tanlagan tarmoq bo'yicha mavjud muammolarni hal etish dasturini tuzing.*



### Yakunlarni chiqaramiz

#### O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

- Vazirlar Mahkamasi – mamlakat hukumati;
- Davlat qo'mitalari va vazirliklar;
- iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali rivojlanishini ta'minlaydi;
- qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;
- Prezident shakllantiradi, Oliy Majlis tasdiqlaydi;
- Oliy Majlis va Prezident oldida javobgardir;
- “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi Qonun (29.08.2003-yildagi yangi tahriri, o'zgartirishlar kiritilgan).



## O'zingizni sinang!

1. O'zbekiston Respublikasida qanday ijro organlari mavjud?
2. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qanday tuziladi?
3. Respublika hukumatining asosiy vakolatlarini sanab bering.
4. Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis bilan o'zaro aloqasi qanday amalga oshiriladi?
5. Ijro hokimiyati organlarining asosiy vazifasini aytib bering.

## 21-§. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida;
- hokimlar vakolatlari va faoliyat yo'nalishlari haqida;
- Xalq deputatlari Kengashi faoliyati to'g'risida bilib olasiz.

### 1. Xalq deputatlari Kengashi.

### 2. Viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari faoliyati.

## 1. XALQ DEPUTATLARI KENGASHI

Markaziy hokimiyat organlaridan farqli ravishda, mahalliy hokimiyat organlari ijtimoiy muammolarni mintaqaviy darajada hal etadi. Ular jamiyat hayotining turli sohalaridagi muammolarni bevosita hal etgan holda ijro hokimiyatining qonunlari va normativ aktlarini amalga oshiradi. Hokimiyat organlari joylarda xalq farovonligini ta'minlash va davlat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi hokimiyat vakillik organlari **Xalq deputatlari Kengashi** sanaladi. Ularning faoliyati mintaqadagi aholi hayotining turli tomonlariga tegishli vazifalar va muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Viloyatlar, shaharlar, tumanlar hududlaridagi vakillik va ijro hokimiyatini **hokim** boshqaradi. Viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident va tegishli Xalq deputatlari Kengashiga hisobot berishga burchli.



## Asosiy qonun belgilaydi

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z va-kolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 99-modda.**

## 2. VILOYATLAR, TUMANLAR VA SHAHARLAR HOKIMLARI FAOLIYATI

Hokim faoliyati yakkaboshchilik asosida amalga oshiriladi va o'zi boshqarayotgan hududlar bo'yicha qarorlari va faoliyati natijalari uchun shaxsan javobgar bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.



### Topshiriq

*Tasavvur qiling, Siz maktab direktorisiz va shahar (tuman) hokimi qabuliga keldingiz. Maktabni ta'mirlash va a'lochi o'quvchilarni xorijiy mamlakatlardan biriga sayohatga yuborish uchun moddiy yordam so'rab murojaat qildingiz. Ushbu takliflarni asoslash uchun qanday sabablarni keltirgan bo'lar edingiz?*

### **Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimi:**

– Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qonunlari va hujjatlari, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlari ijrosini tashkillashtiradi;

– jamoatchilik tartibini saqlash va jinoyatchilik bilan kurash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ular huquqlari va salomatligini ta'minlash bilan bog'liq choralarni ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa ekstremal vaziyatlarda ishlarni tashkil etadi;

– viloyatlar, tumanlar, shaharlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, viloyat, tuman, shahar budjetining asosiy

parametrlari va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotni xalq deputatlari Kengashiga taqdim etadi;

- rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan ozod etiladigan ijro hokimiyati organlarining tuzilmaviy bo'linmalari ishini nazorat qiladi;

- respublikada va xorijda viloyat, tuman va shaharning rasmiy vakili sifatida ish yuritadi;

- aholini qabul qilishni tashkillashtiradi, fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadi va boshqalar.

Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid muhim va dolzarb masalalar bo'yicha hisobotlarni taqdim etadi.



### Asosiy qonun belgilaydi

Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 103-moddadan.**

Mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri kommunal xo'jaligini rivojlantirishga rahbarlik qilish sanaladi. Mahalliy hokimiyat organlari to'g'risidagi qonunda hokimlar o'z hududlaridagi kommunal xo'jaligi xizmati faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qilishi ta'kidlanadi. Kommunal xo'jaligi xizmati hokimiyatlar bo'limi tomonidan boshqariladi. Ularning rahbarlari hokim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bu masala mahalliy Kengash sessiyasida tasdiqlanadi.

Mahalliy Kengash ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Sessiyada Kengash vakolatiga kiruvchi masalalar hal etiladi, hisobotlar tinglanadi va albatta ijro etilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilinadi. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar xalq deputatlari Kengashi zaruriyatga ko'ra bir yilda kamida ikki marta hokim tomonidan chaqiriladi.



## Yakunlarni chiqaramiz

Mahalliy  
davlat hokimi-  
yati organlari

- xalq deputatlari Kengashi;
- hokim – joylarda vakillik va ijro hokimiyatini boshqaradi;
- xalq deputatlari Kengashi oldida hisobot berish;
- qabul qilinadigan qarorlar uchun hokimning shaxsan javobgarligi.



## O‘zingizni sinang!

1. Xalq deputatlari Kengashi qanday muammolarni hal etadi?
2. Xalq deputatlari Kengashiga kim rahbarlik qiladi?
3. Hokimlar faoliyati qanday tamoyillarda amalga oshiriladi?
4. Hokimlar xalq deputatlari Kengashini boshqargan holda qanday muammolarni hal etadi?
5. Viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari hokimiyatning qanday organlariga hisobot beradi?

## 22-§. FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- o‘zini o‘zi boshqarish organlarining strukturasi va ularning huquqiy maqomi haqida;
- o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari haqida;
- fuqarolar yig‘inlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiya faoliyati haqida bilib olasiz.

1. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va huquqiy maqomi.
2. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.
3. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi komissiya faoliyati.

### 1. FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI VA ULARNING HUQUQIY MAQOMI

Shaharlar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek, shaharlar, qishloqlar va ovullar mahallalarida tashkil etiladigan o‘zini o‘zi boshqarish

organlarining strukturasi va huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab qo‘yilgan.

**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi** – bu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlanadigan, fuqarolarning o‘z manfaat-lari, tarixiy rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqadigan masalarni hal etish bo‘yicha mustaqil faoliyati hisoblanadi.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullarda, shuningdek, shaharlar, qishloqlar va ovullardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari **fuqarolar yig‘ini** bo‘lib, 2,5 yil muddatga rais (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylanadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonunchilikka muvofiq berilgan vakolatni tegishli hududda amalga oshiradilar. Fuqarolar yig‘ini aholi manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan tegishli hudud doirasida amal qiluvchi qaror qabul qiladi.

Fuqarolar yig‘inida o‘n sakkiz yoshga yetgan va tegishli hududda doimiy yashaydigan shaxslar ishtirok etadi.

## 2. FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING ASOSIY FAOLIYATI

Fuqarolar yig‘inining organlari quyidagilar hisoblanadi: fuqarolar yig‘ini kengashi, fuqarolar yig‘inining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiya va taftish komissiyasi. O‘zini o‘zi boshqarish organlari mamlakat aholisiga o‘zlarining konstitutsiyaviy huquqlarini jamiyat va davlat ishlari boshqaruvida ishtirok etishda amalga oshirish imkoniyatini beradi.



### Asosiy qonun belgilaydi

Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 105-moddadan.**

O‘zini o‘zi boshqarish organlari yordamida va aholining birgalikdagi ko‘magi bilan ma’lum bir hududda ijtimoiy va madaniy vazifalar hal



etiladi, davlat organlariga aholining turmushini yaxshilashga qaratilgan qonunlar va qarorlar ijrosini amalga oshirishga yordam beriladi.

### 3. FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI KOMISSIYASINING FAOLIYATI

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun-ning 18-moddasiga muvofiq fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi komissiyalar tuziladi:

- yarashtiruv komissiyasi;
- ma‘rifat va ma‘naviyat masalalari bo‘yicha komissiya;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash komissiyasi;
- ayollar bilan ishlash komissiyasi;
- voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiya;
- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va oilaviy biznes masalalari bo‘yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirish komissiyasi;
- jamoatchilik nazorati va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish komissiyasi.



#### Topshiriq

*O‘zingiz istiqomat qiladigan hududdagi mahalla qo‘mitasi komissiyalaridan birining faoliyati bilan tanishib, ularning ish mazmuni to‘g‘risida ma‘lumot tayyorlang. Ular nima bilan shug‘ullanishadi? Jamiyat hayotida ularning o‘rni qanday?*



#### Yakunlarni chiqaramiz

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

- “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun;
- o‘zini o‘zi boshqarish organlari – istiqomat qilish hududlaridagi muammolarni hal etish;
- fuqarolar yig‘inlari: oqsoqol – 2,5 yil;
- fuqarolar yig‘ini Kengashi;
- fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiya.



## O'zingizni sinang!

1. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
2. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini kim boshqaradi va u necha yilga saylanadi?
3. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida qanday komissiyalar tuziladi?

## 23-§. O'ZBEKISTON PESPUBLIKASINING SUD TIZIMI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyati prinsiplari haqida;
- sudyalarning huquq va majburiyatlari, sudyani tayinlashda uning shaxsiga qo'yiladigan talablar haqida bilib olasiz.

1. Inson huquqlari himoyasidagi bosh bo'g'in.
2. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi.

### 1. INSON HUQUQLARI HIMOYASIDAGI BOSH BO'G'IN

Hokimiyat tarmoqlaridan qaysi biri inson huquqlarini himoya qilish borasida eng asosiy ekanligini aniqlash masalasi ustida hech o'ylab ko'rganmisiz?

Hokimiyat tarmoqlaridan har biri inson huquqlarini himoya qilish vazifasini amalga oshiradi. Ammo ulardan har biriga inson huquqlarini himoya qilishning o'z usullari va yo'llari xosdir. Har bir insonning hayoti voqealar-ga boyligi va turli-tumanligi bilan qiziq. Biroq inson jamiyatda yashar ekan, uning xatti-harakatlari boshqa kishilar huquqlariga zid kelishi mumkin.

Asosiy vazifasi davlat manfaatlarini va har bir odamning manfaatlarini muhofaza etishdan iborat bo'lgan davlat organlari ham kishilar o'rtasida hakamlilik qilishga da'vat etilgandir.

Basharti, qonun chiqaruvchi organlar qonunlarni qabul qilsa, sud organlari esa qonunlar asosida odil sudlovni amalga oshiradilar.

Shunday qilib, sud hokimiyati tarmog'ining bosh vazifasi – inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal etish, aholi va davlat organlarining o'zlari ham qonunlarni ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdir.



## Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 106-modda.



## 1-topshiriq

Quyidagi holatlarni ko‘rib chiqib, ulardan qay biri qilmish, qay biri jinoyat ekanligini aniqlang.

1. O‘smir temiryo‘lga poyezdni to‘xtatuvchi ikkita tormoz boshmog‘ini o‘rnatib qo‘ydi.
2. Ikki o‘smir qatnayotgan poyezd oynasiga tosh otib o‘ynashdi.
3. O‘smir maktabda yechinib-kiyinish xonasida sinfdoshlaridan birining buyumini o‘g‘irladi.
4. O‘quvchilar maktabga qo‘shni uyning devorlariga bo‘yoq chaplab tashlashdi va oynani sindirishdi.
5. Fuqaro A. avtomashinada katta tezlikda kelib yo‘lovchini urib yubordi va unga yordam ko‘rsatmasdan qochib ketdi.
6. Yo‘lovchi tashiyotgan avtobus temiryo‘ldan o‘tish taqiqlangan joydan o‘tayotganda halokat sodir bo‘ldi. Bir necha yo‘lovchi halok bo‘ldi, ko‘pchiligi jarohat oldi.
7. Yong‘in paytida to‘qqizinchi sinf o‘quvchisi kvartiradan qochib chiqib yashirindi. Uyda qolgan ikki nafar kichik yoshdagi bolani o‘t o‘chiruvchilar qutqarishdi.

## 2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD TIZIMI

**Sud** – odil sudlovni amalga oshirishga haqli birdan bir davlat hokimiyati organidir. Sudyalar hal qiluvchi qarorlar va hukmlarini davlat nomidan chiqaradilar. Bu narsa hal qiluv qarorlari va hukmlar barcha tomonidan, shu jumladan, davlat organlari tomonidan so‘zsiz ijro etilishi shart ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati konstitutsiyaviy, ma‘muriy, fuqaroviy, xo‘jalik va jinoyat sudlovi orqali amalga oshiriladi. Sudlar orasidagi bunday taqsimot **sudga tegishlilik**, ya‘ni ish ko‘rib chiqiladigan konkret sudning belgilanishi deb ataladi.

## **O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagi sudlardan iborat (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 107-modda.):**

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi;
- fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- fuqarolik ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari;
- jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari;
- harbiy sudlar;
- viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari.

O‘zbekiston Respublikasida sudlar ish kategoriyasiga ko‘ra ixtisoslashtirilishi mumkin. Favqulodda sudlar tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek, qoraqalpoq tillarida yoki o‘sha hududdagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchisi uchun tarjimon orqali sud materiallari bilan to‘liq tanishish, sud harakatlarida qatnashish va o‘z ona tilida so‘zga chiqish huquqi ta‘minlanadi.

### **Umumiy yurisdiksiya sudlariga quyidagilar kiradi:**

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi;
- fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi. Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi;
- harbiy sudlar.

Sud hokimiyatining xo‘jalik sud ishini yuritish sohasining oliy organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sanaladi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:**

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan boshqa hujjatlarning, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari



qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalari sharh beradi.

### **O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi:**

- fuqaroviy, jinoiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega;

- ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko‘rib chiqadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan birinchi instansiya bo‘yicha ko‘rib chiqilgan ishlar apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat (protest kiritish) qilishga haqli shaxsning ixtiyoriga ko‘ra ular tomonidan apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilishi mumkin;

- apellatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan ishlar kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

### **O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi:**

- xo‘jalik sudi ishini yuritish sohasida oliy organ sanaladi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlarining sud faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega;
- ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rib chiqadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi sharhlarining xo‘jalik sudlari tomonidan bajarilishi ustidan nazorat qiladi;
- quyi bo‘g‘indagi xo‘jalik sudlari faoliyatini tekshiradi;
- xo‘jalik sudlari ishlarining ijobiy tajribasini o‘rganadi, boyitadi va tatbiq qiladi.

### **O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:**

O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimi:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy kollegiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi;
- okrug va hududiy harbiy sudlaridan iborat.

### **Harbiy sudlar:**

- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini qo‘riqlash qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi qo‘shinlari va qonunchilikka muvofiq tuziladigan boshqa harbiy tuzilmalar harbiy xizmatchilari, shuningdek, harbiy majburiyatga ega shaxslar tomonidan o‘quv yig‘inlarini o‘tayotgan chog‘ida sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha ishlarni;
- harbiy qismlar, qo‘shilmalar va birlashmalar qo‘mondonligiga, harbiy boshqaruv organlariga xizmat safariga jo‘natilgan harbiy xizmatchilarning da‘volari va harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklariga putur etkazayotgan harbiy boshqaruv organlari va qo‘shin mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlari bo‘yicha noharbiy (fuqarolik) ishlarni;
- istisno tariqasidagi vaziyatlar ta‘sirida umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat yuritmaydigan joylardagi barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;
- davlat sirlariga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqadi.

Sud organlarining asosiy maqsadi – inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda qonuniylik va adolatni qaror toptirishdir. Sud organlari faoliyatining muhimligi kishilar o‘rtasida vujudga kelgan mojarolarni zo‘ravonliksiz, mamlakatda qabul qilingan qonunlar asosida hal etilishida mujassam.

## O'zbekiston Respublikasining sud tizimi

| Sudning nomlanishi                                                                                                                                                                                                     | Vazifalari va vakolatlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.                                                                                                                                                                        | O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis palatasi qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat va davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlari, xalqaro shartnomani va O'zbekiston Respublikasi boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydilar.                                                                                                       |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi (Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, 70-modda, 8-band).                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.                                                                                                                                                                                    | Fuqaroviy, jinoiy va ma'muriy sudlovni amalga oshiruvchi oliy sud hokimiyati organlari.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha Oliy sudi.                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, Viloyatlar va Toshkent shahar Xo'jalik sudi.                                                                                 | O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik ishlarini yuritish bo'yicha sud organlari.                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| Viloyat sudlari va Toshkent shahar sudi, tumanlararo, tuman va shahar sudlari.                                                                                                                                         | Fuqaroviy, jinoiy ishlarni va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni birlamchi ko'rib chiqishni amalga oshiradi (birinchi instansiya sudlari).                                                                                                                                                                                                                                                         |
| <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy sudi.</li> <li>3. Okrug va hududiy harbiy sudlar.</li> </ol> | Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa harbiy qismlar harbiy xizmatchilari, shuningdek, zaxiradagi harbiy xodim o'quv yig'inlarini o'tash davrida sodir etgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar o'rganiladi, harbiy xizmatchilar huquqlari buzilishi to'g'risidagi fuqarolik ishlari va harbiy sirlarga tegishli ishlarni ko'rib chiqadi. |



## Yodda tuting!

**Sud tizimi** – o‘z vakolatlari, maqsadlari va vazifalariga muvofiq ish ko‘radigan davlatning butun sudlov organlari.



## 2-topshiriq

Jadvalni to‘ldirish asnosida hokimiyat tarmoqlaridan har biri inson huquqlarini qay tarzda himoya qilishini aniqlang.

| Inson huquqlarining himoya qilinishi                |                                                |                                       |
|-----------------------------------------------------|------------------------------------------------|---------------------------------------|
| Hokimiyatning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan | Hokimiyatning ijro etuvchi organlari tomonidan | Hokimiyatning sud organlari tomonidan |
|                                                     |                                                |                                       |



## Yakunlarni chiqaramiz

O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi

- sudlar – inson huquqlari himoyasidagi asosiy bo‘g‘in;
- sud – odil sudlovni amalga oshiruvchi birdan bir hokimiyat organi;
- qonunlarni buzganlik uchun jazo chorasini faqat sud aniqlaydi;
- sudyalari – mustaqil va daxlsizdir, faqat qonunga bo‘ysunadi;
- ma‘muriy, fuqaroviy va jinoiy sud protsessi, qonun oldida fuqarolarning tengligi;
- Konstitutsiyaviy sud;
- umumiy sudlar, xo‘jalik sudlari, harbiy sudlar;
- prinsiplar: oshkoralik, obyektivlik, qonuniylik, adolat.



## O‘zingizni sinang!

1. O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi sud tizimini qaysi sudlar tashkil etadi?
2. Sud tizimi tushunchasiga ta‘rif bering.
3. Sud davlat hokimiyat organlari tizimida qanday rol ni bajaradi?
4. O‘zbekiston Respublikasi sud organlarining asosiy maqsadlarini bayon eting.

## 24-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD ORGANLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- odil sudlovni amalga oshirishga nisbatan asosiy talablar haqida;
- sudyalarning huquq va majburiyatlari, sudyalarni lavozimiga tayinlashda ularning shaxsiga nisbatan talablar haqida bilib olasiz.

1. Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy talablar.
2. Sudyalarning huquq va majburiyatlari.
3. Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari.

### 1. ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDAGI ASOSIY TALABLAR

|                                     |                                                                                                  |
|-------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Obyektivlik</b>                  | Ishning xolis va beg‘araz ko‘rib chiqilishi                                                      |
| <b>Har tomonlamalik va to‘lalik</b> | Ko‘rib chiqilayotgan ishga oid barcha ma’lum faktlarning izchil va mufassal ko‘rib chiqilishi    |
| <b>Qonuniylik</b>                   | Ishlarni Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ravishda ko‘rib chiqilishi va qaror qabul qilinishi |
| <b>Asoslilik va adolat</b>          | Isbotlarni ishonarli faktlar bilan tasdiqlash va ishning barcha jihatlarini hisobga olish        |

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida barcha uchun majburiy bo‘lgan shunday qoida mustahkamlab qo‘yilgan: faqat sud shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topishi va qonunga muvofiq jazo chorasini belgilashi mumkin (19-modda).

Bunda jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir odam himoya uchun barcha vositalar ta‘minlab beriladigan sudda ishi qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, jinoyati aniqlanmaguniga qadar aybdor hisoblanmaydi (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 26-modda). Bunday javobgarlikni aniqlash tartibi **aybsizlik prezumpsiyasi** deb ataladi.



## Asosiy qonun belgilaydi

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

### O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 26-moddadan.



## 1-topshiriq

*Sizningcha, sud muhokamasida sudyadan tashqari prokuror, advokat va xalq maslahatchisi, jamoat ayblovchisi va himoyachilarining ishtirok etishi qonun bilan qaysi maqsadda belgilangan?*

*Quyida keltirilgan har bir vaziyat bilan tanishib chiqib, sud nega shunday qaror chiqarganini hal qiling. Sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirish borasidagi talablar buzilganmi yoki aksinchami? Sudyaning o'rnida bo'lganingizda qanday qaror chiqargan bo'lardingiz?*

### 1-vaziyat.

Tojiboyevlar oilasi a'zolari (ona, ota, ikki o'g'il va bir nevara) o'z moddiy ahvolini o'nglab olish maqsadida Tojikistondan O'zbekistonga narkotik moddalarni tashib kelishga rozi bo'lishdi. Qonunga xilof yuk bojxonaning xodimlari ko'zdan kechirishi paytida aniqlandi. Oilaning barcha a'zolari, shu jumladan, 16 yoshli nevara va 70 yashar ona turli muddatlarga qamallishdi.

### 2-vaziyat.

Fuqaro N. "Anho" firmasining buxgalteri yo'qotib qo'ygan hujjatlarni topib oldi. Hujjatlar qaytarilishi evaziga yo'qotib qo'yilgan yukxatlarida yozib qo'yilgan tovar qiymatining 50%ini talab qildi. Uzoq muddatga ko'ndirishlardan keyin firma rahbariyati N. ni tovlamachilikda ayblab, uning ustidan sudga ariza berdi. Sud N. ni aybdor deb topdi va uni uch yil muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qildi.

### 3-vaziyat.

Boshqarishni uddalay olmagan fuqaro M. yo'l chetiga chiqib ketdi va u yerda turgan fuqaro K. ning avtomobiliga shikast yetkazdi. Sudya fuqaro K.ga o'zi aybdor ekanligini, uning mashinasi taqiqlangan joyda turganligini tushuntirib, K.dan arizasini qabul qilishni rad etdi.



## 2-topshiriq

*Quyidagi muammoni hal qilish borasida o'z yechimingizni taklif qiling.*

O'g'rilik qilayotgan shaxslardan biri qo'lga tushdi, sheriklari esa qochib ketdi. Militsiya xodimlariga u sheriklarini aytmedi. U sheriklarini aytishi uchun qanday choralarni qo'llagan bo'lardingiz? Kuch ishlatarmidingiz? Aksincha bo'lsa, unda nega?

O'g'rini qiynoqqa solgan militsiya xodimi jazolanishi shart deb hisoblaysizmi?

## 2. SUDYALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi sudyalari mustaqil va ularning shaxsi daxlsizdir, ya'ni sudyalar va xalq maslahatchilari sud ishini faqat qonun asosida va ularga nisbatan har qanday tashqi ta'sirni istisno qiluvchi sharoitda muhokama qiladilar.

Davlat idoralari xodimlari, istalgan maqomdagi mansabdor shaxslar va fuqarolar konkret ishlarni qanday hal etish to'g'risida sudga ko'rsatma berishga haqli emasdirlar. Daxlsizlik prinsipi sudyaning ruxsatisiz uning xizmat xonasiga, uyiga kirishga, xat-xabarlariga ko'z yugurtirishga, narsalari va hujjatlarini ko'zdan kechirishga haqli emaslikni anglatadi.



## Asosiy qonun belgilaydi

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 112-moddadan.**

O'zbekiston Respublikasining 30 yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, kamida besh yillik yuridik mutaxassislik bo'yicha ish tajriga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) va xo'jalik sudi sudyasi etib tayinlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining ofitser unvoniga ega bo'lgan, haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan fuqarosi harbiy sudning sudyasi bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq sudyalari deputat etib saylana olmaydilar, siyosiy partiyalar va harakatlarga mansub bo'lmaydilar, shuningdek, sudya vazifalarini boshqa bir haq to'lanadigan ish bilan qo'shib olib borishga haqli emas.

Sudya jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda, agar o'zining lavozimiga mos kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullanganligi aniqlansa, uning vakolatlari to'xtatib turiladi.

Sudya yozma ariza bergan taqdirda, uning tomonidan sudya qasamyodi buzilganida, u huquqiy layoqatsiz deb e'tirof etilganda, vafot etgan taqdirda uning vakolatlari to'xtatiladi.



### 3-topshiriq

*Sizningcha, quyida keltirilgan hollardan qaysi birida sudya tomonidan qonun buzilishiga yo'l qo'yilgan?*

#### 1-vaziyat.

Piyodalar yo'lakhasidan o'tayotganida yonidan g'izillab o'tib ketayotgan avtomobil fuqaro S.ning kiyimiga loy sachratib ketdi. Jabrlanuvchi bu masalani o'zi hal etishi mumkin, sudlar bunday aytarli ahamiyatsiz ish bilan shug'ullanmaydilar deb hisoblagan sudya arizani qabul qilishni rad etdi.

*Sudyaning qarorini qanday baholaysiz?*

#### 2-vaziyat.

Fuqaro Sh. fuqaro N. dan 50 000 so'm undirib berilishi xususida sudga murojaat qildi. Ayni mahalda N. bu summmani qalin tariqasida olgani, keyin qizini Sh. ning o'g'liga berishdan voz kechgani aniqlandi.

*Sudya qanday ish tutishi kerak?*

#### 3-vaziyat.

Fuqaro S. o'g'rilik qildi va jinoyat sodir etilgan joyda hibsga olindi. Uning aybi amalda isbotlandi. Sudya S.ning aybi isbotlanganiga va uning o'zi ham bundan tonmasligiga havola qilgan holda S.ni protsess boshidanoq jinoyatchi deb atay boshladi.

*Bunga sudyaning haqqi bormi? Aksincha bo'lsa, unda nega? O'z javobingizni asoslab bering.*

14-sxema.



### 3. KONSTITUTSIYAVIY SUDNING VAKOLATLARI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazoratning oliy sud organidir (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 108-modd). Xuddi umumiy sudlar kabi u ham mamlakat aholisi huquqlarini himoya qiladi.

Biroq sudlarning boshqa turlaridan farqli o'laroq Konstitutsiyaviy sud sudyalari alohida shaxslar o'rtasidagi konkret ishlarni muhokama qilmaydilar. Konstitutsiyaviy sud sudyalarning bosh vazifasi Oliy Majlis e'lon qilgan qonunlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Hukumat qarorlari va boshqa qonun hujjatlarining Asosiy qonun – mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlashdir.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga ko'ra Konstitutsiyaviy sud:**

1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

3) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko‘rib chiqadi.



#### 4-topshiriq

### Bizning amaliyot

*Konstitutsiyaviy sudning majlisini o‘tkazing. Tasavvur qiling, hukumatning 12 yillik majburiy ta’limni bekor qilish to‘g‘risidagi mamlakat bozor munosabatlariga o‘tishi bilan asos qilib olingan qarori qabul qilingan, shu munosabat bilan har kim o‘zining ta’lim darajasi to‘g‘risidagi masalani o‘zi hal qilishi mumkin.*

*Ushbu huquqbuzarlik O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mos keladimi?*

Konstitutsiyaviy sudning majlisi quyidagi tarzda o‘tkazilishi mumkin:

**I. Tayyorgarlik bosqichi.** Sinf xonasida sud majlisi zalini eslatadigan vaziyatni yarating (ta’lim oluvchilarning besh guruhi uchun stollar – har bir guruh Konstitutsiyaviy sudning bitta sudyasini ifodalaydi, rais uchun stol, ma’ruzachilar uchun minbar).

**II. Majlisni o‘tkazish.** Rais ta’lim oluvchilarni ko‘rib chiqiladigan masala bilan tanishtiradi, reglamentni aniqlashtiradi va guruhlariga muhokama uchun vaqt beradi. Qaror qabul qilayotganda o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalariga asoslanishlari lozim.

**III. Muammo muhokamasi.** Har bir guruhdan ma’ruzachi belgilanadi, u 2–3 minut davomida guruhning ushbu muammo yuzasidan nuqtayi

nazarini yoritib beradi. Uni hal etish uchun o'quvchilar qonun chiqaruvchilarga muhokama etilayotgan to'xtamga tuzatishlar, qonunning yangi moddasi loyihasini taklif etishlari yoki ushbu to'xtamni bekor qilishni talab qilishlari mumkin. Muhokama chog'ida boshqa guruhlarining ishtirokchilari savol berishlari mumkin.

**IV. Qaror qabul qilish.** Konstitutsiyaviy sudda qaror oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

**V. Yakunlarni chiqarish.** Muammo muhokamasi borishini baholang: muhokama etilayotgan qaror foydasiga yoki unga qarshi argumentlar qanchalik asosli bo'ldi, yuzaga kelgan muammoni bunday muhokama qilish nechog'liq samarali kechdi?

### **Yakunlarni chiqaramiz**

Sud tizimining asosiy talablari

- aybsizlik prezumpsiyasi – aybdorlik aniqlanishi faqat sud tomonidan;
- “Sudlar to'g'risida”gi Qonun, 14.12.2000-yildagi yangi tahriri (o'zgartirishlar kiritilgan);
- qonuniylik;
- oshkoralik;
- sudyalarning mustaqilligi;
- Konstitutsiyaviy sud – qonunlar, farmonlar, qarorlarning
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlash.

### **O'zingizni sinang!**

1. Odil sudlovni amalga oshirish borasida qonun tomonidan havola etiladigan asosiy talablarni ayting.
2. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunish prinsipi amaliyotda qay tarzda namoyon etiladi?
3. Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasini aytib bering.
4. Kim shahar yoki tuman, harbiy sud, Konstitutsiyaviy sud sudyasi bo'lishi mumkin?



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### **NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TO‘G‘RISIDA**

(24.12.2012-yildagi yangi tahriri)

(Ko‘chirma)

#### **3-modda. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi**

Normativ-huquqiy hujjat ushbu Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

#### **5-modda. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari**

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardir: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasining qonunlari; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

#### **6-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari**

Normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuyini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlardir.

#### **7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi**

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O‘zbekiston Respublikasining butun hududida qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas.

## IV bo‘lim

# KONSTITUTSIYA – MAMLAKATDA DEMOKRATIYANI RIVOJLANTIRISH KAFOLATI

Demokratik jamiyat – eng avvalo fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning uyg‘unlashuvidirki, bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch va totuvlikda yashaydi.

**Islom KARIMOV**

## 25-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI SAYLOV TIZIMI

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

- demokratik davlatda saylovlarning ahamiyati haqida;
- mavjud saylov tizimlari, ularning prinsiplari va samaradorligi haqida;
- O‘zbekiston Respublikasidagi saylov tizimining xususiyatlari haqida bilib olasiz.

1. Umumxalq saylovi – mamlakat taraqqiyot yo‘lini tanlashdir.
2. Saylovning qaysi modeli yaxshiroq?
3. Demokratik saylov prinsiplari.
4. Saylovlar o‘tkazilishi ustidan nazorat.

### 1. UMUMXALQ SAYLOVI – MAMLAKAT TARAQQIYOT YO‘LINI TANLASHDIR

Demokratik jamiyatda davlat o‘z fuqarolari manfaatlarini muhofazalashga va ularning turmushini yaxshilash borasida g‘amxo‘rlik qilishga da‘vat etilgan, ya‘ni hokimiyat organlari xalqqa bo‘ysundirilgan va unga xizmat qiladi.

Umumxalq saylovlari yo‘li bilan davlat hokimiyati organlarini shakllantirish demokratik huquqiy davlatning muhim alomatlaridan biri hisoblanadi.

Har bir fuqaro o'z ovozini berish asnosida hokimiyatga da'vogarlik qilayotgan turli kishilarga, siyosiy partiyalarga o'zining munosabatini bildiradi. U saylab qo'yiladigan organlarni shakllantirishda ishtirok etishga, ya'ni ularning tarkibiga saylash va saylanishga haqlidir.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 117-moddadan.**



“Saylov” atamasi ovoz berish yo‘li bilan saylab qo‘yiladigan hokimiyat organlarini shakllantirishni anglatadi. Shunday ekan, eng munosibini saylash imkoniyati tug‘ilishi uchun bir necha nomzodlar bo‘lishi kerak. Bunday saylov muqobil saylov deb ataladi. Muqobil bo‘lmaganda saylovchilarda taklif etilgan nomzodni saylashni rad etish imkoniyati bo‘lishi lozim.

## 2. SAYLOVDA QAYSI MODEL YAXSHIROQ?

Saylovlar o‘z-o‘zicha demokratiya kafili bo‘la olmaydi. Buning uchun saylov tizimining ahamiyati muhimdir.

**Saylov tizimi** – davlat hokimiyati vakillik organlariga va mamlakat Prezidentini saylash tartibidir.

Xalqaro amaliyotda saylov tizimining turli modellari mavjuddir: majoritar va proporsional.

**Majoritar** tizimda saylovchilarning qonun bilan belgilangan ko‘pchilik ovozini (kamida 51%) olgan nomzod ayni shu saylov okrugi bo‘yicha saylangan hisoblanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunda (2003-yil 29-avgustdagi yangi tahriri, o‘zgartirishlar kiritilgan) majoritar tizim belgilangan.



### Qonun belgilaydi

Ovoz berishda qatnashgan saylovchilar ovozining yarmidan ko‘pini olgan nomzod Oliy Majlis deputatligiga saylangan hisoblanadi.

### “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonun, 44-modda.

Agar nomzod saylovlarda ishtirok etgan saylovchilar ovozining yarmidan kamini olsa, eng ko‘p ovozlar miqdorini olgan ikki nomzod qatnashdigan ikkinchi bosqich o‘tkaziladi. Ikkinchi bosqichda eng ko‘p ovozlar sonini olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

**Proporsional** (mutanosiblik) saylov tizimi asosiga saylovchilar tomonidan partiya uchun berilgan ovozlar va partiya tomonidan olingan deputat vakolatlarining qonuniyligini guvohlantiruvchi hujjatlar o‘rtasidagi proporsionallik (mutanosiblik) prinsipi qo‘yilgan.

Bunday tizimda siyosiy partiyalar tomonidan familiyasiga qarab emas, balki ro‘yxatlar bilan ko‘rsatiladi va saylovchilar umumiylicicha u yoki bu partiyaning ro‘yxatiga ovoz beradilar.

O‘zbekiston Respublikasining saylov tizimini tanlashda mamlakatda shakllangan an‘analar va siyosiy tizim rivoji darajasi inobatga olingan.

Aksariyat huquqshunos olimlar va siyosatshunoslar mamlakatimizda majoritar tizimdan foydalanish ko‘proq maqsadga muvofiqdir, negaki u qo‘llashda ancha oddiy va barqaror siyosiy tartibot sharoitida, ayniqsa, samaralidir, degan xulosaga kelishdi.

### 3. DEMOKRATIK SAYLOV PRINSIPLARI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonuni saylov tizimining negizi bo‘lib, ularda saylov tizimining demokratik prinsiplari mustahkamlab qo‘yilgan.

Umumiylik prinsipi ham saylovchilar uchun, ham nomzodlar uchun ro‘yxatdan o‘tishning ochiqqligini ta‘minlaydi. Saylov o‘tkaziladigan kunga qadar 18 yoshga to‘lgan fuqarolarga saylovda ishtirok etish huquqi havola etilishi lozim.



#### ***Qonun belgilaydi***

Har bir fuqaro-saylovchi bir ovozga ega. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, mashg‘ulot turi va xarakteridan qat‘i nazar, teng saylash huquqiga egadirlar.

#### **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonun, 3-modda.**

Saylov uchastkalari ishining tashkil etilishi ham saylov huquqi umumiyligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi. U saylovchilarga maksimal qulay shart-sharoitlar yaratib beriladigan bir tarzda tashkil etiladi: saylov uchastkalari yashash joyiga bevosita yaqin joylashtiriladi; saylov dam olish kuniga tayinlanadi va ertalab soat 6 dan kechqurun soat 20 gacha davom etadi; ovoz berish joyi to‘g‘risida har bir saylovchiga bildiriladi; tiqilinch navbatda turishlar va ovoz berish uchun boshqa to‘sqinliklar bo‘lmasligi maqsadida ovoz berish uchun zarur miqdorda maxsus xonalar jihozlanadi.

Basharti, salomatligi holatiga ko‘ra yoki boshqa sabablarga ko‘ra saylovchi saylov uchastkalariga kela olmasa, ularning iltimosiga binoan ovoz berish o‘z yashaydigan joyda tashkil etiladi.



## Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilikdan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 117-moddadan.**

Saylovchilar ularning familiyalari ro‘yxatlarga kiritilganiga hamda o‘zlari haqidagi ma’lumotlar soxtalashtirilmaganiga ishonch hosil qilishlari uchun saylov uchastkalarida saylovchilarning ro‘yxatlari ular tanishib chiqishlari uchun osib qo‘yiladi.

Tenglik prinsipi har bir saylovchining ovozi teng kuchga ega ekanligini anglatadi.

Yashirinlik prinsipi saylovchiga qandaydir chetdan nazoratsiz va begonalarning ishtirokisiz ovoz berishni kafolatlaydi. Ovoz berish sirini ta’minlash maqsadida saylovchi maxsus tayyorlangan kabinaga kiradi, saylov byulletenini to‘lg‘azadi, ya’ni o‘zi qarshi ovoz beradigan nomzodlar familiyasi ustiga chizadi va uni o‘zi qo‘li bilan saylov qutisiga tushiradi.



## Qonun belgilaydi

Oliy Majlis deputatlari saylovida ovoz berish erkin va yashirindir. Ovoz beruvchilarning xohish-irodasi bildirilishi ustidan nazorat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonuni, 5-modda.**

Ochiqlik prinsipi saylov vaqtida qoidabuzarlik imkoniyatini cheklaydi, ovozlar sanalayotganda va rasmiy natijalarni e’lon qilayotganda halollik bo‘lishini ta’minlaydi.

Saylov kompaniyasida saylovlar ustidan nazorat qilish imkoniyati muhim masaladir. Bu narsa ular qanchalik demokratik tarzda, halol va to‘g‘ri o‘tkazilganini baholash imkonini beradi.

Ham chet ellik, ham mahalliy kuzatuvchilarning ishtirok etishi saylov o‘tkazilayotgan davlatning nufuzini oshirishi mumkin, ayni mahalda bunda kuzatuvchilar saylov jarayoniga aralashmaydilar, balki faqat unga mustaqil baho beradilar, xolos.

Saylovga tayyorgarlik va uni o‘tkazishdagi barcha tadbirlarda, shuningdek, ovoz berish xonalarida saylov kunida va ovozlar sanalayotganda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan bittadan kuzatuvchi, matbuot, televideniye va radiodan vakillar, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar ishtirok etishga haqlidirlar.

Saylov faqat siyosiy partiyalar yoki guruhlar qarashlarini emas, butun xalq manfaatlarini ko‘zlab o‘tkazilishi lozim. Har bir fuqaro agar o‘zi ovoz bermagan nomzod hukumat tepasiga kelgan taqdirda ham, huquqlari va manfaatlari himoya qilinishiga ishonch hosil qilishi lozim.



### Topshiriq

*Siz qanday hisoblaysiz?*

1. Nima deb o‘ylaysiz, garchi inson 16 yoshda pasport olsa ham, saylovlarda 18 yoshdan boshlab ishtirok etadi, jinoiy javobgarlik esa ba’zi hollarda 13 yoshdan boshlanadi?

2. Viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarini istisno qilganda, hukumat a’zolari, Bosh prokuror va prokuratura organlarining mansabdor shaxslari, vazirliliklar, idoralar rahbarlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari nima uchun deputat etib saylangan taqdirda egallab turgan lavozimidan ozod etish to‘g‘risida ariza berish sharti bilan Oliy Majlis deputatligiga nomzod sifatida ro‘yxatga olinadi?

3. Nega hokimiyatning davlat organlariga saylovlar to‘g‘risidagi qonuniga saylovlarga kelmaganlik uchun jinoiy javobgarlik haqidagi qoida kiritilmagan?





## ***Yakunlarni chiqaramiz***

### **Saylov tizimi**

- ➔ davlat hokimiyati organlarini umumxalq saylovlari orqali shakllantirish;
- ➔ ovoz berish – hokimiyatga da’vogarlik qilayotgan turli shaxslar va partiyalarga munosabatni bildirish shakli;
- ➔ saylash huquqi – 18 yoshdan boshlab, mamlakat fuqarolari;
- ➔ saylov huquqidan mahrum etilganlar: huquqiy layoqatsizlar,
- ➔ qamoq joylarida saqlanayotganlar
- ➔ muqobil saylov;
- ➔ majoritar va proporsional saylov tizimi;
- ➔ umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi;
- ➔ yashirin ovoz berish;
- ➔ nazorat: saylovlarda kuzatuvchilarning hozir bo‘lishi;
- ➔ saylov to‘g‘risidagi qonunni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.



## ***O‘zingizni sinang!***

1. Yashirin ovoz berish chog‘ida umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi nimani anglatadi?
2. O‘zbekiston Respublikasida kim saylash huquqiga ega?
3. Saylov komissiyasi faoliyatida oshkoralik qanday rol o‘ynaydi?
4. O‘zbekistonda qaysi saylov tizimi modeli qabul qilingan?
5. O‘zbekiston Respublikasining saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari fuqarolarga qanday huquqlarni taqdim etadi?

## **26-§. AMALIY DARS.**

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLIS DEPUTATLARI VA SENATORLARI SAYLOVI**

#### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

– saylov kampaniyasini o‘tkazish tartibi haqida;

- ovoz berish mexanizmi haqida;
- saylov jarayoni turli ishtirokchilarining roli haqida bilib olasiz.

- 1. Oliy Majlisga deputatlar va senatorlar saylovini o‘tkazish tartibi.**
- 2. Maktab Kengashi saylovi.**

## **1. OLIY MAJLISGA DEPUTATLAR VA SENATORLAR SAYLOVINI O‘TKAZISH TARTIBI**

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”gi va “Viloyat, tuman va shahar kengashiga saylov to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq saylov jarayonlari quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Saylov sanasini belgilash.
2. Markaziy saylov komissiyasini tashkil etish.
3. Saylov okruglari, uchastkalarini tuzish.
4. Saylov komissiyasini tuzush.
5. Saylov kampaniyasi boshlanganligini e‘lon qilish.
6. Deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatish va ro‘yxatga olish.
7. Saylovoldi targ‘iboti.
8. Saylovchilar ro‘yxatini tuzish.
9. Saylovchilar byulletenini tayyorlash.
10. Ovoz berish va saylov natijalarini aniqlash.
11. Deputatlarni ro‘yxatga olish va saylov natijalarini e‘lon qilish.
12. Nomzodlar yetarli miqdorda ovoz ololmagan saylov uchastkalarida qayta saylov o‘tkazish.



### **Topshiriq**

Prezidentlikka hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligi va Oliy Majlis Senati a‘zoligiga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Davlat boshlig‘i va mamlakat oliy organlari deputatlari va senatorlari saylandi, ya‘ni saylov uchastkalariga kelganlarning ko‘pchiligi ular uchun ovoz berdi.

*Sizningcha, ana shu ko‘pchilik jumlasiga kiruvchi saylovchi siyosiy jihatdan qanday o‘ringa ega?*

Albatta, aksariyat hollarda bu odam mamlakat siyosiy hayotini diqqat bilan kuzatib boradi. Hokimiyat tepasida kim turganligi va o‘zi yashab

turgan mamlakat kelajagi qanday bo'lishi unga baribir bo'lmaganligi uchun ham shunday qiladi.

Negaki, huquqiy davlat barpo etish tajribasi mamlakat qonun chiqaruvchi organiga va joylardagi hokimiyat vakillik organlariga ko'p narsa bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Deputatlar va senatorlar qonunlarni tayyorlaydilar va tasdiqlaydilar, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar, mamlakat budjetini muhokama qiladilar va tasdiqlaydilar, ijro etuvchi hokimiyatning eng mas'ul vakillarini lavozimiga tasdiqlaydilar, Konstitutsiya, qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari ro'yobga chiqarilishida ko'mak beradilar.

## 2. MAKTAB KENGASHINI SAYLASH

Maktabni jajji davlatga qiyoslash mumkin. Saylovni o'tkazish tartibini o'rganish, maktabning o'zini o'zi boshqarish organi – maktab kengashini saylashga harakat qiling.

Maktab kengashiga nomzodlar maktab hayoti islohotlarini o'tkazish real dasturlarini ishlab chiqishlari lozim. Ta'lim oluvchining insoniy qadriyatini hurmat qiluvchi maktab intizomini saqlash borasidagi o'z uslublaringizni taklif eting. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilar huquqlari va majburiyatlari dasturiga kiriting.

Ularning dasturlarini muhokama qilgandan keyin nomzodlar saylovini O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" uruhga bo'lining:

- saylov komissiyasi;
- partiyalar va ularning nomzodlari;
- ommaviy axborot vositalarining vakillari.

### **I bosqich: Saylovoldi kampaniyasiga tayyorgarlik**

#### **Saylov komissiyasi a'zolari.**

Guruh komissiya raisi va kotibini saylaydi, saylov o'tkaziluvchi joyni belgilaydi, saylovchilar ro'yxatlarini tuzadi, saylov byulleteni, ovozlarni hisoblash protokoli shaklini tayyorlaydi, ovoz berish xonasi, saylov qutisi va boshqa jihozlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

#### **Partiyalar va ularning nomzodlari.**

Guruh kamida ikkita partiya tuzadi, ularning dasturlarini tayyorlaydi, saylovoldi dasturlari taktikasini ishlab chiqadi, maktab kengashi a'zoliciga nomzodlarni ko'rsatadi, nomzodlarni yoqlab varaqalar chiqaradi, ularning saylovchilar oldidagi nutqlarini tayyorlaydi.

Sinfdoshlaringizni Sizning dasturingiz eng yaxshi ekanligiga ishon-tiring.

### **Ommaviy axborot vositalarining vakillari:**

Guruh nomzodlardan, saylovchilardan, saylov komissiyasi a'zolaridan intervyu oladi, saylovoldi kampaniyasi borishini yorituvchi materiallar tayyorlaydi.

## **II bosqich: Saylovoldi kampaniyasi**

Saylov komissiyasi a'zolari saylovchilar ro'yxatlarini tuzadi.

Partiyalar nomzodlar hamda ularning saylovoldi dasturlari haqida hikoya qiluvchi plakatlarini osib chiqadi, varaqalar tarqatadilar, targ'ibot yuritadi. Ishonchli vakillar esa o'z dasturiy bayonotlari bilan nutq so'zlovchi o'z nomzodlarini tanishtiradi.

Shundan keyin nomzodlar saylovchilar, ommaviy axborot vositalari-ni-ning vakillari, boshqa muqobil nomzodlar savollariga javob beradi.

## **III bosqich: Saylov**

Saylov uchastkasiga birinchi bo'lib saylov komissiyasi a'zolari, parti-yalardan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinadi.

Saylov komissiyasi uchastkada ishlarni tashkillashtiradi. Saylovchilar ovoz berishda ishtirok etadilar. Shundan keyin barcha ishtirokchilar hozirligida saylov yakunlari e'lon qilinadi.



### **O'zingizni sinang!**

1. Saylov jarayonida saylovchi qanday rol o'ynaydi?
2. Saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalarining vazifasi nimalar-dan iborat?
3. Siz bo'lajak saylovchi sifatida nimalarni o'rgandingiz?
4. Maktab kengashiga o'tkazilgan saylov jarayonida o'zingizning va o'z sinfdosh-laringizning ishtirokini qanday baholaysiz?

## 27-§. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PROKURATURA ORGANLARI

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

- qonunlar ijro etilishi ustidan nazorat qilish borasida prokuratura organlari faoliyati haqida;
- prokuratura xodimlarining huquqlari va majburiyatlari haqida;
- O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyatining xususiyatlari haqida bilib olasiz.

### **1. Prokuror – qonun himoyachisi.**

### **2. Prokuratura organlari.**

### **3. Prokuror nazoratiga oid hujjat turlari.**

## **1. PROKUROR – QONUN HIMOYACHISI**

Fuqarolar huquqlarini himoya qilishning qanday yo‘llarini bilishingizni eslang.

Albatta, bu murojaat birinchi navbatda jamoat tashkilotlariga (kasa-ba uyushmalariga) va huquqni muhofaza qilish organlariga qaratilgan. Masalan, Sizning huquqlaringizga putur yetkazilganligi yuzasidan sudga murojaat qilganingizda ushbu holda qonun buzilmagan deb hisoblab ishingizni ijroga qabul qilishni rad etishsa, unda nima qilmoq kerak? Bundan keyin nima qilasiz? Sudyaning qaroriga rozi bo‘lasizmi? Agar chindan ham o‘zingiz haqligingizga ishonsangiz, qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi maxsus organga – prokuraturaga murojaat qilishga haqlidirsiz.

Asli lotincha “*prokuror*” so‘zining tarjimasida “*g‘amxo‘rlik qilmoq*”ni anglatadi. Ushbu holda esa bu so‘z davlatning barcha qonunlariga aniq va so‘zsiz rioya etilishi borasida g‘amxo‘rlik qilish ma’nosida qo‘llaniladi.

Prokuratura organlari fuqarolarning davlat va jamoat tashkilotlariga arizalari va shikoyatlarini, murojaatlarini ko‘rib chiqadilar, putur yetkazilgan huquqlar tiklanishi borasida chora-tadbirlar ko‘radilar va fuqarolar hamda tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar.

Prokuratura organlari sud tizimiga kirmaydi va suddan mustaqildir. Sud majlisida ishtirok etish asnosida prokuror davlat nomidan prokuror

nazoratini amalga oshiradi, ya'ni sudlarning harakatlarida qonun buzilishiga yo'l qo'yilganligi yoki aksinchaligini aniqlaydi.

Jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda prokuror sudda davlat ayblovchisi sifatida ish ko'radi – qonunga muvofiq sudlanuvchiga nisbatan jazo chorasini belgilaydi. Sud tomonidan qonunga mos bo'lmagan qaror qabul qilingan holda esa prokuror yuqori turuvchi sudga protest bilan, ya'ni sudning ana shu qarorini qonunga muvofiq bo'lmagan tariqasida ko'rib chiqish talabi bilan murojaat qiladi. Hatto sud qarori kuchga kirganidan keyin ham prokuratura organlari qamoqqa mahkum etilganlarning huquqlari ularni qamoqda saqlash joylarida buzilmasligi ustidan nazorat qiladi.



### Asosiy qonun belgilaydi

O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 118-modda.**

## 2. PROKURATURA ORGANLARI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 119-moddasiga muvofiq prokuratura organlarining markazlashgan yagona tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi Farmoni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Jo'qorg'i Kenges tomonidan tayinlanadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi. U O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi oldida javobgar hisoblanadi.

Shaharlar, tumanlar va viloyatlar prokurorlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining vakolat muddati – besh yil.



### 1-topshiriq

*Sizningcha, respublikada prokurorni tayinlashning bunday tartibi nima sababdan qabul qilingan? Siz qaysi usulni (tanlov, imtihon bo‘yicha saylash va hokazolar) taklif etgan bo‘lardingiz? O‘z javobingizni asoslab bering.*

### Prokuratura organlari tizimiga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi;
- Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturasi;
- viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;
- tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida soliq va valuta-ga oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari faoliyat yuritadi.

## 3. PROKUROR NAZORATIGA OID HUJJAT TURLARI

Qonun buzilganligini aniqlab, prokuror quyidagi choralarni ko‘rishi mumkin: **protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantirish.**

Qonunga zid hujjat qabul qilinganda prokuror uni qabul qilgan organga **protest** kiritadi. Xuddi shunday tartibda mansabdor shaxsning noqonuniy qarori uchun ham prokuror tomonidan protest kiritiladi.

Protest kelib tushgach, o‘n kundan kechiktirilmagan holda ko‘rib chiqilishi kerak. Protest ko‘rib chiqilganligi haqidagi natija uch kun ichida prokurorga yozma ravishda ma’lum qilinadi.

Mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan qonun buzilishining mazmunidan kelib chiqqan holda prokuror jinoiy ish qo‘zg‘atish to‘g‘risida, ma’muriy javobgarlik ishlab chiqish to‘g‘risida **qaror** chiqaradi.

Qonun buzilishini bartaraf etish, uning sabablari va yo‘l qo‘yilishiga sababchi sharoitlar to‘g‘risidagi **taqdimnoma** prokuror tomonidan organga yoki qonun buzilishini bartaraf etishga mas‘ul mansabdor shaxsga kiritiladi. Taqdimnoma kechiktirilmay ko‘rib chiqilishi shart va ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida bir oy ichida prokurorga yozma ravishda ma‘lum qilinishi kerak.

Prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun **ariza** bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Fuqarolarning qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlari, huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan noqonuniy xatti-harakatlar haqida ishonchli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda, prokuror tomonidan qonun buzilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi to‘g‘risida yozma shaklda mansabdor shaxslarga va fuqarolarga **ogohlantirish** ma‘lum qilinadi va qonun buzganligi uchun javobgar ekanligi uqtiliriladi. Shu o‘rinda alohida qayd etish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘z faoliyati haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga muntazam hisobot berib turadi.



## 2-topshiriq

1. Qotillik sodir etildi. Qotilni jinoyat qilganlikda ayblash maqsadida jinoiy qidiruv boshlig‘i qotillikda gumon qilinayotgan shaxsga keladigan barcha xatlarni ochib o‘qish to‘g‘risida buyruq berdi.

*Sizningcha, prokuror ushbu qarorni bekor qilishi lozimmi?*

2. Ba‘zi hollarda sud muhokamasi davomida prokuror sudlanuvchini umrbod qamoq jazosi tayinlanishini talab qilishga majburdir.

*Sizningcha, bu hol mamlakatda shafqatsizlik keng tarqalishiga imkoniyat yaratmaydimi?*

Qonunlarni ishlab chiqishda prokuratura organlarining har qanday davlat organlaridan, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan to‘liq mustaqil bo‘lishlari masalasi hal etilishi zarur edi.

## Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasida quyidagi chora-tadbirlar belgilangan:

- prokuratura organlarida siyosiy partiyalar va harakatlar tashkil etish taqiqlangan;
- prokurorlar o‘z vakolatlari amal qiladigan davrda siyosiy partiyalar hamda siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalarida a‘zolikni to‘xtatib turadilar;
- prokurorlarga pullik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanish va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish (ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat bundan mustasno) taqiqlanadi;
- prokurorlarning boshqa tashkilotlarda va korxonalarda o‘rindoshlik asosida ishlashi taqiqlangan (o‘quv va ilmiy muassasalardan tashqari);
- prokurorlar va prokuratura tergovchilari davlat muhofazasidadir va xizmat daxlsizligiga egadir, ya‘ni ularga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlarini tergov qilish faqat prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining jinoyat ishlari tergov qilinayotganda, shikoyatlar, arizalar va hokazolar ko‘rib chiqilayotganda prokuratura faoliyatiga aralashuvi taqiqlangan;
- O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati oldida hisob berishi shartdir.



### 3-topshiriq

1. *Prokuratura organlari mustaqilligi muammosini hal etish borasida o‘z chora-tadbirlaringizni taklif eting.*
2. *Balki, Siz prokuratura organlariga juda ko‘p vakolatlar berilgan, ular tomonidan hokimiyat suiiste‘moliga yo‘l qo‘yilishi ehtimoldan xoli emas, deb hisoblarsiz? Xo‘sh, prokuratura organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish uchun nimani taklif etasiz?*
3. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq prokuror lavozimini egallab turgan davrda prokurorning boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi va partiyalarga yoki ommaviy harakatlarga a‘zo bo‘lishi taqiqlangan.*  
*Fikringizcha, bu taqiqlar prokurorlarning mamlakat fuqarosi sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarini buzmaydimi?*



### ***Yakunlarni chiqaramiz***

#### **Saylov tizimi**

- prokuratura – qonunlarning bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat;
- prokuror – sudda davlat ayblovcisi sifatida;
- prokuratura sud tizimiga kirmaydi;
- prokuratura organlariga Bosh prokuror rahbarlik qiladi;
- prokurorlarga taqiqlangan:
  - siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlarda ishtirok etish;
  - tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, deputat bo‘lish, o‘rindoshlik asosida ishlash;
- moliyaviy ta’minot faqat davlat budjeti hisobidan;
- “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun (09.12.1992-yil, o‘zgartirishlar kiritilgan).



## O'zingizni sinang!

1. Prokuratura organlari nima maqsadda tashkil etilgan?
2. Prokuror sudda qanday rol o'ynaydi?
3. Prokuratura organlarini kim boshqaradi va ular faoliyatini kim nazorat qiladi?
4. Qonun buzilgan holatlar aniqlangan hollarda prokuror tomonidan qanday chora-tadbirlar ko'riladi?
5. Prokuraturaga murojaat qilishning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Prokuratura organlarining moliyaviy ta'minoti qanday yuz beradi?

## Bizning maslahatlarimiz.

### SIZNING UYINGIZ – SIZNING QO'RG'ONINGIZ

Xonadoningiz kalitini hech mahal pochta qutisida, gilamcha tagida, boshqa istalgan shartli joyda qoldirmang. Eng maqbul variant – kalitni qo'shnilaridan birida qoldiring.

Mabodo uyda bir o'zingiz bo'lsangiz, eshik taqillaganda yo qo'ng'iroq jiringlaganda ochmang, eshik ortida turgan holda so'zlashing. Qandaydir yordam, suv berish borasidagi iltimosga, elektr hisoblagichni yoki gazni tekshirib ko'rish to'g'risidagi taklifga: “Kattalar uyda yo'q, keyinroq keling”, qabilida javob qiling.

Xonadoningizga kirib olish borasidagi xiralik davom etaversa, ikkilanmang, militsiyaga qo'ng'iroq qiling.

**Ushbu telefon raqamlarini eslab qoling:**

**101 – o't o'chirish xizmati**

**102 – militsiya**

**103 – tez tibbiy yordam**

**104 – gaz xizmati**

**1050 – qutqaruv xizmati**

## 28-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA VA KREDIT

### Mavzu ustida ishlash natijasida:

– O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit tizimining huquqiy asoslari haqida;

- bank va pul tizimining huquqiy asoslari haqida;
- mamlakat soliq tizimi asoslarining xususiyatlari haqida bilib olasiz.

1. **Huquq va iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi.**
2. **Davlatning moliya tizimi.**
3. **O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi.**
4. **Davlatning bank tizimi.**
5. **Soliqlar nega kerak?**

## 1. HUQUQ VA IQTISODIYOTNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Biz yashayotgan zamon – bozor munosabatlari gurkirab rivojlanayotgan, turli mulk shakllari paydo bo‘layotgan va takomillashib borayotgan davrdir. Bugun respublikamizda yashab turgan har bir kishida o‘z korxonasini ochish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish va shu tariqa o‘z farovonligini ta‘minlash imkoniyati yuzaga keldi.



### Asosiy qonun belgilaydi

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 53-moddadan.**

Huquq normalari mamlakatda shakllangan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlab qo‘yadi va bu bilan iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi. Huquqiy normalar (qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlari) tadbirkorlikni rivojlantirishga, mulkchilikning turli shakllarini mustahkamlashga ko‘mak beradi, tadbirkorlar va biznesmenlar manfaatlarini himoya qiladi. Binobarin, Konstitutsiyada davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, shuningdek, barcha mulk shakllarining huquqiy muhofaza etilishini kafolatlashi to‘g‘risidagi qoida mustahkamlab qo‘yilgan.



### Asosiy qonun belgilaydi

Davlat iste‘molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllari-

ning teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 53-moddadan.**

#### **Shunday qilib, huquq iqtisodiyotga quyidagicha ta’sir o‘tkazadi:**

- qonunlar shakllangan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlaydi;
- huquq mamlakat iqtisodiy rivojlanishi barqarorligini tan oladi va kafolatlaydi;
- huquq yangi iqtisodiy munosabatlar yaratilishi va rivojlantirilishiga ko‘mak berishi mumkin.



#### **1-topshiriq**

*Sizningcha, tadbirkorlik bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi uchun inson qanday fazilatlariga ega bo‘lishi kerak? Barcha xohlovchilar bozor munosabatlarini rivojlantirishda ishtirok etishlari uchun mamlakatda qanday shart-sharoitlar yaratib berilishi lozim?*

## **2. DAVLATNING MOLIYA TIZIMI**

Davlatning moliya tizimi davlat pul mablag‘lari jamg‘armalarini yaratish, taqsimlash va foydalanishi uchun mavjud bo‘ladi. Moliya tizimiga mamlakatning moliya muassasalari – banklar, omonat kassalari va hokazolar kiradi.



#### **Asosiy qonun belgilaydi**

O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega. O‘zbekistonning Davlat budjeti Respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 122-modda.**

**Davlatning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:**

- budjetni qabul qilish, ijro etish, uning ustidan nazorat qilish;

- soliq yig‘ish;
- pul belgilarini chiqarish hamda moliya va iqtisodiyot sohasida tartib saqlash;
- kreditlar, imtiyozlar va hokazolarni berish;
- moddiy yordamga muhtoj fuqarolar (nogironlar, yetimlar va hokazolarni) ijtimoiy muhofaza qilish;
- madaniyat-ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro hamkorlik.



### **Yodda tuting!**

**Moliya** (fransuzcha “*finance*” – *naqd, daromad*) – keng ma’noda: pul mablag‘lari, davlat pul mablag‘larining aylanishi.



### **2-topshiriq**

*O‘zingizni davlatning Moliya vaziri o‘rnida tasavvur qiling. Mamlakat asosiy mablag‘larini iqtisodiyotning qaysi tarmoqlariga sarflagan bo‘lardingiz? Bunda ana shu mablag‘lardan muvaffaqiyatli foydalanishni ta’minlash uchun qanday qonunlar qabul qilinishini maslahat bergan bo‘lardingiz?*

## **3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PUL TIZIMI**

O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi rasmiy pul birligini, pul muomalasi tashkil etilishi va tartibga solinishini o‘z ichiga oladi. 1994-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi rasmiy pul birligi – so‘m muomalaga kiritilgan. 1994-yil 15-noyabrdan e’tiboran respublika hududida barcha to‘lovlar va hisob-kitoblar faqat milliy valutada – so‘mda amalga oshiriladi.

**So‘m** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki chiqaradigan qog‘oz banknotlar va metall tangalar. O‘zbekiston Respublikasida so‘m yagona pul vositasi sanaladi.

## 4. DAVLATNING BANK TIZIMI

Banklar tashkil etilishi va faoliyati huquqiy negizini “Banklar va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hujjatlari tashkil qiladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank tizimining ikki bo‘g‘ini mavjud: quyi bo‘g‘in – kredit tashkilotlari va xorijiy banklarning moliyaviy mablag‘lari, oliy bo‘g‘in – O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki.



### Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 124-modda.



### Yodda tuting!


**Bank** (italyancha “*banka*” – o‘rindiqlik yoki fransuzcha “*banque*” – sandiq) – yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (hissalar) qabul qilinishini hamda qabul qilib olingan mablag‘lardan kreditlar berish va har xil to‘lovlar amalga oshirilishi uchun foydalanishni ro‘yobga chiqaruvchi yuridik shaxs.

O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bank to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Markaziy bank milliy valuta barqarorligini muhofaza qilish va ta‘minlashga yo‘naltirilgan yagona pul-kredit siyosatini ishlab chiqadi va yuritadi. O‘zbekiston Respublikasida naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olib qo‘yishning mutlaq huquqi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taalluqlidir. Banknotlarning qalbakilashtirilishi va qonunga xilof yasalishi qonun tomonidan ta‘qib etiladi.

## 5. SOLIQLAR NEGA KERAK?

**Soliq** – barcha yuridik va jismoniy shaxslar davlat yoki mahalliy budjetga amalga oshiradigan umummajburiy to‘lovlarning bir turi.

16-sxema.



Soliqlarni belgilash, yuritish va to'lash bilan bog'liq barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan boshqariladi. Mazkur Kodeksga muvofiq soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining barcha hududida soliq to'lovchilar uchun yagona sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-moddasiga muvofiq, soliq qonunchiligi soliq to'lashning majburiylik, soliqqa tortishning adolatlilik, soliq qonunchiligining oshkoralik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi printsiplariga asoslanadi.



Soliqqa tortish **bevosita** – hisobga olingan daromaddan yoki mol-mulk qiymatidan hamda **bilvosita** bo‘ladi, ya’ni tovar va xizmatlar narxini, aksiz solig‘ini, bojxona bojlarini va hokazolarni oshirish orqali undiriladi.



### Qonun belgilaydi

Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shart.

## O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 6-modda.



### 3-topshiriq

*Sizningcha, soliq iqtisodiyotga va mamlakat aholisining turmush darajasiga qay tarzda ta’sir o‘tkazadi?*

*Soliqlar yig‘imi bo‘lmagan mamlakatni ayta olasizmi?*

Soliqlar yig‘imisiz mamlakat mavjud bo‘la olmaydi. Chunki davlat ta’lim berish, mamlakat chegaralarini qo‘riqlash va davlat ichkarisida tartib saqlash, davlat organlarining ishini muvofiqlashtirish kabi vazifalarni o‘z zimmasiga olgan. Soliq yig‘imi bo‘lmasa, faoliyati moddiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha shaxslarga mehnat haqini to‘lash imkoniyati ham bo‘lmaydi.



### Asosiy qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.

## O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 123-modda.



### 4-topshiriq

*Soliqlarni to‘lamaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishni adolatli deb hisoblaysizmi? O‘z javobingizni asoslab bering.*

Chinakamiga baxtli odamlarning aksariyati o‘zlarini shaxs sifatida namoyon eta olganlari – o‘z niyatlarini jamiyatga kerakli ishda ro‘yobga chiqarganlari, o‘z xatti-harakatlari orqali iqtisodiy mustaqillikka erishganlari uchun ham o‘zlarini shunday deb hisoblaydilar.

Kasbni tanlash uchun maktabdagi o'qish va ota-onalar maslahati hal qiluvchi ahamiyatga ega.



## ***Yakunlarni chiqaramiz***

### **O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit**

- o'z moliya va kredit tizimi;
- asosiy vazifa – budjetni qabul qilish va ijro etish, soliqlar yig'imi;
- pulni muomalaga chiqarish;
- moliya tizimi – banklar, omonat kassalari;
- 1994-yil 1-iyul – milliy valuta – so'm muomalaga kiritildi;
- Markaziy bank, bank tizimiga rahbarlik qiladi;
- bosh maqsad – valuta barqarorligini ta'minlash;
- soliq – fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyati;
- daromad solig'i;
- soliqlarni Oliy Majlis belgilaydi.



## ***O'zingizni sinang!***

1. Huquq jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar rivojiga qay tarzda ta'sir o'tkazadi?
2. Davlat moliya va kredit tizimining asosiy manbalarini ayting.
3. Davlat moliya va bank tizimini tarkib toptiruvchi muassasalarni sanang.

## **29-§. KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH**

### **Mavzu ustida ishlash natijasida:**

– konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish shartlari va tartibi haqida hamda jahonda ana shu tartibga beriladigan ahamiyati haqida bilib olasiz.

### **1. Jamiyatga Konstitutsiya nega kerak?**

### **2. Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish shartlari.**

Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy rivojlanish tarixi ba'zi konstitutsiyalar asrlar davomida o'zgarmasdan, o'z amalining muntazamligi bilan ajralib turishidan dalolat beradi. Boshqalari esa, aksincha, tez-tez qayta ko'rib chiqishga, bir-birining o'rnini egallashga duchor etilgan.

Asosiy qonun har qaysi sivilizatsiyalashgan jamiyat hayotida muhim rol o'ynashini isbotlab o'tirishga uncha ehtiyoj bo'lmasa kerak. Konstitutsiyada davlat tomonidan kafolatlanadigan eng barqaror, doimiy huquqlar va ijtimoiy hayot me'yorlari mustahkamlab qo'yilgan.



### **1-topshiriq**

*Sizningcha, konstitutsiya o'z negizida o'zgarmasdan qolishi yoxud tez-tez o'zgartirishlarga va hatto tubdan qayta ko'rib chiqishga duchor etilishi kerakmi? O'z javobingizni dalilllashtiring.*

Garchi Konstitutsiya hajm jihatdan uncha katta bo'lmagan hujjat bo'lsa-da, u jamiyat hayotining barcha – siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy, shaxsiy, mehnat qilish va hokazo sohalariga ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatlarining tartibga solinishi, jamiyat tuzilishi va hokimiyatning tashkillashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan masalalar konstitutsiya tomonidan qanchalik uzoqni ko'zlab hal etilsa, mamlakat ijtimoiy hayotining rivojlanishiga uning ta'siri ham shunchalik barqaror bo'ladi. Aynan shuning uchun ham mamlakat konstitutsiyasiga tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritib boraverish nihoyatda ko'ngilsiz bir holdir.

Ammo sobitqadamlik va barqarorlik Asosiy qonunga o'zgartirishlar yoki tuzatishlar kiritish imkoniyatini aslo istisno etmaydi, albatta. Chunki bunday o'zgartirishlarga ehtiyojni ham hayotning o'zi dunyoga keltiradi.

Hech qaysi qonun o'zgartirish yoki qo'shimchalarga ehtiyoj sezmaydigan bir darajada mukammal bo'lmaydi. Bu mutlaqo tabiiydir, negaki hayot har doim rivojlanib boradi va yangilanadi. Kecha yangi bo'lgan narsa bugunga kelib eskiradi. Shuning uchun ham konstitutsiyaning ayrim qismlari davlat va jamiyat organlarining normal faoliyatiga to'sqinlik qila boshlaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini tahqirlaydi. Bunday hollarda

konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish, basharti, hatto qaror topgan qarashlar va e'tiqodlar o'zgartirilishini talab etgan taqdirda ham, muqarrar tus oladi.

Hayotning o'zi amaldagi qonunlarga muayyan tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilishini talab qiladi.

Jahon amaliyotida konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritishdan keng foydalaniladi. Ma'lumki, hatto qabul qilinganiga ikki yuz yildan oshib ketgan AQSH Konstitutsiyasi singari barqaror amal qiluvchi konstitutsiyaga ham 27 ta tuzatish kiritilgan edi.

Jahonda qabul qilingan paytidan buyon biron-bir o'zgartirishga uchramagan konstitutsiyalar ham mavjud. Ular jumlasiga, masalan, Yaponiyaning 1947-yilgi Konstitutsiyasi va Daniyaning 1953-yilgi Konstitutsiyasi kiradi. Hozirda faqat bir necha davlatlarga (Buyuk Britaniya, Isroil, Saudiya Arabistoni, Butan va Ummon) qonunlarning konstitutsiyaviy majmuasiga ega emas.



## 2-topshiriq

*O'zingizni Asosiy qonunni o'zgartirish bo'yicha konstitutsiyaviy komissiya a'zosi sifatida his qiling.*

*Konstitutsiyaga bir qancha o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqishingiz kerak:*

– bir qator jamoat tashkilotlarining komissiyaga murojaatlarida o'zlariga qonunchilik tashabbusini birlashtirib qo'yish to'g'risidagi masalani qo'yishmoqda;

– saylovchilar guruhi nopok ishlar bilan shug'ullangan deputatni chaqirib olishmoqchi;

– bir guruh huquqshunos olimlar va tergovchilar jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarning telefon orqali so'zlashuvlarini eshittishga ruxsat etilishi to'g'risidagi taklifni kiritishmoqchi.

*Aytib o'tilgan takliflarni ko'rib chiqishni qabul qilasizmi? O'z javobingizni asoslab bering.*

## 2. KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH SHARTLARI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida uning tez-tez o'zgartirilishiga to'sqinlik qiluvchi barqarorligini ta'minlash borasidagi bir

qator muhofazakor choralar nazarda tutilgan. Ular Asosiy qonunning 6-bo'limida bayon etilgan bo'lib, unda tuzatishlar kiritish tartibi va shartlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritishga qonunga ko'ra faqat buning uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonidan uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda yoki O'zbekiston Respublikasi referendumi davomidagina yo'l qo'yiladi. Qonunchilik organi tegishli taklif kiritilganidan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har tomonlama muhokamani inobatga olgan holda qaror qabul qilishi mumkin.

Agar Oliy Majlis o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, u kamida bir yildan keyingina Oliy Majlis muhokamasiga qayta kiritilishi mumkin.



### **Asosiy qonun belgilaydi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 128-modd.**

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2014-yil 16-aprelda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq (32, 78, 93, 98, 103, va 117-moddalar) Konstitutsiya moddalariga mos keladigan quyidagi yangi tartib-qoidalar kiritildi:

- hukumat mamlakatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha yillik ma'ruzani parlamentga taqdim etish majburiyatini oladi;
- hokimlar viloyatlar, tumanlar va shahar xalq deputatlari Kengashiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim va dolzarb masalalari bo'yicha hisobotlarni taqdim etadi;

– Bosh vazir lavozimiga nomzod uning nomzodligi parlamentda ko‘rib chiqilayotganda hukumatning yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan das-turini taqdim etadi.

Shu bilan birga, vakolatli deputatlar organlarining roli va ahamiyati, ularning jamiyat hayotidagi imkoniyatlari oshadi, shuningdek, siyosiy partiyalarning, mahalliy kengashlardagi deputatlar guruhining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlantirish ustuvorligini aniqlashdagi rolini oshiradi.

Bu bilan esa vakillik deputatlik organlari roli va ahamiyati ortadi, jamiyat hayotida ularning real imkoniyatlari tubdan o‘zgaradi, shuning-dek, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirilishi ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlardagi ularning deputatlik guruhlari roli sezilarli kuchayadi.

Bu, shuningdek, samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit si-yosatini amalga oshirish, fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash hamda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish va ularni ro‘yobga chiqarish uchun mansabdor shaxslarning mas’uliyatini yanada oshirishga imkoniyat yaratadi.

**Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar quyidagi maqsadlarda kiritiladi, chunon-chi:**

– hokimiyat va boshqaruv tizimni yanada demokratlashtirish;  
– “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili bosqich-ma-bosqich ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash;

– davlat hokimiyati organlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari rolini oshirish, ichki va tashqi siyosat strategik vazifalarini ro‘yobga chiqarishda ularning huquqlari va vakolatlarini yanada kengay-tirish;

– Vazirlar Mahkamasi va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazorat qilish bo‘yicha oliy qonunchilik organlari, vakillik hokimi-yat organlari funksiyalarini yanada kuchaytirish;

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish uchun hukumat, joylardagi ijroiya hokimiyat organlari mas’uliyatini oshirish;

– qonunchilik, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari mustaqilligi va tengligini, ular vakolatlari balanslashtirilishi, hokimiyat organlari o‘rtasida tiyib turuvchi va muvozanatga solib turuvchi vositalar tizimi samarali ishlab turishini ta‘minlash.

Shunday qilib, o‘tgan davr mobaynida amalda deyarli barcha konstitutsiyaviy qoidalar va me‘yorlar qabul qilingan 600 dan ortiq qonunlarda, shu jumladan, 8 ta konstitutsiyaviy qonunda, 16 ta kodeksda izchil davom ettirildi va yanada rivojlantirildi.

Bunda davlatimiz qonunlariga muvofiq Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar faqat shaxs va jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarini yanada to‘liqroq qanoatlantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadidagina kiritilishini inobatga olish kerak bo‘ladi.



### ***Yakunlarni chiqaramiz***

O‘zbekiston Respublikasi  
ning Konstitutsiyasiga  
o‘zgartirishlar kiritish

- barqaror Konstitutsiya – barqaror jamiyat;
- qonunlarni yangilab borishga ehtiyoj tug‘ilishi;

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar tegishli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismini tashkil etuvchi ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan qonun bilan yoki O‘zbekiston Respublikasi referendumini orqali kiritiladi.



### ***O‘zingizni sinang!***

1. Sizningcha, Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish nimalarga bog‘liq bo‘ladi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, biron-bir o‘zgartirishga ehtiyoj sezmaydigan nihoyatda mukammal konstitutsiyalar ham mavjudmi?
3. Ayting-chi, barqaror amal qiluvchi Konstitutsiya ustunliklari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi masalani hal qilishda demokratik davlat qanday yondashuvlarga amal qiladi?

## XULOSA

Mana, Siz bilan davlatimizning Asosiy qonuni – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi sahifalari bo‘ylab sayohatni ham nihoyasiga yetkazdik.

Siz har bir inson hayotida yuzaga keladigan muammolarning ko‘pchiligini qonunchilik yordamida hal qilish mumkinligiga ishonch hosil qildingiz. Ko‘pchiligini, harholda, hammasini emas. Shu bilan birga, inson xatti-harakatlarining axloqiy normalari, uning axloqiy-ma’naviy fazilatlarini – vijdon, or-nomus, o‘z qadr-qimmatini, hissi va hokazo tushunchalar ham mavjuddir. Bular huquqiy ma’rifat – huquqiy madaniyatning qo‘shimcha unsurlaridir, ya’ni huquq insonga havola etadigan barcha ijobiy va qimmatli narsalarni o‘zlashtirishdir. Axloqiy fazilatlar va huquqiy bilimlar majmuyi yuksak huquqiy madaniyat asosini ham tarkib toptiradi.

Ammo passiv qonunga itoatkorlik – jamiyatga zarur bo‘lgan narsa degani emas, aslo. Ham o‘zining, ham o‘zgalarning qonuniy huquqlarini himoya qilishni bilish, qonun buzilishi bilan murosasizlik kerak, negaki buning oqibatida qonuniylikka va huquqiy davlat barpo etish imkoniyatlariga ishonchsizlik tug‘iladi.

Konstitutsiyaviy huquq, anglaganingizdek, O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida yetakchi tarmoq sanaladi.

Uning yetakchilik roli huquqning barcha boshqa tarmoqlarida konstitutsiyaviy g‘oyalarni rivoj toptirishdagina namoyon bo‘lib qolmasdan, balki huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilishida ham ko‘rinadi.

Shuni unutmaslik kerakki, O‘zbekistonda davlat mustaqilligiga erishilgandan so‘nggina bu strategik muhim maqsad qo‘yildi.

O‘zbekistonning konstitutsiyaviy huquqida huquqiy davlatga xos barcha prinsiplar mujassamlashgan.

Biroq konstitutsiyaviy prinsiplar o'z-o'zidan huquqiy davlat yaratmaydi. Huquqiy davlatni qonunlar emas, insonlarning o'zi, jamiyat yaratadi. Qonunlarning ahamiyati shundaki, ular jamiyat qurilishining huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Umid qilamizki, huquqshunoslik fanidan olgan bilimlaringiz kundalik hayotingizda yuzaga keladigan muammolarni kelajakda emas, bugun ham hal etishga yordam beradi.

Shunday bo'lsa-da, erishilgan narsalar bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari davlatimiz huquq tizimini takomillashtirish ustida ishlarni davom ettirmoqda. Tevarak-atrofigimizdagi hayot yanada pokiza, charog'on va adolatli bo'lishi ham o'zimizga bog'liqdir. Qo'lni qo'lga berib, yelkama-yelka tursak, ona-Vatanimizni huquqiy davlatga, baxtiyor va gullab-yashnagan mamlakatga aylantira olamiz.



## LUG‘AT

**Agressiya** (lotincha *aggressio* – *hujum*) – xalqaro huquqda BMT Ustavi nuqtayi nazaridan qurolli kuchlarning istalgan g‘ayriqonuniy qo‘llanishi, ya’ni qurolli tajovuz.

**Apatrid** (grekcha *apatris* – *vatanidan judo bo‘lgan, bevatan*) – ayni mamlakat fuqarosi hisoblanmaydigan va qandaydir xorijiy davlatga mansub ekanligi borasida ham isbotga ega bo‘lmagan shaxs.

**Apellatsiya** (lotincha *appelatio* – *murojaat, shikoyat*) – qandaydir qaror ustidan ishni mohiyat yuzasidan qayta ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan yuqori instansiyaga shikoyat qilinishi.

**Argument** (lotincha *argumentum*) – isbot asosi bo‘lib xizmat qiluvchi mantiqiy vaj.

**Armiya** (lotincha *armare* – *qurollantirish*) – davlat qurolli kuchlari to‘plami.

**Budjet** (inglizcha *bougette* – *karmon*) – davlatning muayyan muddatga qonuniy tartibda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlari ro‘yxati.

**Davlat gerbi** – davlatning rasmiy emblemasi.

**Davlat madhiyasi** – davlatning rasmiy ramzi.

**Davlat huquqi** (konstitutsiyaviy huquqqa mos keladi) – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va hududiy tuzilishi asoslarini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlab qo‘yuvchi hamda ayni davlat hokimiyati organlari tizimini belgilovchi huquq tarmog‘i.

**Demokratiya** (grekcha *demokratia* – *xalq hokimiyati*) – xalq hokimiyatchiligi, siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlari singari konstitutsiyaviy prinsiplarni e’tirof etishga asoslangan davlat tuzilishi shakli.



**Deputat** (lotincha *deputatus – elchi; wakil*) – davlatning qonun chiqaruvchi yoki qandaydir boshqa bir vakillik organiga saylangan shaxs, aholi ma'lum qismining vakili.

**Federatsiya** (lotincha *foederare – ittifoq bilan mustahkamlamoq*) – davlatlar birlashmasi bo'lib, bunda birlashuvchi davlatlar qonun bilan belgilangan mustaqillikni saqlab qolgan holda yagona ittifoq fuqaroligiga, yagona ittifoq armiyasiga, yagona ittifoq davlat organlariga ega davlat birligini tashkil etadi.

**Femida** (grekcha *Themis*) – qadimgi grek mifologiyasida bir qo'lida tarozu va boshqasida qilich, ko'zlarida bog'ich bilan (beg'arazlik ramzi) tasvirlangan odil sudlov ilohasi; odil sudlov ramzi.

**Fuqarolik jamiyati** – insonning yalpi huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan jamiyat tuzilishi.

**Fuqarolik** – shaxsning konkret davlat bilan barqaror huquqiy aloqalari.

**Genotsid** – aholi ayrim guruhlarining milliy, irqiy, diniy bahonalar bilan qirib tashlanishi.

**Impichment** (inglizcha *impeachment – badnom qilish, ayblash*) – davlat oliy mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortishning alohida tartibi.

**Inauguratsiya** (inglizcha *inaguration – tantanali ochilish; lavozimni tantanali egallash*) – yangi saylangan davlat boshlig'ining lavozimni egalash tantanali marosimi.

**Ishonch yorlig'i** – xorijiy davlatga tayinlanayotgan diplomatik vakilning maqomini rasman guvohlantiruvchi diplomatiya hujjati.

**Kvorum** (lotincha *quorum – yetarlicha hozirlik*) – yig'ilish qatnashchilarining uning qarorlari haqiqiy deb tan olinadigan eng kam soni.

**Legitimlik** (lotincha *legitimus – qonuniy*) – qandaydir huquq yoki vakolat qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash.

**Majoritar saylov tizimi** (fransuzcha *majoritarie – ko'pchilik*) – saylovchilarning ko'pchilik ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanadigan saylov tizimi.

**Ma'muriyat** (arabcha *ma'muriyyat* – buyruqlar beruvchi uyushma, idora; shuningdek, kishilar obod qilgan, qo'nim topgan, tabiatdan o'zlashtirgan maskanlar, mamlakatlarning mushtarak nomi) – turli darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining eng keng tarqalgan atalishi (shaharda, tumanda, viloyatda, respublikada).

**Muammo** (arabcha *muammo* – yechilishi qiyin, chigal; yashiringan; shuningdek, kishi nomi yashiringan mumtoz she'riyat janri) – o'rganish, tadqiq etishni talab qiluvchi murakkab nazariy yoki amaliy masala.

**Muqobil saylovlar** – mansabdor shaxsning qandaydir organga lavozim ustida o'zaro raqobatlashayotgan ikki yoki undan ortiq nomzodlardan saylanishi.

**Naturallashtirish, o'zlashtirish** (fransuzcha *naturalisation* – tabiiy) – ajnabiyni fuqarolikka qabul qilish.

**Ombudsman** (shvedcha *hombuldsman* – allakimningdir manfaatlari vakili) – davlat organlari tomonidan inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

**Parlament** (inglizcha *parliament*, fransuzcha *parler* – so'zlamok) – davlatdagi oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organing nomlanishi.

**Preambula** (fransuzcha *preamble* – so'zboshi) – qonun yoki boshqa huquqiy qarorning kirish yoki muqaddima qismi.

**Prezident** (lotincha *praesidens* – oldinda o'tiruvchi; boshda turuvchi) – respublika boshqaruv shakliga ega mamlakatlarda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i.

**Prolongatsiya qilish** (fransuzcha *prolongation* – uzaytirish) – shartnoma amali muddatini u tuzilayotganida nazarda tutilganidan uzaytirish.

**Promulgatsiya qilish** (lotincha *promulgatio* – ommaga e'lon qilish) – qandaydir davlat hujjati, qonunining u shundan keyin majburiy kuchga ega bo'lishi uchun rasman chop etilishi, e'lon qilinishi.

**Referendum** (lotincha *referendum* – bildirilishi shart bo'lgan narsa) – barcha fuqarolar ishtirok etadigan umumxalq so'rovi yoki saylov huquqi; davlat hayotining o'ta muhim masalalari bo'yicha o'tkaziladi.

**Saylovchilar bloki** (ittifoqi) – davlat boshlig‘i, markaziy va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlarda birgalikda nomzod ko‘rsatish to‘g‘risida bir necha siyosiy partiyalar bitimi.

**Standart** (inglizcha *standart*) – norma, mezon, asos.

**Suverenitet** (fransuzcha *souverainete*) – davlatning o‘z ichki ishlarida va tashqi munosabatlarida boshqa bir davlatdan to‘la mustaqilligi.

**Senzura** (lotincha *censura* – *davlat nazorati*) – hokimiyat tomonidan ko‘ngilsiz yoki zararli deb topilgan g‘oyalar va ma’lumotlarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik yoki cheklab qo‘yish maqsadida bosma mahsulotlar, sahna asarlari va hokazolar mazmun-mundariyasi ustidan davlat nazorati.

**Unitar** (lotincha *unitas* – *birlik, bir butun*) – yagona, birlashgan, bir butunni tashkil etuvchi; davlat tuzilishi shakli.

**Ustuvor, ustuvorlik** – qandaydir narsaning birinchiligi, afzalligi, birlamchiligi ifodasi.

**Veto** (lotincha *veto* – *taqiqlayman*) – qandaydir organ qarorini to‘xtatib turadigan yoki kuchga kirishiga yo‘l qo‘ymaydigan hujjat.

**Viza** (lotincha *visus* – *o‘tkazilgan, ko‘zdan kechirilgan*) – pasportda davlatning uning hududiga kelishga, ketishga, yashab turishga yoki u orqali o‘tishga maxsus ruxsatnomasini bildiruvchi belgi.



## Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T., 1996.
2. Karimov I.A. Asosiy qonunimiz tantanasi, T., 1996.
3. Karimov I.A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. T., 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999.
5. Karimov I.A. Qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezonini bo'lsin, T., 2001.
6. Karimov I.A. Konstitutsiya – yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori. T., 2003.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T., 2010.
8. Islamov Z.M. Davlatchilik va huquq nazariyasi. T., 1997.
9. Islamov Z.M. Huquq ustuvorligi. T., 2011.
10. Kostetskiy V.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lug'at-ma'lumotnoma. T., 2013.
11. Saidov A.X., Tajixonov U., Odilqoriyev X. Davlatchilik va huquq asoslari. T., 2002.
12. Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil rivojlanishning huquqiy asoslari. T., 2012.
13. Tansiqboyeva G.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqlari. T., 2003.
14. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – O'zbekiston kelajagining poydevoridir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasi. T., 2013.

## YAKUNIY TAKRORLASH.

### KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI

1. Konstitutsiya – bu ...
2. Davlatimizning nomlanishi Konstitutsiyamizga muvofiq ...
3. “Konstitutsiya” so‘zi lotincha bo‘lib, ...
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bosh maqsadi nima?
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
6. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi qanday prinsipga asoslanadi?
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nechta bo‘lim, bob va moddadan iborat?
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini sanab bering.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asos soluvchi g‘oyalarini aytib bering.
10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko‘ra davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar nimaga muvofiq ish ko‘radi?
11. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi masalani hal etishda demokratik davlat qanday yo‘l tutadi?
12. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati qanday prinsiplarga asoslanadi?
13. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining yagona manbayi kim?
14. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq kim O‘zbekiston xalqi nomidan ish ko‘rish huquqiga ega?
15. Qaysi qonun yoki me‘yoriy akt konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbayi sanaladi?
16. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?
17. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar davlatimiz qaysi qonun asosida mustaqil demokratik davlat maqomini olgan?

18. Konstitutsiya preambulasi nima?
19. Suverenitet – bu ...
20. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?
21. Nima uchun huquqiy davlatda hokimiyatning taqsimlanish tamoyiliga rioya etish majburiy sanaladi?
22. Vijdon erkinligi – bu ... fuqarolar huquqi.
23. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida barcha fuqarolar uchun mehnat qilish burchi belgilanganmi?
24. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklarini kim ta‘minlaydi?
25. Kim O‘zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklari kafolati bo‘lish huquqiga ega?
26. Konstitutsiyaga muvofiq respublikamizda o‘z fikrini bildirish erkinligi cheklanganmi?
27. Bola necha yoshdan boshlab fuqaroligini o‘zgartirish to‘g‘risida yozma rozilik bildirishga haqli?
28. Apatrid – bu...
29. Fuqarolik mavjudligini qanday hujjat tasdiqlaydi?
30. Ombudsman – bu...
31. “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?
32. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining asosiy qirralarini ko‘rsating.
33. Fuqarolik – bu...
34. Agar ota-onalar O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashasa-yu, ammo O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lsa, farzandlarining fuqaroligi qanday hal etiladi?
35. Chet el fuqaroligi bo‘lgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkinmi?
36. Qanday hollarda fuqarolikdan chiqarishga yo‘l qo‘yilmaydi?
37. Qanday hollarda fuqarolik bekor qilinadi?
38. Konstitutsiyaga muvofiq quyidagilar shaxsiy huquq va erkinliklarga kiradi: ...
39. Insonning siyosiy huquqlariga qanday huquqlar kiradi?
40. Hokimiyat organlari miting, yig‘in va namoyishlar o‘tkazishni taqiqlashga haqqi bormi?

41. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish, davlatning butunligi va xavfsizligini buzish maqsadi bo'lmagan yashirin jamiyatlar tuzishga ruxsat beriladimi?
42. Vazirlar Mahkamasi faoliyatini kim boshqaradi?
43. Oliy Majlis Kengashi qanday maqsadda tashkil etiladi?
44. Xalq deputatlari Kengashi faoliyatini kim boshqaradi?
45. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimi qachon ta'sis etilgan?
46. Fuqarolar yig'ini posyolka, qishloq va mahallalarda o'zini o'zi boshqarish organlarimi?
47. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakillarini tayinlaydi va ozod qiladimi?
48. Qaysi organlar va mansabdor shaxslarga Oliy Majlisda qonunchilik tashabbusi huquqi berilgan?
49. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq kimga va qaysi organga xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish huquqi berilgan?
50. O'zbekiston Respublikasida qaysi organ roziligi bilan viloyatlar chegaralarini o'zgartirish, tashkil etish yoki qayta tashkil etish mumkin?
51. Atrof-muhitni muhofaza qilish hokimiyatning qaysi organlariga tegishli?
52. Oliy Majlis raisi kimga hisobot beradi?
53. Kimlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanishi mumkin?
54. Konstitutsiyaga muvofiq Prezident o'z vakolatini yakunlagandan so'ng qanday lavozimni egallashga haqli?
55. Prezident qanday muddatga saylanadi?
56. O'zbekiston Respublikasi chegaralarini qaysi organ o'zgartirishga haqli?
57. Ommaviy axborot vositalari ustidan senzura o'tkazilishiga yo'l qo'yiladimi?
58. Oliy Majlis qonunlari qabul qilingandan so'ng ular qancha muddatda e'lon qilinadi?
59. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasi bir yilda necha marta chaqiriladi?
60. Konstitutsiyaviy sud qarorlari qanday hollarda qabul qilingan deb hisoblanadi?
61. Oliy Majlis necha palatadan iborat?

62. Prezident Oliy Majlisni tarqatib yuborishga haqlimi?
63. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi necha yoshdan Prezident etib saylanishi mumkin?
64. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati vakolati qanday hollarda to‘xtatilishi mumkin?
65. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari necha nafardan iborat bo‘ladi?
66. Respublika budjetini kim qabul qiladi va uning bajarilishini nazorat qiladi?
67. Respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishini kim belgilaydi?
68. O‘zbekiston Respublikasi tarkibida nechta viloyat bor?
69. Kim yangi viloyatni tashkil qilishga haqli?
70. O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi nizo qanday hal etilishi kerak?
71. Oliy Majlisning mutlaq vakolatlariga nimalar kiradi?
72. Kim jamoat tashkilotlarini tarqatib yuborish, taqiqlash yoki faoliyatini cheklashga haqli?
73. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bir vaqtning o‘zida Konstitutsiyaviy sud raisi vazifasini bajaradi degan ta’kid to‘g‘rimi?
74. Fuqarolar qanday qilib davlatni boshqarishda ishtirok etishi mumkin?
75. Prezident lavozimi jahonda qachon va qayerda joriy etilgan?
76. O‘zbekiston Respublikasida shaharchalar, qishloqlar va ovullarni tuzish yoki tugatish kim tomonidan amalga oshiriladi?
77. Diniy tashkilotlar siyosiy faoliyatda ishtirok etishlari mumkinmi?
78. Fuqarolar yig‘ini vakolatlariga nimalar kiradi?
79. Konstitutsiyaviy sud sudyalari vakolatlari qanday hollarda to‘xtatilishi mumkin?
80. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarida tafovut yuzaga kelsa, qanday qonun qo‘llaniladi?
81. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining asosiy vakolatlarini sanab bering.
82. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (Jo‘qorg‘i Kengesi) kim tomonidan tuziladi?
83. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga saylanadigan fuqaro saylov oldidan shu respublika hududida kamida necha yil istiqomat qilgan bo‘lishi kerak?

84. Sessiya qonuniy deb hisoblanishi uchun sessiya majlisida jami necha deputat ishtirok etishi kerak?
85. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat boshlig'i sifatidagi asosiy majburiyatlarini sanang.
86. Prezident o'z vakolatlarini davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga berishga haqli emasligi to'g'risidagi qoida nima sababdan O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan?
87. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib kim saylanishi mumkin?
88. Prezidentlik respublikasining parlament respublikasidan farqini ko'rsating.
89. O'zbekiston Respublikasidagi qaysi ijroiya hokimiyati organlarini bilasiz?
90. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qay tariqa shakllantiriladi?
91. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining asosiy vakolatlarini sanab bering.
92. Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis bilan o'zaro aloqalari qanday amalga oshiriladi?
93. Ijro hokimiyati organlarining asosiy vazifasini ayting.
94. Xalq deputatlari Kengashlari qaysi muammolarni hal qiladi?
95. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi qaysi tashkilotdan iborat?
96. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga kim boshchilik qiladi va u necha yilga saylab qo'yiladi?
97. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi sud tizimi qaysi sudlardan tashkil topgan?
98. Davlat hokimiyati organlari tizimida sud qanday rolni bajaradi?
99. O'zbekiston Respublikasi sud organlarining asosiy maqsadini ayting.
100. Odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga qonunlarga nisbatan qo'yiladigan asosiy talablarni sanab bering.
101. Sudlar mustaqilligi va ularning faqatgina qonunga bo'ysunishi tamoyili amaliyotda qaysi yo'l bilan ro'yobga chiqariladi?
102. Konstitutsiyaviy sudning bosh vazifasini ayting.
103. Shahar yoki tuman sudi, harbiy sud, Konstitutsiyaviy sud sudyasi kim bo'la olishi mumkin?
104. Yashirin ovoz berish jarayonida yalpi, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqlari nimani anglatadi?
105. O'zbekiston Respublikasida kim saylovchilik huquqiga ega bo'ladi?

106. Saylov komissiyalari faoliyatida oshkoralik qanday rol o'ynaydi?
107. O'zbekistonda saylov tizimining qaysi modeli qabul qilingan?
108. O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari fuqarolarga qanday huquqlarni havola etadi?
109. Saylov jarayonida saylovchi qanday rol o'ynaydi?
110. Saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari qanday vazifani bajaradi?
111. Prokuratura organlari qaysi maqsadda tashkil qilingan?
112. Sudda prokuror qanday rolni bajaradi?
113. Prokuraturaga kim rahbarlik qiladi, ularning faoliyatini kim nazorat qilib turadi?
114. Qonun buzilishi aniqlanganda prokuror tomonidan qanday chora-tadbirlar ko'riladi?
115. Prokuraturaga murojaat qilishning o'ziga xos jihati nimada?
116. Prokuratura organlarini moliyalashtirish qay tarzda kechadi?
117. Jamiyatda iqtisodiy munosabatlar yanada rivojlanishiga huquq qay tariqa ta'sir o'tkazadi?
118. Davlat moliya va kredit tizimining asosiy manbalarini ayting.
119. Davlat moliya va bank tizimini tarkib toptiruvchi muassasalarni ayting.
120. Konstitutsiyadagi o'zgartishlar zarurati nimadan kelib chiqadi?
121. Barqaror amal qiluvchi Konstitutsiyaning afzalliklari nimalarda namoyon bo'ladi?

## MUNDARIJA

|                                     |   |
|-------------------------------------|---|
| Konstitutsiya olamiga sayohat ..... | 3 |
|-------------------------------------|---|

### I bo‘lim. KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI

|                                                                                      |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1-§. Konstitutsiyaviy huquq .....                                                    | 6  |
| 2-§. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratilishining asosiy omillari .....  | 11 |
| 3-§. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mundarijasi va xususiyatlari ..... | 16 |
| 4-§. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari .....           | 21 |
| 5-§. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati .....                              | 31 |

### II bo‘lim. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

|                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------|----|
| 6-§. Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari .....         | 38 |
| 7-§. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi .....                                 | 46 |
| 8-§. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari .....                | 54 |
| 9-§. Siyosiy huquqlar .....                                                    | 62 |
| 10-§. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar .....                            | 67 |
| 11-§. Inson huquqi va erkinliklari kafolatlari .....                           | 75 |
| 12-§. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari ..... | 81 |

### III bo‘lim. JAMIYAT VA SHAXS

|                                                                               |     |
|-------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 13-§. Jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati .....      | 88  |
| 14-§. Siyosiy partiyalar faoliyati .....                                      | 95  |
| 15-§. Oila jamiyatning buguni va kelajagi negizidir .....                     | 99  |
| 16-§. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi ..... | 105 |
| 17-§. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi ..... | 109 |
| 18-§. Oliy Majlis va uning vakolatlari .....                                  | 114 |
| 19-§. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti .....                               | 123 |

|                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 20-§. O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari .....    | 129 |
| 21-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlari .....                             | 134 |
| 22-§. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari .....                   | 137 |
| 23-§. O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi .....                          | 140 |
| 24-§. O‘zbekiston Respublikasi sud organlari faoliyatini tashkil etish ..... | 147 |

#### **IV bo‘lim. KONSTITUTSIYA – MAMLAKATDA DEMOKRATIYANI RIVOJLANTIRISH KAFOLATI**

|                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 25-§. O‘zbekiston Respublikasidagi saylov tizimi .....                                               | 155 |
| 26-§. Amaliy dars. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari<br>va senatorlari saylovi ..... | 161 |
| 27-§. O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari .....                                       | 165 |
| 28-§. O‘zbekiston Respublikasida moliya va kredit .....                                              | 171 |
| 29-§. Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish .....                                                 | 178 |
| Xulosa .....                                                                                         | 184 |
| Lug‘at .....                                                                                         | 186 |
| Tavsiya etiladigan adabiyotlar .....                                                                 | 190 |
| Yakuniy takrorlash. Konstitutsiya – davlatning Asosiy qonuni .....                                   | 191 |

*O'quv nashri*

**G.M. TANSIKBAYEVA, V.A. KOSTETSKIY**

## **KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
9-sinf o'quvchilari uchun darslik

Tuzatilgan va to'ldirilgan yettinchi nashri

“Sharq” nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2014

Rus tilidan *Rustam Boyto'ra* va *Barno Eshpo'latov*  
tomonidan tarjima qilingan

Muharrir *Akbar Bahromov*  
Badiiy muharrir *Feruza Basharova*  
Dizayner va sahifalovchi *Anatoliy Kostetskiy*  
Texnik muharrir *Bekzod Karimov*  
Musahhihlar: *M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011**

Bosishga ruxsat etildi 07.07.2014. Bichimi 70x90<sup>1/16</sup>.  
Ofset bosma. “Times” garniturası. Shartli bosma tabog'i 14,6.  
Nashriyot-hisob tabog'i 12,5. Adadi 370 135 nusxa. Buyurtma № 3394.

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, “Buyuk Turon” ko'chasi, 41.**

### Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

| № | O'quvchining ismi, familiyasi | O'quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgan-dagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|-------------------------------|------------|--------------------------------|-------------------------|--------------------------------------|-------------------------|
| 1 |                               |            |                                |                         |                                      |                         |
| 2 |                               |            |                                |                         |                                      |                         |
| 3 |                               |            |                                |                         |                                      |                         |
| 4 |                               |            |                                |                         |                                      |                         |
| 5 |                               |            |                                |                         |                                      |                         |
| 6 |                               |            |                                |                         |                                      |                         |

Darslik ijaraga berilganda va o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

|            |                                                                                                                                                                                                                             |
|------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Yangi      | Darslikning foydalanishga birinchi marotaba berilgandagi holati.                                                                                                                                                            |
| Yaxshi     | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.                                                                                  |
| Qoniqarli  | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova chizilgan, u yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan, darslikni tiklab bo'lmaydi.                       |